

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA  
VAZIRLIGINING  
YURIDIK KOLLEJLARI**

**B. Musaev, D. Artikov, B.Qosimov**

**MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS  
DARSLIK**

**Toshkent – 2020**

**UDK: 342.9(075)(575.1)**

Mazkur darslik Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-son buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:**

**O.Turg‘unov** – yuridik fanlar nomzodi  
**S.Murataev** – yuridik fanlar nomzodi

B. Musaev, D. Artikov, B.Qosimov  
Ma’muriy huquq va protsess. – T.:  
TDYuU nashriyoti, 2020. – 160 bet.

Darslik Ma’muriy huquq va protsessning boshlang‘ich tushunchalariga bag‘ishlangan bo‘lib, talabalarda ma’muriy huquqning yangi tushunchasi asosida ma’muriy organ, ma’muriy tartib-taomil, ma’muriy ish yuritivi, ma’muriy hujjat, shuningdek ma’muriy huquqiy munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarni yoritib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan.

Darslik yuridik kollej talabalariga mo‘ljallab tayyorlangan.

© B.Musaev, D.Artikov, B.Qosimov  
© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>6</b>
I bob. Ma'muriy huquqqa kirish.....	8
II bob. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllari va usullari.....	20
III bob. Davlat xizmati.....	30
IV bob. Iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'muriy-siyosiy sohalarni ma'muriy-huquqiy tartibga solish.....	39
V bob. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash .....	73
VI bob. Ma'muriy protsess.....	82
VII bob. Ma'muriy tartib-taomillar .....	88
VIII bob. Ma'muriy ish yurituvi.....	97
IX bob. Ma'muriy hujjat .....	108
X bob. Ma'muriy yustitsiya .....	132
<b>Kazusni tahlil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar .....</b>	<b>143</b>
<b>Kazusni yechimi bo'yicha namunaviy javob.....</b>	<b>145</b>

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>Введение.....</b>	<b>6</b>
Глава I. Введение в Административное право.....	8
Глава II. Административно-правовые формы и методы государственного управления .....	20
Глава III. Государственная служба .....	30
Глава IV. Административно-правовое регулирование экономических, социальных и административно-политических сфер.....	39
Глава V. Обеспечение законности в государственном управлении .....	73
Глава VI. Административный процесс .....	82
Глава VII. Административные процедуры .....	88
Глава VIII. Административное производство.....	97
Глава IX. Административный акт .....	108
Глава X. Административная юстиция.....	132
<b>Методические рекомендации по написанию кейса .....</b>	<b>143</b>
<b>Типовой ответ на казуса .....</b>	<b>145</b>

## CONTENTS

<b>Introduction .....</b>	<b>6</b>
Chapter I . Introduction to Administrative .....	8
Chapter II. Administrative and legal forms and methods of government .....	20
Chapter III. Public service.....	30
Chapter IV. Administrative-legal regulation of the economic, social, administrative and political spheres .....	39
Chapter V. Ensuring Legality In Public Administration....	73
Chapter VI. Administrative process.....	82
Chapter VII. Administrative procedure .....	88
Chapter VIII. Administrative proceeding.....	97
Chapter IX. Administrative act.....	108
Chapter X. Administrative Justice .....	132
<b>Methodological recommendations for writing</b>	
<b>case .....</b>	<b>143</b>
<b>Exemplary response for case .....</b>	<b>145</b>

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlarning shakllanishi va chuqurlashib borishi, davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy bo‘linishi va samarali ijro hokimiyatining tashkil etilishi, davlatchilikni mustahkamlash zaruriyat, zamonaviy huquqiy demokratik davlatni barpo etish, davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyotining o‘zgarishi – bularning barchasi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv sohasidagi ma’muriy-huquqiy va ma’muriy-protsessual o‘zgarishlarni ta’minlashga qaratilgandir.

O‘zbekiston tanlab olgan yo‘l – respublika va uning xalqining manfaatlariga mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir. Bozor sharoitiga o‘tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning roli jiddiy o‘zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o‘zini o‘zi tartibga soluvchi mexanizmlari tobora katta rol o‘ynaydi.

Demokratik tamoyillarga asoslangan erkin bozor munosabatlariga o‘tish izchil tarzda eskicha tartiblarga barham berish, uning o‘rniga yangi bozor tartiblarini astasekin joriy eta borish, iqtisodda, siyosatda, madaniy-ma’naviy hayotda tub islohotlarni amalga oshirish yo‘li bilan jamiyatni yangilash orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ma’muriy-huquqiy va ma’muriy-protsessual fanlarni, ma’muriy qonunchilikni takomillashtirish masalalariga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy islohotlar konseptsiyasi va 2018-yil 8-yanvar kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni bilan bevosita bog‘liqdir. Bu orqali esa Ma’muriy huquq fanini o‘rganishga yangicha yondashishni taqozo etmoqda.

Ma'muriy huquq fanini o'rganish jarayonida, davlat mustaqilligidan so'ng yuz bergan o'zgarishlarni ham inobatga olish, yangi Ma'muriy huquq o'quv kursini shakllantirishda xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish lozim.

"Ma'muriy huquq va protsess" darsligi – O'zbekiston Respublikasining yangi qonunchiligi asosida, ma'muriy huquqning nazariy-huquqiy masalalarini yoritib berishni, mamuriy tartib-taomillar amaliyotiga e'tiborni kuchaytirishni, davlat boshqaruvini yangicha fikrlovchi kadrlar bilan ta'minlash ishini samarali tashkil etishni takomillashtirishni nazarda tutadi.

"Ma'muriy huquq va protsess" darsligining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- zamonaviy boshqaruv tizimidan kelib chiqib ma'muriy huquqning tushunchasi va predmetini o'rganish;
- ma'muriy huquq normalari va ma'muriy-huquqiy munosabatlarni yoritib berish;
- davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllari va usullarini yoritib berish;
- turli sohalarni ma'muriy-huquqiy tartibga solishni tahlil qilish;
- ma'muriy protsessni o'rganish;
- ma'muriy tartib-taomillarni o'rganish va tahlil qilish;
- ma'muriy ish yurituvni o'rganish;
- ma'muriy hujjatni tahlil qilish;
- ma'muriy yustitsiyani o'rganish va tahlil qilish;

Darslikda ma'muriy-huquqiy munosabatga oid muammoli vaziyat(kazus)larni tegishli mavzularga bog'lab tahlil qilishga harakat qilingan.

## I BOB. MA'MURIY HUQUQQA KIRISH

### • *Ma'muriy huquq nima?*

Ma'muriy huquq ommaviy huquq sohasi hisoblanib, ommaviy manfaatlarni muhofaza qilishga qaratilgan munosabatlarni tartibga soladi.

*Yodda tuting!*

Ma'muriy huquq – bu ijro hokimiyatini amalgalash oshirish va davlat boshqaruvi jarayonida ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisidir.

“Ma'muriy huquq” tushunchasi “davlat boshqaruvi” tushunchasi bilan o'zaro bog'liqdir.

Davlat boshqaruvi – bu qonunlar va boshqa normativ (qonunosti) hujjatlarni qo'llash bo'yicha olib boriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir.



*I-sxema*

## *E'tibor qarating!*

Bugungi kunda o'quvchilar orasida ma'muriy huquqni tushunish borasida noto'g'ri qarash keng tarqalgan. Ya'ni "ma'muriy huquq" deganda, "ma'muriy javobgarlik"ni tushunadilar. Ya'ni ma'muriy huquqning asosiy manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi deb biladi. **Afsuski, bu noto'g'ri tushuncha!** Bunday qarash sobiq Ittifoq davridan qolgan. Bu esa ma'muriy huquqni negativ tushunishga sabab bo'lgan. Aslida ma'muriy huquqning pozitiv xususiyatlari juda ko'p. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biz biror bir qonun hujjatini ma'muriy huquqning asosiy manbai sifatida belgilab olishimiz mushkul. Bunga asosiy sabab ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasining juda kenligidir. Jumladan, mamlakatimizda mavjud bo'lgan qonun hujjatlarining **aksariyati** ma'muriy huquq sohasiga tegishlidir.

### • *Ma'muriy-huquqiy normalar nima?*

Ma'muriy-huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatilgan, ma'muriy-huquqiy faoliyat jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ushbu munosabatlar subyektlarining yuridik huquqlari va majburiyatlarini belgilaydigan xulq-atvor qoidalaridir.


## *Yodda tuting!*

**Ma'muriy-huquqiy normalar-** Ma'muriy huquq fani tizimining boshlang'ich elementi bo'lib, davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki tasdiqlanadigan hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini (xatti-harakatini) belgilab beradigan qoidalardir.

Ma'muriy-huquqiy normalar – ma'muriy huquq tarmog'ining boshlang'ich elementi sifatida quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- ma'muriy-huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi va ularning bajarilishi majburiy hisoblanadi;
- ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini, xatti-harakatini tartibga soladi;
- ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlarini aniqlab beradi.

Ma'muriy-huquqiy normalar mazmuniga ko'ra moddiy va protsessual normalarga bo'linadi. Moddiy ma'muriy-huquqiy normalar davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatları mazmunini aks etsa, protsessual ma'muriy-huquqiy normalar esa ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi.



## *2-sxema*

Ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlari – ma'muriy huquq predmeti hamda huquqiy tartibga solish uslubining xususiyatlari bilan belgilanadi. Ma'muriy-huquqiy normalar – O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi boshqa tarmoqlarining normalaridan farqli ravishda, maxsus qo'llanish sohasiga ega bo'lib, bu davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlardir. Shu sababli ma'muriy-huquqiy normalarning mazmunini davlat boshqaruvi jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan xatti-harakatlar doirasi tashkil etadi. Ular yordamida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslarning davlat boshqaruvi sohasida qachon va qanday tartibda harakat qilganlarida qonunchilik talablari aniq va maqsadga muvofiq bo'lishi belgilanadi. Shu bilan birga, ma'muriy-huquqiy normalarda qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin va qaysilaridan o'zini tiyish kerakligi ko'rsatiladi.

- ***Ma'muriy-huquqiy munosabatlar mazmun-mohiyatini qanday munosabatlar tashkil etadi?***

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar – bu ma'muriy huquq normalari asosida vujudga keladigan munosabatlardir.

***Yodda tuting!!!***

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar bu ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat boshqaruvi jarayonida yuzaga kelgan va ma'muriy-huquqiy normalar bilan tartibga solingan huquqiy munosabatlarning bir turidir.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar o'zining tuzilishiga ko'ra munosabat subyekti, obyekti va mazmuniga ega.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***subyekti*** unda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni boshqaruv jarayonida ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan (davlat boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar) yoki boshqacha ma'muriy-huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar (fuqarolar, jamoat birlashmalar) hisoblanadi.


Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***obyekti*** ma'muriy huquq subyektlarining harakatlari (qarorlari), ularning ijobjiy yoki salbiy xulq-atvori hisoblanadi. Har qanday huquqiy munosabat ma'lum bir jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan bir vazifani bajaradi. Shu sababli obyektsiz huquqiy munosabat bo'lishi mumkin emas.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ***mazmunini*** ma'muriy huquq subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiqlar, cheklar tashkil etadi.

- ***Ma'muriy huquq subyektlari kimlar kiradi?***

Ma'muriy huquq subyektlari ikkiga bo'linadi: individual subyektlar va jamoaviy subyektlar.

*Individual subyektlar* – fuqarolar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar bo'lib, ular ijro hokimiyati va ommaviy boshqaruv organlari bilan qat'iy va doimiy tashkiliy aloqalarda bo'lmaydi. Fuqarolar, masalan, qandaydir harakatni sodir etish zarurati bilan ularga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish, tegishli davlat organining ruxsatini (litsenziya) olish, huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni buzadigan ijro hokimiyati organlarining harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish orqali ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida namoyon bo'ladi.



*3-sxema*


*Jamoa subyektlari* – bu insonlar guruhi bo‘lib, tashqi munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida ishtirok etadilar; ularni tashkil etish tartibi va faoliyati normativ huquqiy aktlar bilan tartibga solinadi. Ma’muriy-huquqiy munosabatlarda jamoa subyektlari o‘z nomlaridan harakat qiladilar; qonun va boshqa normativ hujjatlarda ularning huquqlari va ma’lum bir majburiyatları belgilab qo‘yiladi.

*Yodda tuting!*

**Ma'muriy organ** — ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilolan komissivalardir.


Ma’muriy organlar tushunchasi 2018 yilga qadar ma’muriy huquqqa doir qonunchilikda mayjud bo‘lmasligi. Ushbu atama “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunda alohida ajratib ko‘rsatildi. Bunga qadar esa ma’muriy huquqiy munosabatlarda bir tarafda albatta davlat boshqaruvi organining ishtirok etishi aytib o‘tilar edi. Davlat boshqaruvi organlari esa ijro hokimiyatiga mansub, faoliyati qonunosti xarakteriga ega hamda ijro va farmoyish berish

faoliyati, ya’ni davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlarining tizimidir. Bular O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar, inspeksiyalar va markazlar, shuningdek mahalliy ijro hokimiyati organlarini qamrab oladi.



*4-sxema*

Endilikda ma’muriy huquqiy munosabatlarda davlat boshqaruvi organlari o‘rnini ma’muriy organlar egallagan. Ma’muriy organlar doirasi esa davlat boshqaruvi organlaridan kengdir. Ya’ni, ma’muriy organlar nafaqat davlat boshqaruvi organlarini, balki ma’muriy-boshqaruv vakolati berilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalarni ham qamrab oladi. Soddarоq qilib aytganda, har qanday davlat boshqaruvi organi ma’muriy organ hisoblansa-da, har qanday ma’muriy organ ham davlat boshqaruvi organi hisoblanmaydi.



### *5-sxema*

Ma'muriy organlar tizimi davlat boshqaruvida nomarkazlashtirish natijasida vujudga kelgan. Davlat boshqaruvi organlarining tashqi boshqaruv, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda ularga berilgan vakolatlar nodavlat tuzilmalarga o'tkazilgan. Natijada ma'muriy organlar tizimida nodavlat tashkilotlar ham o'rinni olgan. Nomarkazlashtirish fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi mahsulidir.

Nomarkazlashtirish natijasida endilikda nodavlat tuzilmalar ham boshqaruv vakolatiga ega bo'ldi. Ular ham jismoniy va yuridik shaxslar bilan tashqi munosabatga kirishib ularning qonuniy huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qarorlar – ma'muriy hujjatlar qabul qilish vakolatiga ega bo'ldi.

Demak, bugungi kunda davlat boshqaruv organlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan barcha masalalarni hal etib bermaydi. Yuqorida ta'kidlangani singari fuqarolik jamiyatida ko'plab masalalarni hal etish nodavlat tuzilmalariga ularga vakolat berish orqali olib beriladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari buning yorqin misolidir. Ya'ni, fuqarolarning kundalik hayotida "mahalla idorasasi" o'z ahamiyatiga ega. Bugun fuqarolik jamiyatni rivojlanishining keyingi bosqichida bunday nodavlat tuzilmalar sonining yanada ko'payishi ehtimoli mavjud. Demak, avvallari ma'muriy huquqiy munosabatlarda faqatgina davlat boshqaruvi organlarining majburiy ishtiroki talab etilsa, endilikda ma'muriy organlarning ishtiroki talab etiladi.

Ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar ham mayuddir. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Masalan, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarga diplom beradi. Bunga attestatsiya komissiyasining qarori asos bo'ladi. Attestatsiya komissiyasi ma'muriy organ vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi tushunchada ma'muriy-huquqiy faoliyat so'zлari ishlatilmoqda. Ma'muriy-huquqiy faoliyat deganda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilarga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv faoliyati tushuniladi. Ya'ni, ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv faoliyati ma'muriy hujjatlarni qabul qilishni anglatadi. Ya'ni, ma'muriy organlar ma'muriy hujjatlarni qabul qilish orqali fuqarolar va yuridik shaxslarga ta'sir ko'rsatadi.

Soddaroq qilib aytganda, ma'muriy-huquqiy faoliyat ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan tashqi munosabatga kirishishda aks etadigan faoliyatdir. Ma'muriy-huquqiy faoliyat – bu ma'muriy organlar tomonidan xususiy shaxslar, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli ma'muriy ishlarni ko'rib chiqib hal etish, ular yuzasidan ma'muriy hujjatlarni qabul qilishda amalgalashiriladigan chora-tadbirlar tizimidir.

Muayyan davlat organi yoki tashkilotga aynan ma'muriy-boshqaruv vakolatining berilishi hamda uning ta'sirida jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarga kirisha olish mazkur davlat organi yoki tashkilotning ma'muriy organ maqomiga erishishga olib keladi. Ya'ni, ma'muriy-huquqiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda u bilan bog'liq ma'muriy-boshqaruv vakolati berilmagan biron ta什kilotni ma'muriy organ deb atab bo'lmaydi.

- *Ma'muriy huquqning manbai sifatida qaysi qonun hujjatlarini ta'kidlash mumkin?*

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasi juda keng bo'lganligi uchun ushbu huquq sohasiga oid qonun hujjatlari keng qamrovlidir.

Ma'muriy huquq sohasiga taalluqli bo'lgan eng asosiy qonun hujjatlaridan biri bu "**Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida**"gi Qonun hisoblanadi.

Ushbu Qonun ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan **litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish**

**tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish** bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun **normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, davlat xizmatini o'tash, referendumlar, saylovlar o'tkazish, mudofaa, jamoat xavfsizligi va huquq-tartibot sohasida, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoiy majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat, sud ishini yuritish, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.**

Ushbu Qonun ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi eng asosiy prinsipial qonun hisoblanadi. Ma'muriy huquqning asosiy mohiyatini tushunishda talabalarga ushbu qonunni o'qish tavsiya etiladi.

O'z navbatida, **litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid qonun hujjatlari** ushbu huquq sohasining manbalari doirasiga kiradi.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus), mantiqiy va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **MUAMMOLLI VAZIYAT(KAZUS)**

**1-topshiriq**

Xitoy fuqarosi Li Van O'zbekiston Respublikasiga o'n kunlik xizmat safariga kelib, Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi turar joylardan birini ijara olib yashay boshladi. Li Van o'zi istiqomat qilayotgan turar joyning uchastka noziri V.Karimovga uchrashib, unga o'zini tanishtirib, undan vaqtinchalik ro'yxatga olinishi kerak yoki kerak emasligi to'g'risida so'radi. Bunga javoban uchastka noziri V.Karimov Li Vanni ro'yxatga olish zarur emasligini va bu haqida muayyan bir hujjat yo'qligini aytdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

**2-topshiriq**

Urug'chilik instituti ilmiy xodimi fuqaro A.Umidov o'z tadqiqotlari natijasida o'simlikni suvsizlikka chidaydigan yangi navini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Fuqaro A.Umidov ushbu ixtiro(selektesiya yutug'i)ga patent olish maqsadida barcha hujjatlarni Intelektual mulk agentligiga taqdim qildi. Agentlik A.Umidovga patent olish uchun avval Qishloq xo'jaligi vazirligining xulosasini olishi lozimligini aytди.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **MANTIQIY SAVOL**

Bugungi kunda ayrim davlatlarda "Ma'muriy huquq"ning predmetiga ma'muriy javobgarlik ham kiritilishi nazarda tutiladi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda ma'muriy javobgarlik tushunchasining o'zi mavjud emas. Lekin, mazkur davlatlarda "Ma'muriy huquq" sohasi ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Mamlakatimizda ham aksariyat "Ma'muriy huquq" darsliklarida ma'muriy javobgarlik bo'yicha alohida boblar ajratilgan. Sizningcha

ma'muriy javobgarlik "Ma'muriy huquq"ning predmeti doirasida o'rganilishi lozimmi?

**Tanqidiy tahlil qiling.**

**NAZARIY SAVOLLAR**

1. Ma'muriy huquq tushunchasini amaliy misollar bilan yoritib bering.
2. Ma'muriy huquq va ommaviy huquqning o'zaro munosabatini yoritib bering.
3. Ma'muriy huquqning Fuqarolik huquqidan farqli jihatlarini amaliy misollar bilan yoritib bering.

## **II BOB. DAVLAT BOSHQARUVINING MA'MURIY-HUQUQIY SHAKLLARI VA USULLARI**

### **• *Ma'muriy-huquqiy shakl nima?***

Har qanday faoliyat singari davlat boshqaruvi faoliyati ham ma'lum bir shakllarda ifodalanadi. Davlat boshqaruvi shunday jarayonki, unda ko'pgina shaxslar, tashkilot va organlar ishtirok etadi. Bu jarayonda ijro hokimiyati organlarining (boshqaruv faoliyati asosiy subyektining) vazifalari, funksiyalari va vakolatlari amalga oshirilganligi sababli, birinchi navbatda, mazkur hokimiyat subyektlari faoliyati shakllarining muammosi vujudga keladi. Ushbu faoliyatning shakllarini aniqlash orqali davlat-boshqaruv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglash mumkin.

***Yodda tuting!***

**Ma'muriy-huquqiy shakl- amaldagi huquq normalari asosida qabul qilingan boshqaruv akti yoki yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatdir.**

Boshqaruv shakli davlat organi, uning tarkibiy bo'limlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ma'lum bir qismi hisoblanadi. Boshqaruvning shakli aniq subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum bir harakatlarda ifodalanib, boshqaruv faoliyatining, boshqaruv ta'sirining mazmunini yoritib beradi. Boshqaruv shakllari huquqiy mazmunga ega, ya'ni normativ huquqiy akt orqali o'rnatiladi. Ba'zi hollarda boshqaruv shakllari normativ o'rnatilmagan bo'lishi ham mumkin va bularni boshqaruvning huquqiy shakllari jumlasiga kiritish mumkin emas.

Boshqaruvning maqsadiga erishish uchun boshqaruv shakllari boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

- *Ma'muriy-huquqiy shakllarning qanday turlari mayjud?*

Davlat boshqaruvi faoliyatining tashqi ko'rinishlari turli xil bo'lganligi sababli uni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) asosiy ikki shaklini ko'rsatib o'tish mumkin:

1) boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlari-ning) huquqiy shakllari, ya'ni ma'lum bir yuridik mazmunga ega bo'lgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan shakllar. Mazkur shakllar boshqaruv organlari faoliyatining asosiy shakllari bo'lib, davlat vazifa va funksiyalarini maqsadga muvofiq va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Huquqiy shakllar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi:

- huquqiy (normativ va individual) aktlarni qabul qilish;
- ma'muriy huquqiy shartnomalarni tuzish;
- yuridik ahamiyatli boshqa harakatlarni amalga oshirish;

2) boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlari-ning) nohuquqiy shakllari, ya'ni boshqaruvning huquqiy shakllariga asoslanuvchi va ularning amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi shakllar bo'lib, tashkiliy va moddiy-texnik tadbirlar orqali namoyon bo'ladi.

- *Boshqaruvning huquqiy aktlari deganda nima tushuniladi?*

Ma'muriy huquq nazariyasida boshqaruv huquqiy akti instituti alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning doirasida davlat boshqaruvining eng muhim funksiyalari amalga oshiriladi. Tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari qoida bo'yicha normativ yoki normativ bo'lmagan huquqiy aktlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Boshqaruvning huquqiy aktlari ommaviy boshqaruv oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning muhim huquqiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

***Yodda tuting!***

**Huquqiy aktlar boshqaruv qarorlarining yuridik ko‘rinishi hisoblanadi. Ijro hokimiyati organi (mansabdar shaxs) vakolat doirasida huquqiy akt qabul qilish orqali umumiy (normativ) yoki individual (yakka, ma’muriy) ahamiyatdagi masalalarni hal etadi.**

Boshqaruv akti bu boshqaruv qarorlarining huquqiy ko‘rinishi bo‘lib, ma’muriy huquqning tegishli subyekti (ijro hokimiyati organi, korxona va muassasa ma’muriyati, mansabdar shaxs) tomonidan bir tomonlama tartibda erkni ifodalash aktidir; qonunchilikda ko‘rsatilgan shaklga ega bo‘lgan va ijro hokimiyati sohasida vazifa va funksiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ma’muriy-huquqiy normalarni o‘rnatish hamda ma’muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan aktadir.

#### • *Ma’muriy-huquqiy shartnoma nima?*

Boshqaruv faoliyatini (harakatlarini) amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri bu ma’muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish hisoblanadi.

Ma’lumki, xususiy huquq sohasida shartnoma subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi odatiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlar fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi hamda uning ishtirokchilari teng huquqlarga ega bo‘ladi.

Ommaviy-huquqiy tartibga solish esa, normativ va imperativ xususiyatdagi ko‘rsatmalar vositasida amalga oshiriladi. U umumiy maqsadlarga erishish va ommaviy manfaatlarni qondirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning irodasi va xulq-atvori (yurish-turishi)ga hokimiyat-boshqaruv ta’sirini ko‘rsatadi.

Ommaviy huquqda huquqiy tartibga solishning alohida usuli hisoblangan shartnomalardan ham foydalaniladi. Ommaviy-huquqiy sohada shartnomalar, ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida, boshqaruv funksiyalarini (masalan, muvofiqlashtirish, bo'ysunuv, tashkil etish, taqsimlashni) o'z zimmasiga oladi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar jarayoni boshqaruvning ma'lum bir ko'rinishi sifatida ma'muriy jarayon tuzilishiga kiradi.

Respublikada ma'muriy-huquqiy shartnomalarning dolzarbligi va ahamiyati – mamlakatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, mulkka bo'lgan munosabatning o'zgarishi, qattiq markazlashtirish va rejali taqsimlashdan voz kechish bilan belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar:

- ommaviy shartnomalarning bir turi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi;
- ma'muriy-huquqiy shartnomada uning doimiy ishtirokchisi hisoblangan hamda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va tartibga solish funksiyasiga ega bo'limgan turli subyektlar (masalan, nodavlat korxona va tashkilotlar, fuqarolar) ishtirok etadi;
- ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishning asosiy talablari sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:
  - a) jamiyat va davlat (ommaviy) manfaatlarini qondirish;
  - b) ma'lum bir boshqaruv vazifalari va funksiyalarni amalga oshirishning ma'muriy tartibini o'rnatish;
  - v) boshqaruv organlari tomonidan nazoratning amalga oshirilishi;
  - g) majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan ikkinchi tomonning o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganida, davlat organi (mansabdor shaxs)ning shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;

d) vujudga kelgan nizolarni ma'muriy yurisdiktsiya organlarida va sudda hal etish imkoniyatining o'rnatilishi va boshqalar.

• ***Boshqaruvning nohuquqiy shakllari nima?***

Boshqaruv faoliyatida ijro hokimiyati organlari yoki mansabdar shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan barcha harakatlarni ham huquqiy aktlarni qabul qilish yoki ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishga (ya'ni huquqiy shakllarga) kiritish mumkin emas. Boshqaruv faoliyatida amalga oshiriladigan ko'pdan-ko'p harakatlar (nohuquqiy shakllar) mavjudki, ular huquqiy shakllarning amalga oshirilishida xizmat qiladi.

Boshqaruv faoliyatining nohuquqiy shakllari ijro hokimiyati organlarining davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq emas. Bunday shakllarni qo'llash yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi yoki ularni o'zgartirmaydi. Shu sababli ham bu shakllar "nohuquqiy" deb ataladi. *Nohuquqiy shakl huquqqa (qonunga) xilof shakl degani emas, balki biron-bir huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydigan shakllardir.*

Boshqaruv faoliyati (harakatlari)ning nohuquqiy shakllari misollar bilan:

1) tashkiliy harakatlar yoki tadbirlarni amalga oshirish (masalan, majlislar o'tkazish, ilg'or va namunali tajribani, boshqaruvning salbiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish); uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlash; joylarda ijrochilarga ko'maklashish va boshqalardan iborat.

Tashkiliy harakatlar yoki tadbirlar boshqaruv faoliyati jarayonida qo'llanilib, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi, o'zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi. Ular boshqaruv funksiyalarini amalga oshirmaydi.

2) moddiy-texnik harakatlar, ya'ni masalan, davlat-xizmat faoliyati samaradorligini ta'minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro'yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallarni ko'paytirish va yuborish,

axborotlar bilan ishlash, analitik hisobni yuritish, moddiy- texnik ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

Boshqaruv faoliyatining bu shaklini amalga oshirish nafaqat xodimlarning yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishiga, balki davlat boshqaruvi organlarining ma'lum bir texnika bilan jihozlanganligiga ham bog'liqdir.

• *Davlat boshqaruvi usullari nima?*

Boshqaruv shakli (ijro hokimiysi yoki boshqaruv harakatlari shakli) masalasi bilan tanishib chiqish, boshqa huquqiy hodisaning – boshqaruv usullarini ham aniqlash lozimligini ko'rsatadi. Usul bu amaliy faoliyatning usuli, vositasi hisoblanadi. Boshqaruv shakllari va boshqaruv usullarini bir-biridan ajratmagan holda ko'rib chiqish lozim.

Ma'muriy huquqning tartibga solish usuli va ma'muriy huquqiy (boshqaruv) usullar nomlanishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Lekin bu holat ularning faqatgina tashqi ko'rinishidan yaqinligini ko'rsatadi. Tartibga solish usuli ma'muriy huquqning asosiy funksiyasi bo'lib, boshqaruv munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Davlat boshqaruvi usuli esa boshqaruv subyektlari (ijro hokimiysi organlari) oldida turgan barcha vazifalarni, shu jumladan tartibga solishning ham amaliy hal etish vositasi hisoblanadi.

*Yodda tuting!*

**Davlat boshqaruvi usuli ma'muriy huquq har qanday sub'ektning emas, balki ma'lum bir sohada boshqaruvni (ijro hokimiyatini) amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan sub'ektning funksiyasi hisoblanadi. Boshqaruv usuli davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan huquqiy vositalar hisoblanadi.**

- **Davlat boshqaruvi usullarining qanday turlari bor?**

Yuridik adabiyotlarda davlat boshqaruvi tizimidagi ta'sir ko'rsatishning ikki asosiy (universal) usuli: ishontirish va majburlash usullari ko'rib chiqiladi. Amaliyotda bu usullar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

**Davlat boshqaruvi  
usullari**

**Ishontirish**

*6-sxema*

**Majburlash**

Ishontirish boshqaruvi usuli sifatida, tushuntirish, tarbiyalash, rag'batlantirish va boshqa axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan choralarни amalga oshirish orqali isonlarga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. Rag'batlantirish, masalan, davlat boshqaruvi sohasida ijro hokimiyatining fuqarolar, yuridik shaxslar, huquqiy munosabatlar turli subyektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qonuniylik va intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruvning maqsad va vazifalariga erishish majburlash xususiyatidagi choralar yordamida ham ta'minlanishi mumkin. Bu holatda boshqaruvi obyekti normativ huquqiy aktlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda harakat qilishga majbur bo'ladi.

Agar shaxslarning harakati huquqiy aktlarning talablariga mos kelmasa, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar majburlov choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zi vaqlarda bu choralar huquqiy tartibotni, jamoat tartibini, harakatlarni amalga oshirishning o'rnatilgan tartibini ta'minlovchi choralar sifatida namoyon bo'ladi.

Ayrim hollarda esa majburlov choralar huququzarlikni (nojo'ya xatti-harakatni) sodir etgan shaxsni jazolashga qaratilgan bo'ladi. Bu intizomiy, moddiy,

ma'muriy yoki jinoiy xususiyatdagi choralar sifatida namoyon bo'ladi.

Majburlov choralar shaxsning qonunga xilof xulqini cheklashga, shuningdek turli ijtimoiy munosabatlardagi qonuniy tartibni qayta tiklashga qaratiladi.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **MUAMMOLI VAZIYAT**

#### **1-topshiriq**

Navoiy viloyati hokimi tomonidan viloyat hududini obodonlashtirish maqsadida viloyat hududidagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarga ma'lum belgilangan hudud ajratib berildi va ushbu hudud infratuzilmasini rivojlantirish va ko'kalamzorlashtirishni o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishlari to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Ammo Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona ma'muriyati viloyat hokimi qarori ular uchun majburiy xarakterga ega emasligini va u Erkin industrial-iqtisodiy zonalar bo'yicha respublika ma'muriy kengashi orqali faoliyatini amalga oshirishini hamda Erkin industrial-iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlarni vaj qilib, qaror ijrosini amalga oshirmasligini ma'lum qildi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

#### **2-topshiriq**

O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Toshkent viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i K.Azizov Bekobod metallurgiya kombinatida gaz ta'minoti va gazdan foydalanish qoidalari bo'yicha Inspeksiya tomonidan qabul qilingan qaror ijrosi yuzasidan tekshiruvni olib bormoqchi bo'ldi. Mazkur talab bilan kombinat direktori L.Boyisovga murojaat qildi. Bunga javoban direktor L.Boyisov

K.Azizovni bunga vakolati yo‘qligini, kombinat inspeksiyaga buysunmasligini aytib, faqat prokuratura organlari bunga vakolathi ekanligini va faqat ular qonunlarni bajarilishi ustidan nazorat qilishga haqli ekanligini vaj qilib keltirdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

## **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquq shakllari va usullarini o'zaro bog'liqgini tahlil qiling.
2. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllarini amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
3. Davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy usullarini amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

### **III BOB. DAVLAT XIZMATI**

#### **• *Davlat xizmati nima?***

Davlatning kadrlar siyosati davlat xizmatchilarining o‘z xizmat vazifalarini yuqori darajada bajarishini ta’minlashda ularning faqat shaxsiy sifatlarigagina tayanib qolmay, balki kadrlarni joy-joyiga qo‘yish, bu borada o‘zini o‘zi muntazam tartibga soladigan, rivojlantiradigan mexanizmini takomillashtirishga qaratilishi lozim. Chunki hozirgi davrda davlat xizmatchilari oldiga ko‘plab aniq amaliy vazifalar qo‘yilmoqda va ularning kechiktirmay bajarilishini ta’minlash mamlakat taqdirida muhim ahamiyatga egadir. Davlat xizmati samarasini ta’minlashdagi barcha obyektiv va subyektiv bo‘shliqlarni to‘ldirish, qolaversa, davlat xizmatchilarining professionallik darajasini yanada yuksaltirish uchun mumkin bo‘lgan barcha choralarни qo‘llash bugungi kunning muhim talabidir.

***Yodda tuting!***

**Davlat xizmati bu davlat organida ma'lum bir mansabni egallab turgan shaxs tomonidan davlat vazifalari va funksiyalarini bajarish maqsadida hokimiyat vakolatlarining amalga oshirilishiga qaratilgan kasbiy faoliyatdir.**

Ushbu ta’rifda davlat xizmati tushunchasini yoritib beruvchi barcha elementlar o‘z ifodasini topgan. Xususan, davlat organi, mansabdor shaxs va kasbiy faoliyat.

Demak, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishdek oliv maqsadlarni o‘z oldimizga qo‘ygan ekanniz, bu maqsadlarga ushbu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo‘lgan davlat xizmatchilari tushunchasini, ularning tizimlashtirilgan holatdagi huquqiy maqomini, tasnifini hamda boshqa o‘ziga hos jihatlarini chuqur nazariy tahlildan o‘tkazmasdan, amaliyotga joriy qilmasdan turib erishishimiz mushkul.

### • *Davlat xizmatchisi kim?*

Xizmatchilar to‘g‘risida bat afsil tushuncha hosil qilish maqsadida, ularni jamiyatning turli tashkilotlarida (korxona, muassasalarida) band bo‘lgan boshqa shaxslardan farqlash lozim:

- xizmatchilar turli tashkilotlarda (davlat, mahalliy, nodavlat, tijorat, notijorat, jamoat, diniy) ma’lum bir lavozimlarni egallaydilar;
- ularning faoliyati aqliy xususiyatga ega, ya’ni ular bevosita moddiy boyliklarni yaratmaydi. Lekin xizmatchilar moddiy ishlab chiqarish sohasida ham faoliyat yuritishi mumkin. Masalan, tashkiliy, ishlab chiqarish jarayonini texnologik ta’minalash, loyihalarni tayyorlash, marketing, tadqiqot faoliyati va boshqalar;
- xizmatchilar hokimiyyat faoliyatini (tashkilashtirish, farmoyish berish, rahbarlik, nazorat) amalga oshiradilar hamda tegishli tashkiliy-farmoyish berish va ma’muriy-xo‘jalik vakolatlariga ega bo‘ladi; ular davlat va jamoat majburlov choralarini qo‘llashlari mumkin. Har qanday tashkilotdagi xizmatchilar, asosan boshqaruv funksiyalarini (bunda, boshqaruv funksiyasi deganda, turli huquq subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi vosita sifatida tushunmoq lozim) amalga oshiradilar;
- xizmatchilar o‘z vakolatlarini, funksiyalarini, qoida bo‘yicha ma’lum bir xaq evaziga amalga oshiradilar.

*Yodda tuting!*

**Davlat xizmatchisi - bu davlat-hokimiyyat vakolati doirasida ma’lum bir haq evaziga davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi shaxsdir.**

- *O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga oid qonunchilik ahvoli qanday?*

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini huquqiy tartibga solish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, kompleks ravishda turli qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Jumladan, davlat xizmati sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ma’muriy, moliya, mehnat va boshqa qonunchilik sohalari bilan huquqiy tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini tashkil etish asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi belgilab bersa, uni amalga oshirish esa davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunga qadar davlat xizmati to‘g‘risida alohida qonun qabul qilinmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni<sup>1</sup>ga ko‘ra, **“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”**gi Qonun qabul qilinishi nazarda tutilgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, davlat xizmatini tashkil etish asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi belgilab beradi. Konstitutsiyani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, milliy davlatchiligimizni tashkil etish va rivojlantirishda “davlat xizmati instituti” katta ahamiyatga ega. Davlat xizmatini to‘g‘ri tashkil qilish orqali o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin. Chunki davlat xizmati ijtimoiy muvozanatni, ichki va tashqi xavfsizlikni hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda barcha infrastrukturalarning funksiyalanishini ta’minlashda xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019 y., 06/19/5843/3900-son

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan belgilab berilgan asosiy vazifalarni bajarishda davlat xizmati katta rol o‘ynaydi. U demokratik muvozanatni, huquqiy davlatning asosiy tamoyillariga rioya qilinishini hamda inson huquqlari va erkinliklarining muhofazasini ta’minlaydi. Davlat xizmati orqali davlat siyosati, olib borilayotgan islohotlar demokratik tarzda hayotga tatbiq qilinadi.

Barcha davlat xizmatchilar o‘z faoliyatlarini Konstitutsiya va amaldagi qonunlar asosida olib borish, Konstitutsiya va qonunlardan kelib chiqadigan talablarni hayotga tatbiq qilishlari hamda bu sohada fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustunligini ta’minlash maqsadida tashkil qilishlari lozim. Davlatimiz oldiga qo‘yilgan maqsadlarning ro‘yobga chiqishi ko‘p jihatdan davlat organlarini va ularning faoliyatini, ya’ni davlat xizmatini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir.

Davlat xizmati sohasida yuzaga keladigan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va boshqa davlat hokimiyati organlarining me’yoriy hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Sohadagi munosabatlar **yagona qonunchilik asosida tartibga solinmaganligi uchun** davlat xizmatiga oid munosabatlar sohaviy harakterga ega. Misol uchun, davlat bojxona xizmatchilarining huquqiy maqomi shu sohaga oid bo‘lgan qonun hujjatlari( “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonun<sup>1</sup> va boshqalar) bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi

PF-5843-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2018 y., 03/18/502/2068-son

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni<sup>2</sup>ni keltirib o‘tish mumkin. Mazkur farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi** tashkil qilindi.

- *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining davlat xizmatini tartibga solishdagi vazifalari nimadan iborat?*

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat fuqarolik xizmati transformatsiyasining g‘oyaviy platformasini, uni rivojlantirish dasturlari va loyihibalarini ishlab chiqish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati sohasida yagona siyosatning amalga oshirilishini ta’minlash;
- davlat organlari va tashkilotlarining davlat kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish jarayonlari va istiqbollarini monitoring va tahlil qilish hamda ushbu sohadagi muammolar va tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- ochiqlik, professionallik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish;
- Milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish;
- davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o‘lchanadigan indikatorlari (øng muhim ko‘rsatkichlari) tizimini joriy etish va ularning natijalarini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganish hamda davlat

---

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019 y., 06/19/5843/3900-son

organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirish;

– malakali va yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan xorijda yashayotgan vatandoshlar orasidan aniqlash va jalb etish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga iqtidorli yoshlari va xotin-qizlarni keng jalb etish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish;

– eng istiqbolli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ochiq mustaqil tanlov asosida qabul qilishni tashkillashtirish;

– davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq-odobni, korruptsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni izchil takomillashtirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilar shaxsiy ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minlagan holda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

– davlat fuqarolik xizmatchilarining ish beruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashish.

- ***Davlat xizmatining ma’muriy huquq va boshqa huquq sohalari bilan qanday bog‘liq jihatlari bor?***

Bizga Ma’muriy huquq fanidan ma’lumki, davlat xizmati ma’muriy huquqning asosiy va rivojlanib borayotgan institutlaridan biri hisoblanib, davlat xizmatini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma’muriy-huquqiy me’yorlar yig‘indisidan iboratdir.

Davlat xizmati ma’muriy huquqning asosiy qismlaridan biri bo‘lib, davlat xizmatini tashkil etish bosqichida, shuningdek, uning funksiyalanishida deyarli barcha ma’muriy-huquqiy institutlarni: ijro hokimiyatni, davlat boshqaruvi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish,

ma'muriy huquq subyektlari, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, ma'muriy-huquqiy usul va shakllar, davlat majburlov choralar, ijro hokimiyati tizimida kontrol va nazorat va boshqalarni birlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi (qonunchiligi) me'yordi davlat xizmati uchun ma'lum bir kafolatlarni o'rnatib beradi. Mehnat huquqi me'yordi: davlat xizmatchilari bilan tuziladigan mehnat shartnomalari (kontrakt)ni tuzishni, tanlov (konkurs) asosida lavozim yoki mansabni egallashni, xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy javobgarlikni va uni qo'llash tartibini belgilab beradi. Bundan tashqari, mehnat faoliyatidagi asosiy holatlar, ya'ni xizmatchilar mehnat faoliyatining davomiyligini, dam olishi, mexnat ta'tili, ijtimoiy ta'minot masalalari ham mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Mehnat qonunchiligi davlat xizmatida ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ham ta'minlaydi.

Davlat xizmatini tartibga solishda jinoyat qonunchiligi me'yordi ham alohida bir o'rinni egallaydi. Jumladan, mansabdor shaxs tushunchasi, aynan shu qonunchilikda berilgandir. Davlat xizmatidagi korruptsiyaga qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligi me'yordarining tutgan o'rni kattadir.

Oxirgi vaqtarda byudjet, soliq, bank va boshqa moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi davlat xizmatini tartibga solishdagi moliya qonunchiligining ahamiyatini yanada oshirdi. Davlatning moliyaviy faoliyati davlat boshqaruvining bir ko'rinishi bo'lganligi sababli ham davlatning moliyaviy faoliyati davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish usuliga ko'ra moliya qonunchiligi ma'muriy qonunchilikka o'xshab ketadi, ya'ni bularning ikkalasi ham davlat hokimiyat ko'rsatmalari usuliga va subyektlarning tengsizligiga egadir.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog‘lagan holda tahlil qiling.**

### **MUAMMOLI VAZIYAT(KAZUS)LAR**

#### **1-topshiriq**

2018-yilning iyun oyida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh direktori V.Komilov o‘rindoshlik asosida Toshkent shahrida joylashgan maktablardan biriga direktor o‘rnbosari lavozimiga tayinlanadi. 2018-yilning sentabr oyida maktab faoliyati bilan bog‘liq masala bo‘yicha chet elga borish maqsadida xorijga chiqish pasportini olish uchun Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining Kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasiga murojaat qiladi. Boshqarma xodimi V.Komilovning chet elga chiqishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan maxsus kelishuvini talab qiladi. V.Komilov chet elga “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ masalasi bo‘yicha emas, balki maktab masalasi bo‘yicha ketayotganligini ta’kidlaydi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

#### **2-topshiriq**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tarkibidagi Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish boshqarmasida boshqarma boshlig‘i o‘rnbosari sifatida ishlab kelayotgan B.Anvarov o‘z qo‘l ostidagi katta maslahatchi lavozimida ishlab kelayotgan O.Olimovni dam olish kunlari ham bir necha marotaba ishga jalb qilgan. Bundan norozi bo‘lgan O.Olimov yuqori turuvchi mansabdon shaxsga shikoyat bilan murojaat qilib B.Anvarovning xatti-harakatlardan norozi ekanlini bildirdi. U o‘z shikoyatida B.Anvarovning xotini tomonidan qarindosh bo‘lgan, ya’ni rafiqasining ukasi B.Botirovning iltimosiga ko‘ra ushbu lavozimni egallaganligini qayd etib o‘tdi. Shuningdek,

shikoyatda u B.Botirov ushbu boshqarmada etakchi maslatchi lavozimida ishlab kelayotgani va ular o‘rtasida ish bilan bog‘liq nizo kelib chiqqanligi sababli B.Botirov boshqarma boshlig‘i B.Anvarovdan uni dam olish kunlari ham ishga jalb qilishini so‘raganini ko‘rsatib o‘tdi. Bundan tashqari, O.Olimov o‘z shikoyatida davlat xizmatida qarindosh-urug‘larning davlat korxonalarini va organlarida biri ikkinchisiga bevosita bo‘ysunuvchi yoki uning nazorati ostida xizmat qilishi mumkin emasligini ham aytib o‘tgan. Shuningdek, dam olish kunlari ishga jalb qilishga alohida hollarda jamoa shartnomasida agar u tuzilmagan bo‘lsa, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishilgan asoslar bo‘yicha va tartibda yo‘l qo‘yilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tdi.


***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**NAZARIY SAVOLLAR**

1. Davlat xizmati tushunchasini tahlil qiling. Fikringizni nazariy va huquqiy asoslantiring.
2. Bo‘lajak davlat xizmatchisi sifatida o‘zingiz tanlangan kasb sohasi qonunchiligini tahlil qiling. Mazkur davlat xizmatiga kirish, o‘tash va chiqish tartiblarini yoritib bering.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tahlil qiling.

#### **IV BOB. IQTISODIYOT, IJTIMOIY VA MA'MURIY-SIYOSIY SOHALARNI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

- Iqtisodiyot sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?*



- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining iqtisodiy sohasini tartibga solishdagi o'rni qanday?*

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining faoliyati bilan batafsil tanishish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori va vazirlikning rasmiy veb-sayti ([www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz))dagi tegishli ma'lumotlarni o'qish lozim.

**Izoh. Mazkur mavzu doirasidagi ma'muriy organlar haqidagi ma'lumotlarni ushbu tartibda (organ faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asos va rasmiy veb-sayti orqali) o'rghanish tavsiya etiladi.**

Iqtisodiyot sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi **Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi** muhim o'rinn tutadi. Mazkur vazirlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i PQ-4653-son qarori<sup>1</sup>ga ko'ra tashkil etilgan.

*Tavsiya etiladi!*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i

PQ-4653-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi **Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi** tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi **Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi**, viloyatlar va Toshkent shahar **iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish** bosh boshqarmalari tashkil qilingan.

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.03.2020 y., 07/20/4653/0376-son

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi		
Faoliyatining huquqiy asosi	Faoliyatini tashkil etish	Hay'at
2020-yil 26-martdagи “O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag' allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag' allikni qisqartirish vazirligi to'g'risidagi Nizom	Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan <b>vazir</b> boshchilik qiladi.	Vazirlikda vazir (hay'at raisi), uning o'rinoslariga (lavozimiga ko'ra), shuningdek Vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'lmalarini rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi. Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi vazirning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

• *O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining iqtisodiyot sohasini tartibga solishdagi vazifalari qanday?*

Transport vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagи “O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga ko'ra tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi transport vaziri O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi transport vaziri o'rinoslariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Vazirlik huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi direktori, Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiysi

hamda Yo‘l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri taqdimiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Vazirlik huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi raisining, Fuqaro aviatsiyasi agentligi direktorining, Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi hamda Yo‘l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi boshliqlarining o‘rinbosarlari ularning rahbarlari taqdimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi transport vaziri va uning o‘rinbosari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalari boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari – viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi transport vaziri bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi		
Faoliyatining huquqiy asosi	Faoliyatini tashkil etish	Hay’at
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori	Transport vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan <b>vazir</b> boshchilik qiladi.	Vazirlikda vazir (hay’at raisi), uning o‘rinbosarlari (lavozimiga ko‘ra), shuningdek Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashтирувчи таркиби bo‘linmaları rahbarlardan iborat таркібда hay’at ташкіл etiladi. Hay’atning a’zolari soni va shaxsiy tarkibi vazirning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

- *O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasini iqtisodiyot sohasini tartibga solishdagi vakolatlarini yoritib bering?*

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta’minlash;
- davlat statistikasi sohasida faoliyatni muvofiq-lashtirish va funktsional tartibga solish;
- xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish;
- ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi statistika axborotlarini yig‘ish, qayta ishslash, to‘plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e’lon qilish;
- davlat organlarini va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, yuridik shaxslarni, davlat muassasalarini va xalqaro tashkilotlarni, shuningdek jamoat-chilikni statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta’minlash;
- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-statistik klassifikatorlar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritish.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi		
Faoliyatining huquqiy asosi	Faoliyatini tashkil etish	Hay’at
“O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini	O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasiga O‘zbekiston Respublikasi	O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasida Rais (hay’at raisi), uning o‘rinbosarları (lavozimiga ko‘ra),

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 31.07.2017 yildagi PQ-3165- son	Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan <b>rais</b> boshchilik qiladi.  Raisning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan <b>uch</b> <b>nafar</b> <b>o‘rinbosarlari</b> , shu jumladan <b>bir nafar</b> <b>birinchisi</b> <b>o‘rinbosari</b> bo‘ladi.	shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘limmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay‘at tashkil etiladi.  Hay‘atning a‘zolari soni va shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi Raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.
--	--	---

• *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining  
iqtisodiyot sohasini tartibga solishdagi vakolatlari qanday?*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda davlat strategik zaxirasida moddiy boyliklar to‘planishi, yangilanishi, almashtirilishi, chiqarilishining yillik hajmlarini aniqlash;

- davlat strategik va safarbarlik zaxiralari shakllantirilishini, shu jumladan ularning to‘planishi, saqlanishi va yangilanishini ta‘minlash;

- vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan davlat strategik va safarbarlik zaxiralari shakllantirilishi (to‘planishi, yangilanishi, almashtirilishi, chiqarilishi), shuningdek qarz olingan tovarlar va

mahsulotlarning sifatli va miqdoriy saqlanishi va o‘z vaqtida qaytarilishi ta’minlanishi bo‘yicha topshiriqlar bajarilishini doimiy nazorat qilish;

– davlat strategik va safarbarlik zaxiralaridan belgilangan tartibda tezkor foydalanishga doimiy tayyorlikni ta’minlash.


<b>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi</b>		
<b>Faoliyatining huquqiy asosi</b>	<b>Faoliyatini tashkil etish</b>	<b>Hay’at</b>
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-martdagи 113-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risida NIZOM	Qo‘mitaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. Qo‘mita raisining bir nafar o‘ribbosari bo‘ladi belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan. Qo‘mita raisi mehnatga haq to‘lash, tibbiy va maishiy xizmat ko‘rsatish shart-sharoitlariga ko‘ra vazirning birinchi o‘ribbosariga, rais o‘ribbosari esa vazir o‘ribbosariga tenglashtiriladi.	Qo‘mitada rais (hay’at raisi), uning o‘ribbosari, shuningdek Qo‘mita faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay’at tashkil etiladi. Hay’atning a’zolari soni va shaxsiy tarkibi Qo‘mita raisining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### ***Energetika sohasini ma’muriy-huquqiy tartibga solish qanday?***

Energetika sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi maxsus organ bu O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hisoblanadi. Ushbu vazirlik O‘zbekiston

Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagisi PQ-4142-son qarori bilan tashkil etilgan.

## **O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining TASHKILIY TUZILMASI**



- *Qishloq va suv xo‘jaligi sohasini ma’muriy tartibga solish qanday?*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida” 2018-yil 17-apreldagi PQ-3671-sonli hamda “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida” 2018-yil 17-apreldagi PQ-3672-sonli qarorlariga muvofiq, Suv xo‘jaligi vazirligi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi vaziri quyidagilar uchun shaxsan javobgardir:

- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining

qarorlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar talablarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi;

– Vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalar bajarilishini tashkil etish, Vazirlik faoliyatini rejalashtirish, shuningdek, uning faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlariga erishilishini so‘zsiz ta’minlash;

– qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va qishloq xo‘jaligi sohasidagi muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturli hujjatlarni samarali amalga oshirish;

– kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, Vazirlik xodimlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirilishini tashkil etish, ular samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mehnat intizomini va qonun hujjatlari talablarini qo‘pol ravishda buzgan xodimlarga nisbatan intizomiya va boshqa turdagи javobgarlik choralarini ko‘rish;

– xorijiy mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi idoralari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ilg‘or tajribani tizimli o‘rganish va joriy qilish;

– qishloq xo‘jaligi tashkilotlari va muassasalari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, fuqarolar shaxsiy qabulini tizimli ravishda o‘tkazib borish.

2017-yil 11-may O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilar belgilandi:

– o‘rmon boyliklarini har tomonlama kengaytirish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan o‘rmon xo‘jaligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;

- o‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularga rioya etilishini amaliy nazorat qilish;
- o‘rmon fondi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni samarali boshqarishni tashkil etish, o‘rmon barpo etish, ularni qayta tiklash, qo‘riqlash, muhofaza qilish, o‘rmonlardan oqilona va tejamli foydalanish;
- respublikamizda o‘rmonlarni tiklash va ihota o‘rmonlarini ko‘paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tog‘ yonbag‘irlari, jarliklar va tashlandiq erlarda eroziyaga qarshi daraxtzorlar barpo etish ishlari bajarilishini tashkil qilish;
- o‘rmon fondini, fauna va florasini o‘rganish hamda ularning qat’iy hisobini yuritish, o‘rmon xo‘jaligini yuritish amaliyotiga fan yutuqlari va ilg‘or tajribani joriy etish;
- o‘rmonlarni yong‘inlardan, zararkunanda va kasalliklardan, noqonuniy daraxt kesishdan va boshqa o‘rmon qonunchiligi buzilishlaridan muhofaza qilish;
- manzarali o‘simgiliklar ko‘chatlari va urug‘larini sertifikatlash va standartlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilishni tashkil etish;
- o‘rmon xo‘jaliklarida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, ko‘chat etishtirish, dorivor o‘simgiliklar to‘plash, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish hamda ularni chuqur qayta ishlash, xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish;
- tarmoqqa xalqaro moliya institutlari grantlarini jalb etish va ekologik turizmni keng ko‘lamda rivojlantirish;
- o‘rmon xo‘jaligi sohasida o‘rta maxsus va oliv ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

2004-yil 8-iyunda donning sifatini, saqlanishini, don va uni qayta ishlash mahsulotlaridan oqilona foydalanimishini nazorat qilish darajasini oshirish maqsadida O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 269-sonli qarori<sup>1</sup> qabul qilinib, unga ko‘ra quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

– don etishtirish, donni qabul qilish va qayta ishslash korxonalarida don va donni qayta ishslash mahsulotlarining davlat resurslaridan belgilangan maqsadda oqilona foydalanishini, ularning sifatli saqlanishi hamda nobud bo‘lishini qisqartirish ta‘minlanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– don va donni qayta ishslash mahsulotlariga normativ-texnik hujjatlar hamda texnik shartlar talablariga, shuningdek qabul qilish, saqlash, qayta ishslash va eksport-import operatsiyalarida ularning sifatini sinash metodlariga rioya qilinishini muntazam nazorat qilib borish;

– don etishtiruvchilarga va donni saqlash hamda qayta ishslash korxonalariga donni o‘rib-yig‘ib olish, tozalash, quritish, ishlov berish, qabul qilish, saqlash va qayta ishslashga oid normativ-hujjatlarni, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish masalalari bo‘yicha uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish.

Davlat don inspeksiyasi tizimiga hududiy bo‘linmalar, markaziy va mintaqaviy laboratoriylar kiradi. Hududiy bo‘linmalar, markaziy va mintaqaviy laboratoriylar mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita «O‘zdavdoninspeksiya»ga hisob berishadi.

- *Qurilish sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5392сон Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO‘plami, 2004 yil, 22-23-son, 266-modda.

Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi** tashkil etildi.

Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- shaharsozlik va qurilish uchun muhandislik-texnik izlanishlar sohasida yagona ilmiy-texnikaviy siyosatni olib borish, mehnat unumдорligini oshirish, qurilish-montaj ishlari qiymatini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovatsion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish;

- respublika hududida aholini joylashtirishning bosh sxemasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar hududlarini rejalashtirish sxemalarini, aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring yuritish;

- shaharsozlik sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar tayyorlash, arxitektura-qurilish faoliyatini rivojlantirishning uzoq muddatli va o‘rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini tayyorlashda ishtiroy etish;

- loyiha ishi va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirish, loyiha-qidiruv tashkilotlarining ish samaradorligini oshirish va hududiy tarmoqlarini kengaytirish, yakka tartibdagi, namunaviy, takroran qo‘llaniladigan va eksperimental loyihalarni va loyiha echimlarini ishlab chiqishni tashkil etish, shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish;

- shaharsozlik va shaharsozlik faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish va yangilash, idoraviy qurilish norma va qoidalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish, loyihalash, qurilish, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish sohasida standartlashtirish ishlarini amalga oshirish;

– arxitektura, loyihalash va qurilish sohasida mala-kali kadrlarni tayyorlash, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, qurilish sohasida, jumladan chet eldag'i etakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida loyiha-chilar va mutaxassislar-ni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko‘maklashish.

- **Xo‘jalik-xizmat ko‘rsatish kompleksi boshqarish tizimi qanday?**

Xo‘jalik-xizmat ko‘rsatish kompleksiga quyidagi sohalar qiradi:

**1. Transport sohasi:**

- a) temir yo‘l transporti;
- b) avtomobil va suv transporti;
- v) shahar yo‘lovchi transporti;
- g) havo transporti.

**2. Aloqa sohasini boshqarish;**

**3. Kommunal xizmat ko‘rsatish.**

O‘zbekiston Respublikasida **temir yo‘l transporti** sohasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprelda qabul qilingan “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida” gi Qonuniga binoan tartibga solinadi. Shuningdek, temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish chog‘ida temir yo‘l transporti korxonalari bilan yuk jo‘natuvchilar, yukni oluvchilar, yo‘lovchilar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Temir yo‘l ustavi bilan ham belgilanadi. Temir yo‘l transportida yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashishni tashkil etish tartibi davlat temir yo‘l transportini boshqarish organi tomonidan tasdiqlanadigan yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini tashish qoidalari, shuningdek boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-avgustdag‘i 366-sonli “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aktsiyadorlik kompaniyasini boshqarishni tashkil

etishni yanada takomillashtirish to‘g“risida” gi qaroriga<sup>1</sup> ko‘ra “O‘zbekiston temir yo‘llari” aktsionerlik kompaniyasi:

– yuklarni hamda yo‘lovchilarni tashish hajmlarini xalq, xo‘jaligi va respublika aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat buyurtmalari shuningdek, to‘g“ridan-to‘g“ri tuzilgan shartnomalar va kontraktlar asosida mustaqil ravishda belgilaydi va amalga oshiradi;

– to‘la tijorat hisob-kitobi va o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta‘-minlash sharoitlarida ishlaydi, ishlab chiqarish-xo‘jalik va moliyaviy faoliyatga oid masalalarni mustaqil ravishda hal qiladi sug‘urta, zahira va boshqa fondlarni tashkil etadi;

– O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo‘l bo‘limlari, birlashmalar, korxonalar va tashkilotlarga oid ilgari tuzilgan shartnomalar va majburiyatlar bo‘yicha O‘rta Osiyo temir yo‘lining huquqiy vorisi hisoblanadi;

– xalqaro temir yo‘llarda va aralash temir yo‘l aloqalarida yo‘lovchilar hamda yuklarni tashishni tashkil etishda xorijiy temir yo‘llar oldida “O‘zbekiston temir yo‘llari” deb nomlangan yuridik shaxs sifatida ish yuritadi;

O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

– “O‘zbekiston temir yo‘llari” aktsiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi rais va uning 5 nafar o‘rinbosaridan, shu jumladan 1 nafar bosh menejer – bosh muhandisdan va raisning 1 nafar birinchi o‘rinbosaridan iborat bo‘ladi. Rais va uning o‘rinbosarlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Tarkibda 11 kishidan iborat bo‘lgan Kompaniya kengashi “O‘zbekiston temir yo‘llari” aktsiyadorlik kompaniyasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 2-martdagi Farmoniga binoan kompaniya tarkibidagi poezdlar harakati xavfsizligi bo‘yicha bosh taftishchi apparat

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO‘plami. 2004 yil, 31-son, 353-modda.

kompaniya tarkibidan chiqarilib, uning negizida mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (“O‘zdavtemiryo‘lnazorat”) tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida” gi 1998-yil 29-avgustdagи Qonuniga binoan avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sertifikatlash, litsenziyalash, soliq solish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tashishlar uchun tariflarni shakllantirish, yagona ilmiy texnika siyosatini o‘tkazish yo‘li bilan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-sonli O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi etib qayta nomlandi.

Quyidagilar “O‘zavtotrans” agentligining asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib belgilansin:

- avtomobil transporti obyektlari va yo‘lovchilar xavfsizligini ta‘minlovchi istiqbolli axborot-kommunikatsion texnologiyalarini va innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llagan holda yangi boshqaruv tizimlarini joriy etib, avtomobil transporti sohasida yagona texnika siyosatini yuritish;

- avtomobil tashuvlarida normativ-huquqiy va metodik bazani takomillashtirish, avtomobil transporti tashishlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha muammolari yuzasidan xalqaro normalar, ilmiy-tekshiruv, loyiha-konstrukturlik, texnologik ishlarni inobatga olgan holda texnik tartibga solish sohasida normativ hujjatlarning yagona ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish va shakllantirish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va aholining tashishlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda avtomobil transporti xavfsizligini ta‘minlash choralarini inobatga olgan holda, qishloq aholi punktlarini shaharlar, viloyat va tuman markazlarini bog‘lovchi yangi yo‘nalishlarni ochish,

avtomobil transportini rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

– yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatish uchun sharoit yaratish, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llab, avtovokzallar va avtostantsiyalar faoliyatini markazlashgan holda boshqarish va muvofiqlashtirish tizimini joriy etish;

– avtovokzallar va avtostantsiyalar hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlari qaramog'ida bo'lgan umumiyo foydalanishdagi yo'lovchilar tashish yo'nalishlaridagi to'xtash bekatlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashni tashkil etish;

– tashish jarayonlari, qatnov jadvallariga rioya etilishi, yo'llarda harakatlanish tezligi monitoringi, harakat yo'nalishi sxemasiga rioya etilishi hamda aholiga real vaqt tarzidagi ma'lumotlar xizmatining keng ko'lamli ro'yxati taqdim etilishi yuzasidan markazlashgan dispatcherlik boshqaruvi va nazorati tizimini joriy etish;

– tashuv yo'nalishlarini tender asosida joylashtirish, yo'lovchi tashishlari sifati va xavfsizligini oshirish, tenderlar tashkilotchilari ishini muvofiqlashtirish mexanizmlarini joriy etish yo'li bilan avtomobil transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlari va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan faol muloqot qilish orqali avtomobil transporti sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan kelishgan holda, yangi muntazam xalqaro avtobus yo'nalishlarini ochish hamda xalqaro avtomobil tashuvlari sohasidagi xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, bu sohadagi amaldagi shartnomalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini tuzish, xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar blankalarini o'zaro ayirboshlash;

- avtomobil transportida yo‘lovchi va yuklarni tashish faoliyatini litsenziyalash, avtomobil transportida yo‘lovchi va yuklarni tashish qoidalariga amal qilish, avtomobilda tashuvlar xavfsizligini ta’minlash talablariga, og‘irlik va gabarit ko‘rsatkichlariga hamda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan, O‘zbekiston Respublikasi hududida avtomobilda xalqaro tashuvlarni amalga oshirish shartlariga rioya etilishini nazorat qilish (O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari bundan mustasno);
- avtomobil transportida, eng avvalo transport xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tizimli tashkil etish;
- “O‘zavtotrans” agentligiga yuklangan vazifalar va faoliyat yo‘nalishlarining sifatli hamda to‘laqonli bajarilishi uchun shaxsiy javobgarlik “O‘zavtotrans” agentligi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 3-oktabrdan kuchga kirgan “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida” gi qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq avtomobil yo‘llarini boshqarish amalga oshiriladi. Ushbu Qonunning maqsadi avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash, saqlash va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yo‘l xo‘jaligini boshqarishning samarali tizimini shakkantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, bu borada loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida 2017-yil 14-fevralda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l**

**xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.** Farmonda tugatilayotgan Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi (“O‘zavtoyo‘l” DAK) negizida **O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasini** tashkil etish nazarda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasida aloqa sohasini boshqarish O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 13-yanvarda qabul qilingan “Aloqa to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq amalga oshirilib, ushbu qonun aloqa tarmoqlarini tashkil qilishning umumiy huquqiy, iqtisodiy asoslarini, aloqa shohobchalarini barpo etish va ulardan foydalanishda, aloqa xizmati ko‘rsatishda mulkchilik shaklidan qat‘i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va fuqarolarning aloqa vositalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va boshqarish sohasidagi huquqlari va vazifalarini, shuningdek berilgan huquqlarni buzganlik va vazifalarini bajarmaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi.

Aloqa sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, shuningdek u vakolat bergen idora-O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko‘p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo‘yicha samarali tizimni shakllantirish, aholiga sifatli uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barqaror faoliyat yuritishini ta’minalash maqsadida 2017-yil 18-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va “O‘zbekiston

Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

- ***Ta'limganligi boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?***

O'zbekiston Respublikasi "Ta'limganligi boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?"gi qonunning 25-moddasiga binoan **O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasasi** ta'limganligini boshqarishda umumiy vakolatga ega.

Shuningdek, Qonunning 27-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham vakolatlari berilgan bo'lib, unga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari ta'limganligini muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar; ta'limganligini muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar, (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar; o'z hududlaridagi ta'limganligini muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar; ta'limganligini sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Ta'limganligini qonun rahbari boshqaradi. Ta'limganligini muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ta'limganligini boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limganligi faoliyat yuritadi. **O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limganligi** respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limganligiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. 2004-yil 20-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limganligi" qonuni qabul qilindi.

vazirligi faoliyatini takomillatirish to‘g‘risida”gi 341-sonli Qarori<sup>1</sup> qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlash, professor-o‘qituvchilar malakasining talab etiladigan darajasini ta’minlash, o‘qitishning innovatsiya usullarini joriy etish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda talaba yoshlar o‘rtasida tarbiyaviy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish masalalaridagi faoliyati ustidan nazorat bo‘sashtirib yuborilganligini, bu mutaxassislar tayyorlash sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini qayd etadi.

Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim, kab-hunar ta’limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o‘quv yurtlari kiradi.

Vazirlik faoliyatini tashkil etish vazirlikka qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan vazir boshchilik qiladi.

Vazirning besh nafar o‘rbinosari, shu jumladan ikki nafar birinchi o‘rbinosari bo‘ladi, ulardan biri Vazirlikning O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi direktori hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi** xalq ta’limi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) xalq ta’limi bo‘limlari hamda idoraviy mansub boshqa muassalar, korxonalar va tashkilotlar kiradi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO‘plami, 2004 yil, 29-son, 332-modda.

Vazirlik faoliyatini tashkil etish - Vazirlikni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan vazir boshqaradi. Vazirning uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

**Maktabgacha ta’lim vazirligi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni bilan tashkil etildi.

**Davlat test markazi.** Respublikada abituriyentlarning oliy o‘quv yurtlariga sifatli qabul qilinishini ta’minlash, mutaxassislarini, shuningdek ta’limning barcha turlari bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlarini tayyorlash sifatini, respublika ta’lim muassasalarida test va reyting ballarining xolisonaligini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat test markazi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Markaz o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

2004-yil 24-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Test markazi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan qarori qabul qilindi<sup>1</sup> va ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining asosiy vazifalari belgilab o‘tildi.

- **Sog‘lijni saqlash sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vazifalari qanday?**  
**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi** sog‘lijni saqlash davlat boshqaruvi markaziy organi hisoblanadi va u o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. Sog‘lijni saqlash vazirligi o‘z ishini respublikaning davlat boshqaruvi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO‘plami, 2004 yil, 25-son, 289-modda.

boshqa organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar ijro etuvchi organlari va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiradi.

Vazirlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tasdiqlash uchun taqdim etiladigan Vazir boshchilik qiladi. Vazir Vazirlikka yuklangan vazifalar bajarilishi va uning o‘z funksiyalarini amalga oshirishi uchun shaxsan javob beradi. Vazirning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlarini bo‘ladi.

Sohadagi davlat nazorati **O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Nazorat inspeksiysi** tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat inspeksiysi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligida tashkil etiladi va bevosita O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziriga bo‘ysunadi. Uning Qoraqalpog‘iston Respublikasida, barcha viloyatlarda va Toshkent shahrida hududiy bo‘linmalari bo‘ladi, ular boshqaruvning vertikal tizimiga ega bo‘ladilar va o‘z faoliyatida bevosita Nazorat inspeksiysi boshlig‘iga bo‘ysunadilar.

Davlat sanitariya nazorati – **bu sanitariya qonunlarining buzilishining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yishga qaratilgan sanitariya-əpidemiologiya xizmatining faoliyatidir.** Ushbu faoliyat 2015-yil 26-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ahollining sanitariya-əpidemiologik osoyish-taligi to‘g‘risida” gi Qonuni<sup>1</sup> bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonun sanitariya-əpidemiya masalalarida aholining hotirjamligini va radiatsiya xavfsizligini ta’minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi,

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO‘plami, 2015 y., 34-son, 451-modda

odamning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini hamda u bilan bog‘liq boshqa huquqlarini va ularni amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlaydi.

- **Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vazifalari qanday?**

O‘zbekiston Respublikasida mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi **Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi** tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu Vazirlik 2017-yil 24-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni<sup>2</sup> bilan mehnatni rag‘batlantirish va manfaatdorlikni oshirish sohasida boshqaruvni tashkil etish darajasini oshirish va takomillashtirish, aholini ish bilan oqilona ta’minalash, ijtimoiy ta’minot tizimini yaxshilash, erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashtirish sharoitida ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, shu asosda aholining farovonligi barqaror yuksalib borishini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi negizida tashkil qilingan.

**Tashqi mehnat migratsiyasi.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrdagi qaroriga<sup>1</sup> muvofiq mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha davlatlararo hamkorlikning o‘sib borayotgan ko‘lamlarini, O‘zbekiston fuqarolarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinnari berish xohishini bildirgan mamlakatlar va chet el kompaniyalari soni ko‘payganligini hisobga olib, shuningdek respublika fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketishini tashkil etish tizimini va uning mexanizmini tartibga

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., № 1-2

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari tO‘plami, 2003 y., N 11, 117-modda.

solist, fuqarolarning chet ellarda ishga joylashishini ta'minlaydigan mehnat organlari infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasida ishga joylashishini ta'minlash masalalarini hal etish Hukumat qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi **Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi** huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligiga yuklandi.

- **Madaniyat va sport sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni<sup>2</sup>ga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

2017-yil 15-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni<sup>3</sup> ga ko'ra, xalq ijodiyoti va madaniy-mrifiy ishlar respublika ilmiy-metodik markazi va uning hududiy markazlari, Respublika metodika va axborot markazi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida quyidagi davlat muassasalari tashkil etildi:

Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi;

Axborot va kompyuter texnologiyalari markazi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziriga, zarur hollarda, vazirlilikning markaziy apparati, Qoraqalpog'iston

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO'plami, 2017 y., 8-son, 105-modda

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari tO'plami, 2017 y., 8-son, 114-modda

Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahri madaniyat bosh boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi, Axborot va kompyuter texnologiyalari markazi tuzilmalariga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berildi.

Toshkent shahar hokimligi tasarrufida bo‘lgan “Istiqlol” va “Turkiston” San’at saroylari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufiga topshirildi.

2018-yil 5-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vaziriga raisiga, zarur hollarda, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi markaziy apparatining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini, viloyatlar va Toshkent shahri jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarining tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berildi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Bolalar-o‘smlilar sport maktablari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazini O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziga birlashtirish yo‘li bilan uni qayta tashkil etish, mazkur markazlarning shtatlar sonini optimallashtirish hamda birkitib qo‘yilgan binolar, inshootlar va boshqa mol-mulkлarni ularda saqlab qolish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi.

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlar milliy bazasi, 06.03.2018 yil.

- *Mudofaa sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi qanday?*

O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuning 3-bo‘limida davlat organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning mudofaani ta‘minlashdagi ishtiroki ko‘rsatib o‘tilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi** o‘z tasarrufidagi qo‘sishnlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘sishlarining zamonaviy qurol-yarog‘lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta‘minlaydi.

**Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi** O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududi yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo‘mondonlik organi hisoblanadi.

**Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar** qonun hujjatlariga muvofiq mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek jangovar qobiliyatini ta‘minlashda qatnashadilar hamda zimmalariga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas’uldirlar.

Harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo‘lgan mahsulotlar etkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas’uldirlar, safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq tarmoqning urush davrida barqaror ishlashini ta‘minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

- **Ichki ishlar sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimini va ularning vazifalarini yoritib bering?**

2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi **Ichki ishlar vazirligi** o‘z huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilishni va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta’minlaydi.

Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Hukumatiga bo‘ysunadi.

Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi va tugatiladi, so‘ngra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tomonidan tasdiqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisи va Vazirlar Mahkamasi oldida o‘z zimmasidagi vazifalarning hal etilishi uchun javob beradi. Vazirlik o‘z faoliyatida siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlari va harakatlaridan mustaqildir.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadi va lavozimidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va transportdagи ichki ishlar boshqarmasi boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi

ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari), tarmoq ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) boshliqlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘ining, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va transportdagi ichki ishlar boshqarmasi boshliqlarining taqdimnomalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

**Yo‘l harakati xavfsizligi.** Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

**O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi.** O‘zbekiston Respublikasi pasport tizimini pasport berish va undan foydalanish, qayd etish, ro‘yxatdan chiqarish tartibini, shuningdek pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalar yig‘indisi tashkil etadi. Pasport tizimi aholini hisobga olishda, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek jinoyatçilikka qarshi kurash, uning oldini olishda katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi pasport tizimi 1999-yil 26-fevralda tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimi to‘g‘risidagi Nizom** bilan bevosita tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini va uning egasi shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjatdir. O‘zbekiston Respublikasining 16

yoshga to‘lgan barcha fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportiga ega bo‘lishlari shart. Harbiy xizmatchilar bunday pasportsiz yashaydilar. Harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar harbiy xizmatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida alohida pasport tizimi amal qiladi.

- *Adliya sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimini va ularning vazifalarini yoritib bering?*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son Farmoniga muvofiq, quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;
- davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini ushbu sohada tegishli islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha asoslangan takliflarni ishlab chiqqan holda kompleks va tanqidiy tahlil qilish;
- qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta’minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil qilishga ko‘maklashish;

- ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash;
- huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini etkazish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;
- huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;
- notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarни amalga oshirish;
- xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;
- xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;
- yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudentsiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;
- sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

– adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 12-dekabrida “Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi** tashkil etildi.

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

– jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish; Davlat xizmatlari yagona reestrini shakllantirish, mazkur sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

– davlat xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladigan axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish, tayyorlash, joriy etish va integratsiya qilishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

– davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

– davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va uslublarini joriy etishni tashkil qilish, mazkur sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR<sup>1</sup>**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **1-topshiriq**

Quyidagi jadvalni to'ldiring. Mazkur jadvalni to'ldirishda O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalı (<https://www.gov.uz>) dan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur portaldan davlat boshqaruv organlari ro'yxatini topib, ularni ma'muriy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ajratib, ushbu sohada ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini aniqlang.

Soha	Ma'muriy organ	Davlat xizmatlari
Ma'muriy-siyosiy soha		
Iqtisodiyot sohasi		
Ijtimoiy soha		

### **2-topshiriq**

Quyidagi jadvalni to'ldiring. Mazkur javdvalni to'ldirishda ihtiyyoriy beshta vazirlik nizomlarini o'zaro tahlil qilib, ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang.

---

<sup>1</sup> Mazkur mavzu xajmi juda keng ekanligini hisobga olib, talaba ushbu mavzu doirasidagi mustaqil tayyorlanish uchun topshiriqlar kO'p berilmoqda.

Vazirliklar (5 ta vazirlik misolida)	
O'xshash jihatlari	O'ziga xos jihatlari

### **3-topshiriq**

Toshkent shahrida joylashgan Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy-harbiy texnika bilim yurtida professor-o'qituvchili lavozimini egallab turgan va ilmiy darajaga ega bo'lган boshliqlar tarkibidagi S.Namozov belgilangan chegaradagi yoshga to'lgan xodim sifatida zaxiraga yoki iste'foga chiqishi lozim bo'lsada, u ishlab turib pensiya olish huquqidан foydalanish fikrini bildirdi. Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy-harbiy texnika bilim yurti kadrlari agar ishlab turib mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan bo'lsa, ish haqi tarkibida va pensiya miqdorida o'zgarishlar bo'lishi (ish haqining yarmi va pensiyaning yarmi saqlanishi) to'g'risida ogohlantirdi. S.Namozov o'zining professor ekanligini va shu erda ancha yildan beri xizmat qilayotganligini aytib, kadrlar bo'limiga e'tiroz bildirdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **4-topshiriq**

2012-yil 16-martda Toshkent yuridik kolleji direktori A.Pardaevga O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 2-darajali adliya maslahatchisi martaba darajasi berildi. 2016-yil 11-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri vazifasini bajaruvchi shaxs

A.Olimov o‘z lavozimidan ozod etildi. 2016-yil 14-martda O‘zbekiston Respublikasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri etib tayinlangan A.Samadov O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 16-martdagি martaba darajasi berish to‘g‘risidagi buyrug‘iga e’tiroz bildirdi va uni bekor qilishni talab qildi. E’tirozga asos qilib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha mакtab, akademik litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga bo‘ysunishi lozimligini hamda ularning rahbarlariga unvon yoki martaba berish uning vakolati ekanligini sabab qilib ko‘rsatdi. 2016-yil 17-martda esa O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri martaba darajasi to‘g‘risidagi qarorni o‘zgartirganlini va bunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining e’tirozi sabab bo‘lmaganligini bildirdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **NAZARIY SAVOLLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrdagi PF-3358-sonli “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonini tahlil qiling.
2. Iqtisodiy sohalarni ma’muriy-huquqiy tartibga solish tartibini yoritib bering.
3. Ijtimoiy sohalarni ma’muriy-huquqiy tartibga solish tartibini yoritib bering.
4. Ma’muriy-siyosiy sohalarni ma’muriy-huquqiy tartibga solish tartibini yoritib bering.

## V BOB. DAVLAT BOSHQARUVIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASH

- **Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash nima?**

Davlat boshqaruvida qonuniylik deganda davlat organlari (mansabdar shaxslar) faoliyatining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi tushuniladi.

*Yodda tuting!*

**Qonuniylik – bu davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan qonunlarga va ularga asoslangan boshqa huquqiy aktlarga qat'iy rioya qilishdir.**

Qonuniylikni ta'minlash – bu:

**birinchidan**, davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyatida qonuniylik talabidan chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik;

**ikkinchidan**, qonun buzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash;

**uchinchidan**, aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish;

**to'rtinchidan**, buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni gayta tiklash;


**beshinchidan**, qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish;

**oltinchidan**, qonun buzilishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

- **Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashning qanday usullari bor?**

Davlat boshqaruvi faoliyati sohasida qonuniylik prinsipining harakatda bo'lishi tashkiliy-huquqiy vositalar tizimi bilan ta'minlanadi. Yuridik xususiyatlari va mazmuni

jihatidan har xil bo‘lgan bunday vositalarning yig‘indisi – qonuniylikni ta’minlash uslublarini tashkil etadi.



7-sxema

***Yodda tuting!***

Nazorat – maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan o‘ziga bo‘ysinmagan obyekt faoliyatida qonuniylik va intizomni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruuv faoliyatining bir turidir.

Nazorat olib borish jarayonida nazorat ostiga olingan obyektning faoliyatiga faqatgina qonuniylik nuqtai nazaridan baho beriladi. Nazoratni amalga oshirish vaqtida nazorat ostiga olingan obektning ma’muriy xo‘jalik faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Nazorat maxsus davlat nazorati organlari tomonidan yoki prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat jarayonida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari bevosita hal qilinmaydi yoki aybdor shaxslar bevosita javobgarlikka tortilmaydi. Nazorat vaqtida aniqlangan kamchiliklar, qonun buzilishlari to‘g‘risida nazorat olib borilgan organ (tashkilot) bo‘ysingan yuqori organga yoki tegishli davlat organlariga (masalan, sud, prokuratura organlariga) murojaat qilish mumkin.

Davlat nazorati ikkiga bo‘linadi:

➤ ***prokuror nazorati***

➤ ***ma’muriy nazorat***

Davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylik va intizomni ta’minlashda ma’muriy nazorat davlat organlari faoliyatining alohida turi bo‘lib, ijro hokimiyatining maxsus vakolatli davlat organlari va ularning mansabdar shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

***Yodda tuting!***


**Ma’muriy nazorat – davlat organlari, mansabdar shaxslar, davlat va nodavlat korxona, muassasa va tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar tomonidan umummajburiy qoidalarga qat’iy rioya etishlariga ustidan olib boriladigan davlat nazoratidir.**

Ma’muriy nazorat davlatning boshqa nazorat turlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- nazorat olib borilayotgan obyekt faoliyatidagi qonuniylikka rioya etilishi bilan bog‘liqdir;
- nazoratni olib boruvchi davlat organi bilan nazorat ostiga olingan o‘rtasida tashkiliy jihatdan bo‘ysinuvning bo‘lishi shart emas;
- uni amalga oshiruvchi davlat organlari doirasi kengroqdir;
- turli tashkiliy va huquqiy shakllarda amalga oshiriladi;
- nazoratni olib borishning maxsus uslublariga ega.

- ***Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta’minlash usuli sifatidagi shikoyat qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?***

Davlat boshqaruvida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari buzilgan taqdirda ma’muriy va sud tartibida o‘z huquqlarini tiklashlari mumkin.



Ma'muriy tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash deganda, davlat organi va uning mansabдор shaxsining g'ayriqonuniy xarakati(xarakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organ yoki maxsus organga shikoyat qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tartibda shikoyiat qilish “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi va “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun asosida amalga oshiriladi.

Sud tartibida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta'minlash deganda, davlat organi va uning mansabдор shaxsining g'ayriqonuniy xarakati(xarakatsizligi) ustidan sud(ma'muriy yoki xarbiy)ga shikoyat qilish orqali amalga oshiriladi. Mazkur tartibning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksdir.

- *Davlat boshqaruvida fuqarolar huquqlarini ta'minlashda xalq qabulxonalarini va virtual qabulxonalarning o'rni qanday?*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabдор shaxslari tomonidan murojaatlarning samarali ko‘rib chiqilishini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) Xalq qabulxonalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi kelib tushayotgan murojaatlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qabul qilish, to‘plash, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek ularning to‘liq, o‘z vaqtida hamda sifatli ko‘rib chiqilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonalarining va Virtual qabulxonasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, murojaatlar bilan ishslashning samarali tizimi faoliyatini ta’minlash;
- murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqning so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlariga, tashkilotlarga yuborilgan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;
- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini o‘tkazish, shu jumladan videokonferentsaloqa vositasida o‘tkazish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ularni ko‘rib chiqish ustidan monitoring va nazorat qilish bo‘yicha elektron axborot tizimini joriy etish hamda yuritish orqali murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

### ● ***Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta’minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni qanday?***

Davlat boshqaruvida qonuniylik ta’minlashda jamoat nazoratining tutgan o‘rni kattadir. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asosi 2018 yil 12 aprel kuni qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonundir<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay’at majlislarida ishtiroy etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituv;
- jamoatchilik monitoring;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish;

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018 y., 03/18/474/1062-son

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdon shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Jamoatchilik nazoratining natijalariga ko‘ra bayonna, xulosa, ma’lumotnomma shaklida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin.

Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

Yakuniy hujjatda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda ko‘rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog‘lagan holda tahvil qiling.**

### **1-topshiriq**

Oziq-ovqat mollari sotishga ixtisoslashtirilgan “Ixtiyor” firmasi savdo kompleksini qurishni rejalashtirdi. Savdo kompleksini qurilishining elektro montaj bosqichiga kelganda loyihalash va elektro montaj ishlarini amalga oshirish uchun jalb qilingan “BEST” pudratchi firmasi obyektning energiya ta’minoti loyihasiga xulosa olish uchun 2014-yil 21-sentabr kuni ariza (boshqa talab etilgan hujjatlar bilan birga) bilan “O‘zdavənergonazorat” inspeksiyasining hududiy bo‘limiga murojaat qildi. Ariza qabul qilingandan 12 kun o‘tishiga qaramasdan “O‘zdavənergonazorat” inspeksiyasining hududiy bo‘limi xulosa bermadi. “BEST” pudratchi firmasi direktori mazkur holat bo‘yicha 2014-yil 4-oktabr kuni “O‘zdavənergonazorat” inspeksiyasining hududiy bo‘limi mas’ul shaxsini loyihami tasdiqlatmagan holda qurishni montaj ishlarini amalga oshirishni boshlashligi to‘g‘risida ogohlantirdi va montaj ishlarini

boshlab yubordi. Savdo kompleksi bir oydan so‘ng to‘liq bitkazildi. “Kamol” firmasi rahbari elektr o‘lchagich o‘rnatish va iste’molchi sifatida ro‘yxatga olish bo‘yicha tegishli organga murojaat qildi. Lekin, vakolatli organ savdo kompleksini montaj ishlari “O‘zdavənergonazorat” inspeksiyasining hududiy bo‘limi tomonidan tasdiqlanmagan loyiha asosida amalga oshirilganligini asos qilib, murojaatni rad etdi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**2-topshiriq**

Fuqaro M.R. 55 yoshga to‘lishi munosabati bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi shahar bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda BTPJ deb yuritiladi) murojaat qilib pensiya tayinlashni so‘ragan. M.R.ning mehnat daftarchasida 1977-1988 yildagi turli tashkilotlarda ishlagan davrlari haqidagi yozuvlar kiritilgan. BTPJ M.R.ning mehnat daftarchasi hamda davlat arxivi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asosan uning tashkilotlarda ishlagan davri bola parvarishlash ta’tillarini chiqarib tashlaganda 84 oydan kamni tashkil etgan. Shundan 47 oy 6 kunga sug‘urta badallari to‘langanligi uchun, BTPJ yoshga doir pensiya tayinlash uchun qonuniy asoslar mavjud emas deb hisoblab, 2018-yil 15-maydagi 222-sonli xat bilan M.R.ning arizasini rad qilgan. Shu sababli, M.R. sudga ariza bilan murojaat qilib, BTPJ mansabdor shaxslarining harakatlarini qonunga xilof deb topishni so‘ragan.

***Vaziyatga huquqiy baho bering.***

## **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash tushunchasini tahlil qiling.
2. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash usullarini amaliy misollar bilan tahlil qiling.
3. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda shikoyat qilishning qanday o'rni bor?
4. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda jamoatchilik nazoratining qanday o'rni bor?


## VI BOB. MA'MURIY PROTSESS

### • *Ma'muriy protsess nima?*

Bugungi kunda ma'muriy huquqqa nisbatan yangicha qarash bevosita ma'muriy protsess tushunchasi bilan bog'liqdir.

***Yodda tuting!***


*Ma'muriy protsess – bu ommaviy-huquqiy xarakterdagি muayyan bir ishni ma'muriy organ yoki sud tomonidan ko'rib chiqish va hal etishga qaratilgan jarayondir.*



*9-sxema*

Demak, ma'muriy protsess jismoniy va yuridik shaxsnинг qaysidir ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalgalashirish uchun ma'muriy organga murojaat etishidan yoxud murojaatdagi iltimos qanoatlantirilmagan taqdirda yuqori turuvchi organ yoki sudga shikoyat qilish vaqtidan boshlanadi.

• *Ma'muriy protsessning qanday turlari mavjud?*



10-sxema

• *Ma'muriy-boshqaruv protsessi nima?*

*Yodda tuting!*

Ma'muriy-boshqaruv protsessi deganda ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan tashqi boshqaruv faoliyatiga kirishish jarayonidir. Ushbu jarayonni "ma'muriy protseduralar" deb ham ataladi. Misol uchun: davlat ro'yxatidan o'tish jarayoni.

Ma'muriy boshqaruv protsessi quyidagi xususiyatlarga ega:

- boshqaruv-huquqiy tabiatga ega;
- davlat hokimiysi ijro etuvchi bo'g'inini amalgalashirishning yuridik shakli hisoblanadi;

- asosan ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi;
- ma'muriy huquq moddiy me'yorlarining amalda tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ma'muriy boshqaruv protsessiga oid eng asosiy qonun hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasining **"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"**gi Qonuni<sup>1</sup>dir.

- *Ma'muriy-yustitsiyaviy protsess nima?*

*Yodda tuting!*

Ma'muriy yustitsiyaviy protsess deganda ma'muriy organlarning jismoniy va yuridik shaxslar bilan ma'muriy-huquqiy faoliyat doirasida yuzaga kelgan ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish jarayonidir.

Ma'muriy-yustitsiyaviy protsess bevosita ma'muriy (ommaviy) nizo bilan bog'liq tushunchadir.

Ma'muriy yustitsiyaviy protsessiga oid eng asosiy qonun hujjatlardan biri bu 2018-yilning 25-yanvar kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi**<sup>1</sup>dir.

Ushbu kodeksga ko'ra, sud:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

2) davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma'muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdar shaxslarining qonun hujjatlariiga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018 y., 03/18/457/0525-son

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018 y.

shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdon shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

5) davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tov lash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni hal qiladi.

Sud fuqarolar va yuridik shaxslarning bузилган yoki nизолашилотган huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan, qonun bilan o'zining vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ham hal qiladi.

### ***E'tibor bering!***

Aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ma'muriy huquqbazarliklar umuman ma'muriy huquq predmeti hisoblanmaydi, kichik jinoyatlar va tegishli ravishda bu kabi huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud ish yurituvi jinoyat protsessiga kiradi. Tegishli ravishda bunday huquqbazarliklarga oid sud ishini ko'rib chiqish jarayoni jinoiy ishni ko'rib chiqishga kiritiladi.

#### **• *Ma'muriy protsessni muammoli vaziyat bilan qanday bog'lash mumkin?***

Ma'muriy protsessni quyidagi muammoli vaziyatga bog'lab tahlil qilimiz.

Fuqaro K. advokatlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida 2012-yil 25-noyabr kuni Adliya vazirligiga

litsenziya olish uchun tegishli hujjatlarni taqdim etdi. Bu orada fuqaro K. taqdim etgan hujjatlarda belgilangan talablarining barchasi borligi ma'lum bo'ladi, 19-sentabrda esa fuqaro K. malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshiradi biroq, uning hujjatlari Adliya vazirligi tomonidan qaytarib yuboriladi. Bunga asos qilib tegishli muddatda litsenziya olish uchun murojaat qilinmagani aytildi.

Ushbu muammoli vaziyat ma'muriy protsessning boshqaruv munosabatidagi huquqni qo'llash ya'ni ma'muriy organ va manfaador shaxs o'rtaida davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy munosabat yuzaga kelmoqda. Yuqoridagi holat bo'yicha Adliya vazirligi fuqaro K.ning hujjatlarini qaytarib yuborganligi – taraflarning o'rtaida nizo kelib chiqqanligini anglatadi. Bu esa ma'muriy-yustitsiyaviy protsessning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

### **Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

#### **1-topshiriq**

Toshkent shaxri Olmazor tumanida yashovchi fuqaro Komilov K. o'ziga qarashli er uchastkasida 6 xonadan iborat turar joy binosi qurdi. Oradan 10 yil o'tgach fuqaro Komilov K.ning hovlisi joylashgan hududdan avtomobil magistral yo'li qurish loyihasi davlat dasturiga kiritildi. Mazkur holat bo'yicha hokimiyat vakili fuqaro Komilov K.ga qarashli er o'rniga boshqa er berilishini, uy joy qurish uchun esa mablag' berilmasligini ta'kidlab o'tdi. Bundan norozi bo'lgan fuqaro Toshkent shaxri Olmazor tuman hokimiyatiga uy qurish uchun mablag' ta'minlash yuzasidan murojaat qildi. Tuman hokimiyati mas'ul xodimi murojaatni asossiz deb topib, sabab sifatida uyning qurilishi ruxsatsiz amalga oshirilganini ma'lum qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

## **2-topshiriq**

Fuqaro B. nodavlat o‘quv markazi ochish maqsadida litsenziya olish uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga tegishli hujjatlarni taqdim etdi. Lekin inspeksiya litsenziya berishga oid mazkur ishni ko‘rib chiqib sabablarini keltirgan holda litsenziya berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Fuqaro B. litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, 7 kun ichida qayta ko‘rib chiqishga taqdim etdi. Inspeksiya tomonidan yana qayta yig‘im to‘lash va rad etish to‘g‘risida qarorda ko‘rsatilmagan boshqa kamchiliklarni sabab qilib 30 kun mobaynida yana rad qilish to‘g‘risida qaror chiqardi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

## **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Ma’muriy protsess tushunchasini amaliy misollar bilan tahlil qiling.
2. Ma’muriy protsessning turlarini tahlil qiling.
3. Ma’muriy boshqaruv protsessining qonunchilik asosini tahlil qiling.
4. Ma’muriy yustitsion protsess tushunchasini amaliy misollar bilan tahlil qiling.

## VII BOB. MA'MURIY TARTIB-TAOMILLAR<sup>1</sup>

### ● *Ma'muriy tartib-taomillar nima?*

Ma'muriy tartib-taomillar jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro munosabatga kirishayotganda amalga oshiriladigan davlat funksiyalarining tartibi, umumiy tamoyillari va qoidalarini tartibga soladi. Shu bilan birga ma'muriy tartib-taomillarga jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarga qaratilgan davlat organlarining qonunchilikda belgilangan vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq davlat xizmatlarini ko'rsatish vakolatlari ham kiradi (ruxsat beruvchi va boshqa hujjatlarni berish, ularning muddatlarini uzaytirish, qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizalarни taqdim qilish va ko'rib chiqish, ro'yxatdan o'tkazish, kompensatsiya, kafolat va imtiyozlarni berish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va erkinliklariga tegishli boshqa qarorlarni qabul qilish).


*Yodda tuting!*

Ma'muriy tartib-taomil – ma'muriy organlarning ma'muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qoidalaridir.

Ma'uriy-huquqiy faoliyat ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv faoliyati hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Ayrim manbalarda “ma'muriy protseduralar” deb ham nomlanadi.



11-sxema

- *Ma'muriy tartib-taomilarning qanday prinsiplari mayjud?*

O'zbekiston Respublikasining “Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi Qonun<sup>1</sup>ning 5-moddasiga ko'ra, ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- qonuniylik;
- mutanosiblik;
- ishonchlilik;
- tinglanish imkoniyatining mavjudligi;
- ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarliligi;
- manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi;
- byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi;
- mazmunan qamrab olish;
- ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi;
- teng huquqlilik;
- ishonchning himoya qilinishi;

---

<sup>1</sup> Ushbu mavzuni O'zlashtirishda mazkur qonunni mukammal O'zlashtirish talab etiladi.

- ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsion vakolatning) qonuniyligi;
- tekshirish.

● *Ma'muriy tartib-taomillarning tizimi qanday?*

Ma'muriy protseduralar tizimi - ma'muriy organlarning turli soha, tarmoqlardagi va davlat boshqaruvining alohida masalalari bo'yicha faoliyatini tartibga solish maqsadida ushbu qonun bilan belgilangan doirali ma'muriy protseduralardan va unga muvofiq belgilanadigan maxsus ma'muriy protseduralardan iboratdir.

“Doiraviy protseduralar” tushunchasi qonun chiqaruvchi uchun yangilikdir: hozirgi paytgacha u milliy qonunchilikda qo'llanilmagan. Ammo ushbu tushuncha asosida turgan tamoyil (huquqiy tartibga solishga huquqiy yondashuv) anchadan buyon qonunchilikda qo'llaniladi. Bunga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yaqqol misol bo'la oladi, unda mamlakatimizda ijtimoiy munosabatlarni va qonunchilik tizimini shakllantirishning asosiy tamoyillari belgilangan. Bunda alohida ta'kidlanadiki, O'zbekiston Respublikasining barcha qonunlari mamlakatning Asosiy qonuni asosida va unda ko'zda tutilgan kafolatlarni ijro etish maqsadida qabul qilinishi kerak. Boshqacha aytganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bosh yo'nalishni belgilaydi, uning doirasida esa davlat qurilishi va boshqaruvi amalga oshirilishi kerak.

Doiraviy ma'muriy protsedura barcha ma'muriy organlar uchun majburiy bo'lgan, ya'ni barcha ma'muriy organlar va ularning mansabdar shaxslari tomonidan ma'muriy ishlarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish, ma'muriy qarorlarni qabul qilish jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan asosiy talablar (qidalar)dir. Shu tarzda, doiraviy ma'muriy protsedura – mohiyatan ma'muriylashtirish konstitutsiyasidir.

Ma'muriy organlar faoliyati sohalari, ular oldiga qo'yilgan vazifalar kabi, xilma-xilligi bilan farqlanadi.

Alohibda sohalarda ma'muriylashtirishning o'ziga xosligi maxsus ma'muriylashtirish protseduralarida aks ettirilishi lozim. Maxsus protseduralarning mohiyati shundaki, ular chegarasidan tashqariga chiqmay, doiraviy ma'muriy protsedurada ko'zda tutilgan ayrim qoidalarni aniqlashtiradi. Masalan, ular ma'muriy ishni ko'rib chiqishning qisqaroq muddatini, rad etishning batafsil tartibini, dalillar tadqiqoti va shu kabilarning qisqaroq muddatini ko'zda tutishi mumkin.

Maxsus ma'muriy protsedura u yoki bu sohada ma'muriylashtirishning o'ziga xosligini e'tiborga olishi kerak, u doiraviy protseduraga zid bo'lmasligi kerak. Buning uchun qonun protseduralarning bunday nomuvofiqligi mezonlarini belgilashi kerak.

- ***Ma'muriy tartib-taomillarning qanday ahamiyati bor?***

Ma'muriy tartib-taomillarni qo'llash natijasida quyidagi masalalar hal qilinadi:

Birinchidan, ma'muriy-huquqiy faoliyatda qonuniylik ta'minlanadi. Ma'muriy organlarning faoliyati aniq qonuniy doiraga solinadi.

Ikkinchidan, ma'muriy-huquqiy faoliyatning xolisligi va adolatliligi kafolatlari yaratiladi.

Uchinchidan, ma'muriy-huquqiy faoliyatning oshkoraliqi, uning ommaviy (sud, parlament jamoatchilik) nazorati va ichki idoraviy nazorat uchun ochiqligi oshadi.

To'rtinchidan, davlat mansabдор shaxslari ongliligi, shuningdek bilim darajasi va kasbiy mahorati o'sishiga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar yaratiladi.

Beshinchidan, ma'muriy-huquqiy faoliyatda xususiy shaxs huquqlarini himoyalash kafolatlari yaratiladi.

Oltinchidan, hokimiyat nufuzi yaxshilanadi, jamiyatning ma'muriy tizimga nisbatan ishonchi ortadi.

*AQShda davlatning eng asosiy funktsiyalaridan biri davlat boshqaruvi organining vakolatlari bilan bog'liq bo'lgan jismoniylar hamda xususiy yuridik shaxslar o'tasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. Davlat boshqaruvi organi yoki boshqa tuzilmalarga o'z qonuniy vakolatlarini amalga oshirishlarini ta'minlash bilan bir qatorda qonun chiqaruvchi ularning o'z vakolatlari doirasidan chiqib ketmasliklar uchun ular ustidan tegishli nazoratni amalga oshirish mexanizmini ham o'rnatadi. Vakolatlarni berishda muayyan cheklovlar va talablar, masalan, vakolatlarni vijdongan va korrupsiyanidan xoli tarzda amalga oshirish majburiyati yuklatilishi mumkin. Buning boisi shundaki, berilgan vakolatlarning ko'lami jamiyatda tan olingan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi.*

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **1-topshiriq**

2014-yil 20-mart kuni fuqaro K.Rashidov pensiya yoshiga etgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Andijon viloyati Shahrixon tuman bo'limiga murojaat qildi. Bo'lim xodimi fuqaro K.Rashidovga olib kelishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxatini taqdim qildi. Lekin, hujjatlar ro'yxati ichida fuqaro K.Rashidov 1990-1995-yillarda ishlagan tashkilot hozirda o'z faoliyatini tugatganligi uchun ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomani topishning iloji bo'lmasligini ijtimoiy ta'minot bo'limi xodimiga aytib o'tdi. Bo'lim xodimi u holda fuqaro K.Rashidovni arxivga borishini ta'kidlab o'tdi. Arxivga borganda arxiv idorasini yangi binoga ko'chib

---

<sup>1</sup> Bradley A.W., Ewing K.D. Constitutional and Administrative Law. Pearson Education Limited 2003. – P. 648.

o‘tganligi uchun, ko‘chish jarayonida fuqaro K.Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilotga tegishli hujjatlar yo‘qolganligini aytib, bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga murojaat qilish lozimligini aytib o‘tdi.

2014-yilning 25 mart kuni fuqaro K.Rashidov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga elektron murojaat qildi. 2014-yilning 30-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi fuqaro K.Rashidovga javob yo‘llab, ushbu masala “O‘zarxiv” agentligi vakolatiga kirmasligini, “boshqa organ”ga murojaat qilish lozimligini ko‘rsatib o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan fuqaro sudga shikoyat qildi. Fuqaro o‘z shikoyatida bir qancha asoslarni ko‘rsatib o‘tdi.

birinchidan, agentlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O‘zarxiv» agentligi («O‘zarxiv» agentligi) to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, respublika davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarning saqlanishini ta’minalash uchun javobgar ekanligini ko‘rsatib o‘tdi.

ikkinchidan, agentlik arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablarini bajarmayotganligini ta’kidlab o‘tdi.

*Yuqoridagi kazusdan kelib chiqib quyidagi jadvalni to‘ldiring. Ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarini mazkur kazusga bog‘lab tahlil qiling.*

Prinsipning nomi	Kazusga aloqador jihatlari
Qonuniylik prinsipi	

Mutanosiblik prinsipi	
Ishonchlilik prinsipi	
Tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi	
Ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi prinsipi	
Manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi	
Byurokratik rasmiyatçılıkka yo'l qo'yimasligi prinsipi	
Mazmunan qamrab olish prinsipi	
Ma'muriy ish yuritishning "bir darcha" orqali amalga oshirilishi prinsipi	
Teng huquqlilik prinsipi	
Ishonchning himoya qilinishi prinsipi	
Ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsion vakolatning) qonuniyligi prinsipi	
Tekshirish prinsipi	
Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarining qo'llanilishi	

## **2-topshiriq**

2017-yil Toshkent shahrida metro qurilishi munosabati bilan “Bahromxon” MChJga tegishli oshxona buzildi. “Bahromxon” MChJ raisining aytishicha, “Buzilgan oshxonamiz joyiga teng joy berishmayapti. Beramiz, deb va’da qilishadi. Lekin qachon berishi noma’lum. Biz loyihani 1849 m.kv. joyga moslab tayyorlaganmiz. O’sha joyni bersa, keyin qurilish ishlarini boshlar edik. Hokimiyatga ekspertizadan o’tkazilib, xulosasi olingan 1,6 mlrd so‘mlik qiymat bahosini ham bergenmiz. Lekin haligacha javob olmadik”. Hokimlikning ma’lum qilishicha, “Bahromxon” MChJga Yashnobod tumanidagi davlat zaxirasidagi bo‘shter maydonlari taklif qilingan, lekin tashkilot rahbariyati ushbu ko‘rsatilgan joylarni ma’qullamasdan, balki Toshkent shahar “Rohat” aylanasi atrofida o‘z mijozlariga egaligi, boshqa joydan er olib qurgan taqdirda mijozlarini yo‘qotishi mumkinligini ta’kidlab, Toshkent shahar hokimligiga murojaat qilgan va arizasi qanoatlantirilgan. Tadbirkorga “Rohat” avtosaloni orqasidan 0,12 hektarli er maydoni ajratib berish to‘g‘risida shahar hokimining qarori qabul qilingan. MChJga tegishli oshxona buzilishidan oldin, 2018-yil 3-dekabrda Yashnobod tuman hokimi vazifasini bajaruvchisi X.Tillashayxov imzosi bilan berilgan kafolat xatida “tuman hokimiyati qoshida tuzilgan komissiya xulosasiga asosan buzilayotgan mulkingiz qiymatidan kam bo‘lмаган компенсация турини ажратилиши крафолатланади” deb va’da berilgan. Lekin hokimlik bergen ma’lumotnomada kompensatsiya puli haqida esa hech narsa deyilmagan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

**Vaziyatni O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hijjatlari asosida tahlil qiling.**

### **3-topshiriq**

Fuqaro D. yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng turizm sohasida faoliyat yuritish maqsadida tegishli organga ariza, yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatining nusxasi va gid (ekskursovod)ning malaka sertifikati nusxasini taqdim etdi. Vakolatli organ 5 kundan keyin fuqaro D.ga u tomonidan taqdim etilgan hujjatlardan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi va gid (ekskursovod)ning malaka sertifikati nusxasi notarial tasdiqlatilmagani va ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun 5 kun vaqt berilishi to'g'risida xabardor qildi. Fuqaro D. mazkur holat bo'yicha litsenziya talabgoridan Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizom nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilish deb hisoblab sudga murojaat qildi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **NAZARIY SAVOLLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish ehtiyojini tushuntirib bering.
2. Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
3. Ma'muriy tartib-taomillar tushunchasini amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
4. Ma'muriy tartib-taomillar tizimini tahlil qiling.

## VIII BOB. MA'MURIY ISH YURITUVI

### ● *Ma'muriy ish yuritish nima?*

Manfaatdor shaxsning arizasi (shikoyati) yoki ma'muriy organning tashabbusi ma'muriy ishni boshlash uchun asos bo'ladi.


Ma'muriy ish yuritish ariza ma'muriy organda ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran boshlangan hisoblanadi.

Agar ma'muriy ishni boshlash uchun ma'muriy organning tashabbusi asos bo'lsa, ma'muriy ish yuritish adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran boshlangan hisoblanadi.

*Yodda tuting!*

Ma'muriy ish yuritish – ma'muriy tartib-taomil orqali tartibga solingan ma'muriy ishni ko'rib chiqish, ma'muriy hujjatni qabul qilish, uni ma'muriy shikoyat bo'yicha qayta ko'rish, shuningdek ma'muriy hujjatni ijro etish jarayonidir.

### ● *Ma'muriy ish yuritishning qanday ishtirokchilar mayjud?*



## *12-sxema*

“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasida ma’muriy ish yuritish ishtirokchilari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ulardan adresat deganda qabul qilinayotgan ma’muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma’muriy harakat o‘ziga qaratilgan shaxs tushuniladi.

“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida manfaatdor shaxs tushunchasi ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning ta’rifiga ko‘ra qabul qilinayotgan ma’muriy hujjat yoki ma’muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma’muriy hujjatga yoki ma’muriy harakatga daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs tushuniladi.

Demak, manfaatdor shaxs adresatga ko‘ra keng bo‘lib, u nafaqat adresatni balki uchinchi shaxslarni ham qamrab oladi. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasiga binoan uchinchi shaxslar deganda huquqlari va qonuniy manfaatlariiga ma’muriy hujjat yoki ma’muriy harakat daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsga aytildi.



*13-sxema*

Buni quyidagi kazus orqali tushuntirish mumkin.

2017-yil 26-oktyabr` kuni Toshkent shahar Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastro bo'limi tomonidan fuqaro F.Latipovaga doir ma'muriy ish yuzasidan ma'muriy hujjat qabul qilingan.

F.Latipova ko'p kvartirali uyda joylashgan turar joyini rekonstruksiya qilingan turar joyga nisbatan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun murojaat qilgan.Biroq, Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastro bo'limi F.Latipovaning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatdan o'tkazishni rad etgan.

F.Latipovaning qo'shnisi fuqaro V.Muxtorova ma'muriy ishni ko'rib chiqishda ishtirok etishini so'rab murojaat qildi.

Xo'sh, bu vaziyatda adresat kim? Bu vaziyatda adresat ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxs, ya'ni fuqaro F.Latipovadir. Fuqaro V.Muxtorova esa uchinchi shaxsdir. F.Latipova va V.Muxtorova birgalikda manfaatdor shaxslar hisoblanadilar.

Ammo ma'muriy hujjat adresat hisoblanmish fuqaro F.Latipovaga xabar berilgandan boshlab kuchga kiradi. Sababi aynan u yuqorida ta'kidlanganidek ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxsdir.

- ***Manfaatdor shaxsning arizasiga qanday talablar qo'yilgan?***

Ma'muriy organga beriladigan arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan ma'muriy organning nomi;
- 2) arizachi – jismoni shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi, agar arizachi yuridik shaxs bo'lsa – uning nomi va joylashgan eri (pochta manzili), shuningdek agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va manzili;
- 3) arizachining talabi;
- 4) arizaga ilova qilinadigan hujjatlarning ro'yxati (agar bunday hujjatlar mavjud bo'lsa);
- 5) ariza berilgan sana.

Ariza arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo‘lsa, unga ishonchnomaning yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatning ko‘chirma nusxasi ilova qilinishi kerak. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab berilgan arizada ushbu moddada ko‘rsatilgan ma’lumotlardan tashqari o‘z manfaati himoya qilinayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), uning manzili (pochta manzili) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa axborot ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlarga nisbatan qonun hujjatlarida boshqa talablar ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Ma’muriy organ arizachidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan axborotni yoki hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga, shuningdek arizaga va unga ilova qilingan hujjatlarga nisbatan talablar qo‘yishga haqli emas. Elektron shaklda beriladigan arizalarda arizachining elektron manzili hamda yagona identifikatori, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa elektron raqamli imzo va boshqa rekvizitlar ko‘rsatilishi kerak. Arizada elektron manzilning ko‘rsatilganligi arizachining xabarlarni axborot tizimi orqali qabul qilishga bo‘lgan roziligidir.

Jismoniy va yuridik shaxslar arizalarni og‘zaki shaklda berishga ham haqli, bundan qonun hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlangan hollar mustasno.

Ma’muriy organga kelib tushgan ariza o‘sha kunning o‘zida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Ma’muriy organ arizachiga ariza ro‘yxatdan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat (belgi) berishi, ariza elektron shaklda berilgan taqdirda esa, ariza ro‘yxatdan o‘tkazilganligini ma’muriy organning rasmiy veb-saytidagi elektron xabar bilan, tegishli yozuvga havola bilan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usul bilan tasdiqlashi shart. Ma’muriy

organda arizani ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

● ***Ma'muriy organga ariza berish uchun zarur axborotni taqdim etish tartibi qanday?***

Ma'muriy organga ariza berish uchun zarur bo'lgan axborot ma'muriy organning mansabdor shaxsi yoki axborotni taqdim etish o'z vakolatiga kiritilgan boshqa xodimi tomonidan taqdim etiladi.

Ma'lumotnomda tarzidagi axborot qoida tariqasida:

- arizaning shakliga;
- arizaning mazmuniga;
- ariza berish uchun zarur hujjatlar ro'yxatiga;
- arizaning shakli va mazmuniga doir talablarni buzish oqibatlariiga;
- hujjatlarni qabul qilish va berish vaqtiga;
- arizani ko'rib chiqish muddatlari va tartibiga;
- ma'muriy va protsessual hujjatlar hamda harakatlar ustidan shikoyat qilish tartibiga oid masalalar yuzasidan taqdim etiladi.

Ma'muriy organ arizalar namunalaridan va ma'muriy ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan xizmat varaqalaridan (blankalardan), shuningdek ularni to'ldirish, shu jumladan ma'muriy organning rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali to'ldirish bo'yicha yo'riqnomalardan foydalanishni ta'minlashi shart.

Ma'muriy organ arizachiga qonun hujjatlariga muvofiq zarur yordam ko'rsatishi shart.

● ***Arizachi tomonidan xatolarni bartaraf etish va etishmayotgan hujjatlarni taqdim etish tartibi qanday?***

Agar arizada to'g'irlash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ularni to'g'rilash uchun arizachiga imkoniyat va muddat beradi.

Agar arizaga doir ilovada qonun hujjatlariga binoan talab qilinadigan yoki arizachi havola qilayotgan hujjatlar mavjud bo'lmasa, ularsiz ma'muriy hujjatni qabul qilish

imkonи bo‘lмаган тақдирда, ма’мур ий орган аризачига етишмайотган һуҗатларни тақдим етish имкониятини, бунинг учун муддат белгилаган holda берishi kerak.

Xatolarni bartaraf etish va etishmayotgan һуҗатларни тақдим етish учун ма’мур ий орган томонидан белгиланадиган муддат, agar qонун һуҗатларida бoshqacha qоida nazarda тутилмаган bo‘lsa, besh ish kunidan kam bo‘lmasligi lozim. Ma’мур ий орган аризачining iltimosnomasiga binoan ushbu муддатни besh ish kunidan kam bo‘lмаган муддатга uzaytirishi kerak.

Ma’мур ий ish yuritish муддатининг o‘tishi xatolarni bartaraf etish va etishmayotgan һуҗатларни тақдим етish vaqtida to‘xtatib turiladi.

#### **● *Ma’мур ишни ма’мур ий орган мажлисида ко‘rib chiqish tartibi qanday?***

Qонун һуҗатларida nazarda тутилган hollarda ма’мур ий ма’мур ий орган мажлисида (бундан buyон matnda мажлис deb yuritiladi) ko‘rib chiqilishi lozim.

Ma’мур ий ма’мур ий organning tashabbusi bilan yoki manfaatdor shaxsning iltimosnomasi bo‘yicha ham мажлисида ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ma’мур ишни мажлиса ко‘rib chiqish chog‘ida majburiy tartibda bayonнома yuritiladi.

Mажлис bayonномаси ма’мур ишни ko‘rib chiqishning barcha muhim holatlarini aks ettirishi kerak. Mажлис bayonномасида, xususan, quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 1) мажлисning sanasi va joyi;
- 2) мажлис boshlangan va tugagan vaqt, мажлисдаги tanaffuslar haqidagi ma’lumotlar;
- 3) ма’мур ий organning nomi, ма’мур ий орган mansabдор shaxsining familiyasi, ismi, otasining ismi yoki ма’мур ишни ko‘rib chiqayotgan kollegial organning tarkibi va мажлис kotibi;
- 4) adresat – jismoni shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning yashash joyi, agar adresat yuridik

shaxs bo'lsa – uning nomi va joylashgan eri (pochta manzili), agar ish yuritishda vakil ishtirok etayotgan bo'lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi) va uning manzili, shuningdek ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;

5) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelganligi haqidagi ma'lumotlar;

6) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilish va ularning majlisiga kelmaganligi sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarga ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntirib berilganligi haqidagi ma'lumotlar;

8) ma'muriy organ mansabdor shaxsining yoki ma'muriy ishni ko'rib chiqayotgan kollegial organ raislik qiluvchisining ushbu ishni ko'rib chiqish jarayonida qabul qilinadigan protsessual hujjatlari;

9) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning arizalari va iltimosnomalari hamda ularni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

10) taqdim etilgan dalillar, ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari va hokazo haqidagi ma'lumotlar;

11) ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning tushuntirishlari, guvoohlarning ko'rsatuvlari, ekspertlarning o'z xulosalari yuzasidan og'zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning fikrlari, yozma va ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish ma'lumotlari.

Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslar o'zлari muhim deb hisoblaydigan holatlarni majlis bayonnomasiga kiritish xususida iltimos qilishga haqli.

Ma'muriy ish yakka tartibda ko'rib chiqilganda majlis bayonnomasi ma'muriy organning ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxsi va majlis kotibi tomonidan imzolanadi. Ma'muriy ish kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilgan

taqdirda bayonnomma raislik qiluvchi va majlis kotibi tomonidan imzolanadi.

Quyidagilar ma'muriy ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirish asoslari hisoblanadi:

– tegishli tarzda xabardor qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan manfaatdor shaxslardan birining majlisga kelmaganligi;

– ma'muriy organning ma'muriy ishni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsini rad qilish haqidagi arizaning qanoatlantirilganligi yoki uning yo'qligi;

– ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi, ma'muriy ishni o'zlarisiz ko'rib chiqish mumkin bo'lmagan manfaatdor shaxslarning majlisda hozir bo'lmaganligi;

– majlisning vaqt va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan manfaatdor shaxslarning ma'muriy organ tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra kelmaganligi.

Agar ma'muriy organ majlisga kelmaganlik sabablarini uzsiz deb topsa yoki ma'muriy ishni ko'rib chiqishni manfaatdor shaxs qasddan cho'zayapti deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lsa, ma'muriy organ ma'muriy ishni tegishli tarzda xabardor qilingan manfaatdor shaxsning yo'qligida ko'rib chiqishga haqli.

Manfaatdor shaxslar ma'muriy ishni ular yo'qligida ko'rib chiqish xususida iltimos qilishga haqli.

Ma'muriy organ ma'muriy ishni ko'rib chiqishni keyinga qoldirib, keyingi majlisning vaqt va joyini tayinlaydi, bu haqda hozir bo'lgan shaxslarga tilxat olib e'lon qiladi. Majlisga kelmagan hamda ma'muriy ishni ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun yangidan jalb qilinadigan shaxslar keyingi majlisning vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilinadi.

Ma'muriy ishni ko'rib chiqish ma'muriy organning mansabdor shaxsi tomonidan, ma'muriy ish kollegial organda ko'rilib qilayotganda esa, raislik qiluvchi tomonidan ochiladi. Shundan so'ng ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarining og'zaki tushuntirishlari eshitiladi.

Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari bir-biriga savollar berishi mumkin.

Shundan keyin ma'muriy organ ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitishga va boshqa dalillarni tekshirishga o'tadi.

Ma'muriy ish yuritish ishtirokchilarining, shuningdek ma'muriy ishni hal qilishga ko'maklashuvchi shaxslarning yozma tushuntirishlari majlisda o'qib eshittirilishi kerak.

Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etuvchi manfaatdor shaxslarning iltimosnomalari ma'muriy ish yuritishning boshqa ishtirokchilari eshitilganidan so'ng ko'rib chiqiladi. Ma'muriy organning mansabдор shaxsi yoki kollegial organ ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ma'muriy hujjat qabul qiladi. Ma'muriy hujjatni qabul qilish boshqa organlar va mansabдор shaxslarning ko'rib chiqish natijalari asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunday ko'rib chiqish ushbu Qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

## MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **1-topshiriq**

Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi 72-uyda yashovchi fuqarolarning ayrimlari "dom" oldidagi maydonda yangi ko'p qavatli uy qurilayotganidan noroziligini bildirishdi. Mazkur norozilik 5 yildan buyon davom etayotgani, quruvchilar tomonidan qurilish ishlari noqonuniy amalga oshirilayotgani, bolalar maydonchasi o'rnidan uy qurish mumkin emasligi, bu mikrorayon o'z vaqtida barcha narsa hisobga olinib barpo etilganini aytishdi. Qurilish ishlarini olib borayotgan "Nurli kelajak ishonch servis" MChJ vakili B. A. va ish boshqaruvchisi Shavkat Aslamovlarning ma'lum qilishicha, mazkur 10 sotixcha er qurilish ishlarini olib borayotgan shaxslarga bir paytlar

110 kvadrat metr maydonga ega do‘konlari buzilgani evaziga tovon tariqasida berilgan. Bu shahar hokimi qarorida ham o‘z aksini topgan. Qo‘sni “dom”lardagi aholining aksariyati qurilishdan roziligi, MChJ tomonidan mahalla hududi asfaltlanib, obodonlashtirib berilishini ta’kidlab o‘tishdi. Aholi vakillari qurilish ishlari sobiq shahar hokimi F. R. tomonidan ikki bor to‘xtatilgani, avvalgi hokimning er ajratish to‘g‘risidagi qarori bekor qilinganini ham aytib berishdi. Biroq, qurilish ishlarini olib borayotgan “Nurli kelajak ishonch servis” korxonasi mas’uli B. A. sud orqali 2015 yilda qurilish boshlashga ruxsat berilgan shaharning avvalgi hokimi Akbar Shukurov tomonidan imzolangan qaror tiklanganini aytib o‘tdi. O‘sha qaror bo‘yicha dastlabki loyiha-qurilish hujjatlari bajarilgan. Loyihaga ko‘ra 62-, 64-, 66- va 68-domlarga yana bittadan podyezd qurishga ruxsat berilgan. Barcha hisob-kitoblar va chizmalar shu loyiha bo‘yicha qilingan. Biroq bugunga kelib, aholi noroziliklaridan so‘ng loyiha o‘zgartirilgan. Endi avvaldan mavjud “dom”larga taqab emas, 3 podyezdli ikkita dom alohida quriladi va ulardan biri hozirgi bolalar maydonchasi o‘rnida qad rostlaydi. Bu quruvchilar qo‘lidagi bosh reja bo‘yicha va qazilayotgan kotlovan ana shu yangi quriladigan domlarning birinchisini. Eski loyiha bo‘yicha barcha hujjatlar qilingan. Biroq quruvchilar aholi noroziligidan so‘ng yangi reja bo‘yicha qilingan loyihani ko‘rsata olishmadidi. Ya’ni, qurilish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha Nurobod tuman ma’muriy sudi tomonidan qayta tiklangan qaror bor, lekin loyiha-qurilish hujjatlari va tegishli organlardan ruxsat yo‘q.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

**Vaziyatni O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tahlil qiling.**

## **2-topshiriq**

Fuqaro Xakimov Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) orqali ishlab chiqarish korxonasi uchun bino qurishga ruxsat berishini so‘rab Toshkent shahar Davlat arxitektura va qurilish boshqarmasiga murojaat qildi. Fuqaro Boshqarma tomonidan bino qurilish loyihaning ekspertizasi Tabiatni muhofaza qilish boshqarmasidan belgilangan tartibda kelishilmaganligi hamda boshqa zarur hujjatlar taqdim etilmaganligi sababli, qurilish ishlarini olib borishga ruxsat berilmaganligi to‘g‘risida javob xatini oldi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

## **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Ma’muriy ish yuritish tushunchasini tahlil qiling.
2. Ma’muriy ish yuritish ishtirokchilarini tahlil qiling.
3. Ma’muriy ish yuritishni ma’muriy organ majlisida o’tkazish tartibini yoritib bering.

## **IX BOB. MA'MURIY HUJJAT**

### **• Ma'muriy hujjat nima?**

Hayotimizda juda ko'plab ma'muriy hujjatlarga duch kelamiz. Misol uchun, erdan doimiy foydalanish to'g'risidagi xokim qarori, litsenziya berish to'g'risidagi qaror va boshqalar. Huquqshunos ma'muriy hujjatlarni bilmasdan turib, mukammal kasb egasi bo'la olmaydi. Siz sudyu bo'lsangiz ma'muriy hujjatni haqiqiy emasligini aniqlash uchun, prokuror bo'lsangiz ma'muriy hujjatni qonun asosida qabul qilinganligi bilish uchun va advokat bo'lsangiz mijozingiz huquqlarini himoya qilish uchun ma'muriy hujjatga qo'yilgan talablarni bilish muhim ahamiyatga egadir.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning eng asosiy qismi ma'muriy hujjatlarni qabul qilish, bekor qilish, o'zgartirish, haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq normalar tashkil etadi. Mazkur qonunning 4-moddasida "ma'muriy hujjat" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

***Yodda tuting!***

**Ma'muriy hujjat – ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy**

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ma'muriy hujjatlarni ma'muriy harakatlar va protsessual hujjatlardan farqlash kerak. Ma'muriy harakatlar deganda ma'muriy organning jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida amalga oshirilgan, yuridik ahamiyatga ega harakatlari (harakatsizligi) tushuniladi.

Protsessual hujjat esa ma'muriy organ tomonidan ma'muriy ish yuritish davomida qabul qilinadigan, ma'muriy ishni mazmunan hal etmaydigan hujjatdir. Buning ma'nosi shuki, protsessual hujjatlar ma'muriy hujjat qabul qilinmasdan avval ma'muriy ishni ko'rib chiqish jarayonida qabul qilinadi. Protsessual hujjat ishni tugal shaklda hal qilib bermaydi. Masalan, litsenziya talab etiladigan faoliyat bilan shug'ullanish uchun tegishli ma'muriy organning qarori talab etiladi. Qaror ma'muriy hujjat bo'lsa, qaror qabul qilingungacha bo'lган bosqichda ishni ko'rib chiqish bilan bog'liq masalalar bilan bog'liq qabul qilinadigan hujjat protsessual hujjat hisoblanadi.

Ma'muriy hujjat tushunchasini tahlil qilishda quyidagi muammoli vaziyatni ko'rib chiqsak.

**Muammoli  
vaziyat**

Yer tuzish va ko'chmas mulk davlat kadastr korxonasi shahar bo'limining ma'lumotnomasiga ko'ra Huvaydo ko'chasi, 166-uy manzilida joylashgan do'kon va sex binosiga mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderi va oldi-sotdi shartnomasiga asosan fuqaro Q.Qo'ldoshev nomiga kadastr xizmatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda shahar hokimining qaroriga asosan mazkur binolarning amalda egallab turgan 450 kvadrat metr maydoni doimiy foydalanish uchun biriktirilib, yerdan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat akti berilgan. 2017-yil 3-oktabrda Buxoro shahar hokimining qarori asosida fuqaro Q.Qo'ldoshevgaga tegishli bol'gan bino-inshootlarni buzish lozimligi ko'satilgan. Fuqaro binoni buzdirish to'g'risida shahar hokimining qarori qabul qilinganidan 2017-yil noyabr oyida habar topgan. Fuqaro Q.Qo'ldoshev xokim qarori qonunda belgilanmagan muddatda unga xabar qilinmaganligi uchun ma'muriy sudga shikoyat qilgan.

Yuqoridagi muammoli vaziyatda quyidagilar ma'muriy hujjat hisoblanadi:

1. mulkiy huquqni tasdiqlovchi davlat orderi;
2. erdan doimiy foydalanish to‘g‘risidagi shahar hokimining qarori;
3. erdan doimiy foydalanish huquqini davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risidagi guvohnoma;
4. erdan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat akti;
5. bino-inshootlarni buzish to‘g‘risidagi shahar hokimining qarori.

*Xo‘sish, nima uchun yuqoridagilar ma’muriy hujjat hisoblanadi?* Buni biz ma’muriy hujjatning o‘ziga xos xususiyatlaridan aniqlash orqali bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. Ma’muriy hujjatning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ma’muriy hujjat ma’muriy organ tomonidan qabul qilinadi;
2. Ma’muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlardan chambarchas bog‘liq;
3. Ma’muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi yoki tugatadi;
4. Ma’muriy hujjat muayyan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud bir qancha shaxslardan iborat jamoaga qaratiladi;
5. Ma’muriy hujjat muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Ma’muriy hujjat va ma’muriy organlar o‘zarobiriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. Organlar, tashkilotlar hamda maxsus tuzilgan komissiyalarni ma’muriy organ sifatida baholash uchun ularda aynan ma’muriy hujjatni qabul qilish vakolati mavjud bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, davlat organlari va muassasalarini ma’muriy organ sifatida e’tirof etish uchun ular jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat xizmatlarini

ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarga kirishishi va buning natijasi sifatida ma'muriy hujjatni qabul qilishi kerak.

Ma'muriy organlar tushunchasi 2018-yilga qadar ma'muriy huquqqa doir qonunchilikda mavjud bo'lman. Ushbu atama "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda alohida ajratib ko'rsatildi. Bunga qadar esa ma'muriy huquqiy munosabatlarda bir tarafda albatta davlat boshqaruvi organining ishtirok etishi aytib o'tilar edi. Davlat boshqaruvi organlari esa ijro hokimiyatiga mansub, faoliyati qonunosti xarakteriga ega hamda ijro va farmoyish berish faoliyati, ya'ni davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlarining tizimidir. Bular O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, inspeksiyalar va markazlar, shuningdek mahalliy ijro hokimiyati organlarini qamrab oladi.

Ma'muriy hujjat ommaviy huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Bu degani ma'muriy organlar va xususiy shaxslar o'rtaida turli mazmundagi shartnomalar ham tuzilishi mumkin. Masalan, bironta ma'muriy organ bilan bironta yuridik shaxs o'rtaida xo'jalik mahsulotlarini etkazib berish bo'yicha shartnomaga tuzilsa, bu munosabatni ommaviy huquqiy munosabat deb bo'lmaydi. Bu holatda ma'muriy organ yuridik shaxs bilan teng subyekt sifatida fuqaroviylar-huquqiy munosabatga kirishadi.

Ma'muriy hujjatlarni qabul qilish bilan bog'liq munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi. Unda taraflar o'zaro teng emas. Buning sababi ma'muriy organ va xususiy shaxs ma'muriy hujjatni qabul qilishda shartnomaga tuzishdagi singari bir-biriga shartlar qo'ya olmaydi. Ammo, ma'muriy organ va uning mansabdor shaxslari ishni mazmunan qonun talablari doirasida hal etishlari kerak.

Ma'muriy hujjat yuqorida ta'kidlangani singari ommaviy huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Masalan, litsenziya berish haqidagi ma'muriy hujjatning

qabul qilinishi ma'muriy organlarning xususiy shaxslar faoliyatida litsenziya talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq munosabatni vujudga keltiradi.

Ayrim ma'muriy hujjatlar ommaviy huquqiy munosabatlarni o'zgartiradi. Bunga misol qilib ma'muriy organning fuqaroni uning arizasiga ko'ra nogironlik pensiyasidan yoshga doir pensiyaga o'tkazish to'g'risidagi qarorini keltirish mumkin.

Ayrim ma'muriy hujjatlar esa ommaviy huquqiy munosabatlarni bekor qiladi. Masalan, ma'muriy organning xususiy shaxsning litsenzisini bekor qilishga qaratilgan ma'muriy hujjati litsenziya talab etiladigan faoliyat bilan shug'ullanishni to'xtatishga olib keladi.

● *Ma'muriy hujjat va normativ-huquqiy hujjat o'rtaida qanday farq bor?*

Shu o'rinda qayd etish lozimki, ma'muriy hujjat va normativ-huquqiy hujjatni bir-biridan farqlash lozim. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat ushbu Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir<sup>1</sup>.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarin-ning qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon-  
lari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining  
qarorlari;

---

<sup>1</sup> Qonunhujjatlarima'lumotlarimilliybazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018 y.

– vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Ularning asosiy farqi shundaki, normativ-huquqiy hujjat yakka shaxsga qaratilmaydi. U umummajburiy xususiyatga egadir. Bu ma’muriy hujjat qaratilgan bir qancha jismoniy yoki yuridik shaxslardan iborat guruh bilan ayni bir narsa degani emas.


Ma’muriy hujjatda jismoniy yoki yuridik shaxs ko‘rsatib o‘tiladi. Ya’ni, unda jismoniy shaxsning ismi va sharifi, yashash manzili va boshqa shu kabi qo‘sishma ma’lumotlar keltiriladi. Yuridik shaxs bo‘lsa, uning firma nomi, uning joylashgan manzili va shu kabi qo‘sishma ma’lumotlar qayd etib o‘tiladi. Bir qancha jismoniy yoki yuridik shaxslardan iborat guruh qaratilgan ma’muriy hujjatda ular haqida batafsil ma’lumot bo‘limasligi mumkin. Ammo ma’muriy hujjatning mazmunidan u qaysi guruhdagi shaxslarga tegishli ekani yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, mahalliy hokimiyat organi tomonidan davlat dasturiga binoan muayyan hududda qurilish ishlari olib borilishi munosabati bilan eski uy-joylarni buzish to‘g‘risidagi qarori ma’muriy hujjatdir. Unda qaysi hududdagi uy-joylar buzilishi aniq ko‘rsatib o‘tiladi. Garchand unda uy-joy tegishli bo‘lgan fuqarolar sanab o‘tilmasa-da, qarorning mazmunidan hududda joylashgan eski uy-joy egalari nazarda tutiladi. Ma’muriy hujjat aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning huquqlariga daxldordir.

Normativ-huquqiy hujjatda esa bunday emas. Ma’muriy hujjat huquqni qo‘llash hujjati bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjat qonun hujjatidir. Ma’muriy hujjat normativ-huquqiy hujjatlarga zid bo‘lishi mumkin emas.

#### ● **Ma’muriy hujjatning shakli va mazmuni qanday bo‘ladi?**

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 52-moddasiga binoan u

yozma shaklda qabul qilinadi. Ushbu moddaning ayni shu qismida ta'kidlanishicha, qonun hujjatlarida ma'muriy hujjat boshqa shaklda, shu jumladan boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan qabul qilinishi mumkinligi hollari nazarda tutilishi mumkin.



14-sxema

Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishining fuqarolar uchun bir qator afzalliklar tug'diradi. Buni quyidagilar bilan asoslash mumkin.

1. Ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilingani fuqarolarga engillik tug'diradi. Bunda, fuqaro har qanday holatda unga ma'muriy hujjatda ko'rsatilgan ta'sir chorasining mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Ya'ni, ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilingani tufayli fuqaro xohlagan vaqtida unga murojaat etishi mumkin bo'ladi.

2. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi orqali, eng avvalo, ma'muriy organning qarori aniq ifodalananadi. Qaror shunchaki yozib qo'yilmaydi. Balki, asoslantirib beriladi.

3. Ma'muriy hujjatni yozma tarzda qabul qilish jarayonida ma'muriy organ mansabdar shaxsi uning mazmuniga jiddiy e'tibor qaratishiga to'g'ri keladi. Buning boisi shundaki, ma'muriy hujjatning mazmuni fuqaroga tushunarli bo'lishi lozim.

4. Ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi ma'muriy organning mansabdar shaxsi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yozma qabul qilingan ma'muriy hujjatdan norozi bo'lgan fuqaro uning ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat bilan murojaat etgan taqdirda, noqonuniy tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjat ishni ko'rib chiqish jarayonida dalil bo'lib xizmat qiladi. Yozma tarzda qabul qilingan ma'muriy hujjatda ma'muriy organning qarori mustahkamlab qo'yiladi. Uni har xil talqin etishning imkonи esa kamayadi.

5. Ma'muriy hujjatlarning qonuniyligini isbotlab berish majburiyati fuqarolar zimmasida emas, balki ma'muriy organ mansabdar shaxsi zimmasidadir. Agar barcha ma'muriy hujjatlar yozma emas, og'zaki tarzda qabul qilinganda edi, bunday ma'muriy hujjatlar noqonuniy tarzda qabul qilingan bo'lsa ham ma'muriy organ mansabdar shaxsi tomonidan uning qonuniyligini isbotlab berish oson kechar edi. Bu esa ma'muriy organ va uning mansabdar shaxsiga qaraganda kuchsiz taraf hisoblanmish fuqaro uchun katta zarar keltirishi mumkin edi.

Ta'kidlash joizki, ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilinishi ma'muriy organlar uchun qo'shimcha ish yoki ular ishining ko'payishiga sabab bo'ladigan holat bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo qonun talabi shunday. Bu bejiz emas. Qonun ma'muriy hujjatning yozma tarzda qabul qilinishi fuqaroga yuqorida keltirilgan ijobjiy jihatlarini hisobga olayotgan bo'lsa ajab emas.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ma'muriy hujjatlar nafaqat mazmun, balki shaklga ham egadir. Ma'muriy hujjatlarning yozma shakli orqali uning mazmuni ro'yobga chiqadi. Umumiy qoidaga

binoan ma'muriy hujjatlar alohida yozma shaklda qabul qilinadi. Buning esa fuqarolar uchun bir qator afzalliklari va ma'muriy organlar va ularning mansabдор shaxslari zimmasiga esa bir qator mas'uliyat yuklaydi.

Boshqa tegishli hujjatni berish orqali ma'muriy hujjatni qabul qilish deyish bilan nima nazarda tutilmoqda? Bunga kundalik hayotimizda quyidagi holatni misol qilib keltirish mumkin. Barcha fuqarolar 16 yoshga to'lganda pasport olish majburiyatiga ega bo'ladilar. tegishli hujjatni berish orqali ma'muriy hujjatni qabul qilishdir. Transport vositasini boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasini berish ham bunga misol bo'la oladi.

Muayyan harakatlarni amalgalashish orqali ma'muriy hujjatni berish yuqorida ta'kidlangani singari qonun hujjatida nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Bunda bironita yozma shakldagi ma'muriy hujjat qabul qilinmaydi. Aksincha, muayyan harakatni bajarish yozma ma'muriy hujjat vazifasini bajaradi.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 52-moddasi ikkinchi qismiga binoan yozma ma'muriy hujjat ma'muriy organning vakolatli mansabдор shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanadi va ma'muriy organning muhri bilan tasdiqlanadi. Demak, yozma ma'muriy hujjatning shaklidagi muhim belgi – bu ma'muriy organning vakolatli mansabдор shaxsi yoki kollegial organ a'zolari tomonidan imzolanishi va ma'muriy organning muhri bilan tasdiqlanishidir. Bu ma'muriy hujjatning qonuniyligini kuchaytiradi. Unga nisbtan ishonchni vujudga keltiradi.

Bunday talab faqat yozma tarzda berilgan ma'muriy hujjatga nisbatan tadbiq etiladi. Boshqa tegishli hujjatni berish yoki muayyan harakatlarni amalgalashish ko'rinishidagima'muriy hujjatlar uchun ma'muriy organning vakolatli mansabдор shaxsi yoki kollegial organ a'zolarining imzosi va ma'muriy organning muhri talab etilmaydi.

*Ma'muriy hujjatlarning mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak?* Ma'muriy hujjatlarning shakliga qo'yilgan talablar bilan bir qatorda ularning mazmuniga ham talablar belgilangan. Ya'ni, ma'muriy hujjatlarning mazmuni quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Qonuniy;
2. Asoslangan;
3. Adolatli;
4. Aniq;
5. Tushunarli.

Ma'muriy hujjatlar har qanday holda ham qonuniy bo'lishi kerak. Ma'muriy hujjatlar arizachining manfaatlarini qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan bo'lsa (nomuvofiq ma'muriy hujjat) ham u qonuniy bo'lishi kerak. Qonuniy bo'lishi kerakligi ma'muriy hujjatlar qonun talabalari doirasida bo'lishi, ya'ni qonun normalariga zid bo'imasligi kerak. Ma'muriy hujjatlar individual holat yuzasidan qabul qilingani bilan uning huquqiy asosi – bu qonun hujjatidir.

Ma'muriy hujjat asoslangan bo'lishi kerak. Ma'muriy hujjatning qaror qismi uning asosiy qismida asoslantirilgan bo'lishi kerak. Bu ayniqsa arizachining manfaatlarini qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan ma'muriy hujjatlar uchun juda muhimdir. Manfaatlari qanoatlantirilishi rad etilgan ma'muriy hujjatda asoslantirish o'ta muhimdir. Bunda fuqaroga nima uchun manfaati qanoatlantirilishi rad etilayotgani ko'rsatib o'tilishi kerak. Arizachi ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismini o'qiganda ma'muriy hujjatda unga nisbatan nima uchun bunday turdag'i ta'sir chorasi qo'llanilayotgani haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Zero, ma'muriy hujjat arizachining huquq va manfaatlariga daxl qiladi.

Ma'muriy hujjat adolatli bo'lishi kerak. Aslida "adolat" so'zi falsafiy tushunchadir. Ma'muriy hujjatning adolatli bo'lishi uchun unda arizachining holati har tomonlama hisobga olinishi va shunga munosib tarzda maqbul qarorning qabul qilinishi kerak bo'ladi. Har qanday

qonuniy hisoblangan narsa adolatli bo‘lmasligi mumkin. Adolatni ta’minalash o‘rni kelganda qonuniylikni ta’milashdan ham qiyinroq bo‘lishi mumkin.

Ma’muriy hujjat aniq bo‘lishi kerak. Ma’muriy hujjatda bayon etilayotgan holatlar ikki xil ma’no keltirib chiqarmaydigan tarzda bayon etilishi kerak. Bundan tashqari, ma’muriy hujjat tushunarli bo‘lishi kerak. Bu esa ma’muriy hujjatdagi holatlarning ifodasidan ma’no kelib chiqishi kerak. Ma’muriy hujjatni o‘qigan fuqaroda uning ma’nosini anglab olishi kerak.

Ma’muriy hujjatning mazmuniga qo‘yilayotgan talablar bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Masalan, qonuniylik, adolatlilik va asoslanganlik bir-biriga bog‘liq bo‘lsa, aniqlik va tushunarllik ham o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

*Ma’muriy hujjatda nimalar ko‘rsatilishi kerak?* Ma’muriy hujjat muayyan ikchi tuzilishga ega. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 53-moddasida ma’muriy hujjatning bir qancha qismlardan tashkil topishi kerak ekani ta’kidlab o‘tiladi. Bular quyidalardir.

1) ma’muriy hujjatning nomi va u qabul qilingan sana. Uning nomi orqali ma’muriy hujjatdagi mazmun anglashiladi. Ya’ni, ma’muriy hujjatning nomini o‘qigan har qanday o‘quvchi u qanday holatga nisbatan qabul qilinganini anglab olishi kerak. Ma’muriy hujjatning sanasi orqali ma’muriy hujjatning qabul qilingan payti aniq ko‘rsatib o‘tiladi.

2) ma’muriy hujjatni qabul qilgan ma’muriy organning nomi va joylashgan eri (pochta manzili). Ma’muriy hujjatda uni qabul qilgan ma’muriy organning nomi, shuningdek ma’muriy organ joylashgan hududning pochta manzili aniq ko‘rsatilishi kerak. Bu ma’muriy hujjatning qaysi ma’muriy organ tomonidan qabul qilinganini bildirib turadi.

3) ma'muriy ish yuritish ishtirokchilari to'g'risidagi axborot. Bunday axborot orqali ishni ko'rib chiqishda kimlar ishtirok etgani aniq bayon etilishi kerak.

4) ma'muriy hujjat orqali hal qilinadigan masalaning tavsifi (tavsif qismi). Ushbu qism ma'muriy hujjatning muhim qismi hisoblanadi. Unda ma'muriy hujjat bilan hal etiladigan masalaning mazmun-mohiyati bayon etiladi.

5) ma'muriy hujjatning asosi (asoslantiruvchi qismi). Asoslantiruvchi qism ma'muriy hujjatning tavsif qism va xulosa qismi o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi. Ya'ni, ko'prik vazifasini bajaradi. Usiz xulosa bo'lishi mumkin emas. Demak, ushbu qismda tavsif qismdan kelib chiqqan holda ma'muriy ish yuzasidan qaror qabul qilinmasdan avval qarorga asos bo'luvchi holatlar tushuntirib o'tiladi.

6) qabul qilingan qaror bayoni (xulosa qismi). Ushbu qism ma'muriy hujjatning eng muhim qismlaridan biridir. Unda arizachining iltimosi (talabi)ni qanoatlantirish yoki rad etish masalasi aniq qilib ko'rsatiladi. Xulosa orqali ma'muriy ish qanday hal etilgani aniq ko'rinish turishi kerak. Xulosaga qarab ma'muriy hujjatni muvofiq, ya'ni arizachining talabini qanoatlantirishga qaratilgan yoki nomuvofiq, ya'ni arizachining talabaini qanoatlantirishni rad etishga qaratilgan ma'muriy hujjatga ajratish mumkin.

7) ma'muriy hujjat ustidan shikoyat qilish muddati va tartibi. Ma'muriy hujjatdan norozi taraf yoki manfaatdor taraf tegishli tartibda shikoyat qilishi mumkin. Ma'muriy hujjatda aynan shikoyat qilishning muddati va tartibi aniq ko'rsatib o'tilishi kerak. Bu fuqarolar uchun ma'muriy hujjatga nisbatan keyingi huquqlarini qanday qilib amalga oshirishlari mumkinligini tushunib etishlariga imkoniyat yaratib beradi. Zero, ma'muriy hujjat fuqaroning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lган hujjatdir.

8) ma'muriy organning ma'muriy hujjatni qabul qilgan mansabdor shaxsning (kollegial organ a'zolarining) lavozimi, ismi va familiyasi. Ma'muriy hujjatda uni qabul qilgan mansabdor shaxsning lavozimi, ismi va familiyasi

ko'rsatib o'tilishi shart. Agar ma'muriy hujjat kollegial organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa, unda kollegial organ a'zolarining lavozimi, ismi va familiyasi keltirib o'tilish kerak.

Yuqoridagi 8 ta bandda keltirilgan talablar ma'muriy hujjatda keltirilishi majburiy bo'lgan qismlardir. Bundan tashqari agar ma'muriy hujjat ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat) asosida qabul qilingan bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

### ***Yodda tuting!***

Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatda quyidagilar ko'rsatib o'tilishi mumkin:  
muayyan huquqning yoki majburiyatning kuchga kirish, o'z kuchini yo'qotish payti yoki amal qilish muddati;  
muayyan hodisaga yoki kelajakda huquqning yoxud majburiyatning kuchga kirishi yoki o'z kuchini yo'qotishi bilan bog'liq bo'lgan shartga doir ko'satma;  
ma'muriy hujjatni bekor qilish huquqi yoki kelgusida qo'shimcha farmoyishlar berish huquqi ma'muriy organda saqlanib qolishi to'g'risidagi izoh;

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, ma'muriy hujjatlar ularning shakli va mazmuni talablariga javob berishi kerak. Ma'muriy hujjatlarda shakl va mazmunning uyg'unligini ta'minlash orqali ularni talab etilgan darajada rasmiylashtirishga erishish mumkin.

#### **• *Ma'muriy hujjat qanday asoslantiriladi?***

Ma'muriy hujjatni qabul qilishda ma'muriy organ har jihatdan e'tiborli bo'lishi kerak. Bunda asosiy e'tibor ma'muriy hujjatni asoslantirishga qaratilishi kerak. Sababi:

1. Qabul qilinayotgan qarorning, eng avvalo, mazmunan kelib chiqish asoslari ko'rsatib o'tilishi kerak;

2. Fuqaro o‘ziga nisbatan qabul qilinayotgan qaror nimaga asoslanilayotganini bilish imkoniga ega bo‘lishi kerak;

3. Yuqori turuvchi organ va sudlar ma’muriy hujjat ustidan keltirib o‘tilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish paytida qarorning asosli ekanini tekshirish maqsadida aynan asoslantiruvchi qismga e’tibor qaratadilar;

4. Asoslantirish orqali qaror qabul qilishga asos bo‘luvchi sabablar ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu sabablar aniq bayon etilishi lozim. Agar qarorda fuqaroning talabi qanoatlantirilishi rad etilsa, rad etilish sabablari aniq bayon etilishi hamda mazkur sabablar qonun hujjati normalari bilan bog‘langan bo‘lishi lozim.

***Yodda tuting!***

Ma’muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida qabul qilingan ma’muriy hujjatning barcha haqiqiy va yuridik asoslari keltirilishi kerak.

Haqiqiy asoslar deganda ishdagi faktik asoslar tushuniladi. Har bir ma’muriy ishda faktlar har xil bo‘ladi. Arizachi ma’muriy organga murojaat etganda uning ishi bilan tanishgan ma’muriy organ mansabdor shaxsi yoki kollegial organ a’zolari faktlarni har tomonilama muhokama qilishlari lozim bo‘ladi.

Shuningdek, asoslantirishda faktlardan tashqari ular bilan bog‘liq huquqiy asoslar, ya’ni tegishli qonun hujjatlari normalari ham keltirib o‘tilishi lozim.

Ma’muriy hujjat muayyan ma’muriy ishni ko‘rib hal etishning oxirgi bosqichida qabul qilinadi. Ungacha bo‘lgan bosqichda esa arizachining murojaatida keltirilgan talablar bilan tanishib chiqishi hamda ishdagi ishtirokchilar fikrlarini eshitishi lozim. Undan kelib chiqadigan faktlarni tahlil etib, ularni aniqlashtirish maqsadida dalillarni tekshirishi hamda ularni ishga qo‘shib qo‘yishi va ular bilan ish yuritish

ishtirokchilari tanishib chiqishlari uchun imkon yaratib berishi kerak.

Demak, agar faktlar yuzasidan dalillar tekshirilmagan yoki tekshirilgan bo'lsa-da, ular ma'muriy ish yuritish jarayonida ma'muriy ishga qo'shib qo'yilmagan yoxud ular ma'muriy ish yuritish ishtirokchilariga tanishish imkoniyati berilmagan bo'lsa, ma'muriy hujjatni asoslantirish jarayonida bunday dalillarga tayanish mumkin emas.

- *Ma'muriy hujjatning amal qilishini tugatish, uni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish tartibi qanday?*

Ma'muriyhujjatmuayyandavorralig‘idayuridikkuchga egabo‘ladi Ma'muriytartibtaomillarto‘g‘risidagi Qonunningm oddasidama'muriyhujjatningamalqilishinitugatishasoslaribel gilabberilgan Ungako‘rama'muriyhujjatningamalqilishi quyid agihollardatugatiladi

1. garma'muriyhujjatmuddatlixususiyatga  
egabo‘lsama'muriyhujjatningamalqilishmuddatio‘tishi
2. Ma'muriyhujjatningamalqilishinitugatishbilan bog‘l iqshartningyuzagakelishi
3. Ma'muriyhujjatningbekorqilinishi
4. Tartibgasolishpredmetiningbarhamtopishimunosab atibilantugatiladi

garma'muriyhujjatmuddatlixususiyatga  
egabo‘lsama'muriyhujjatningamalqilishmuddatio‘tishima'm  
uriyhujjatningamalqilishitugatiladi Masalan litsenziyayil gaber iladi Ushbumuddatma'muriyhujjatdako‘rsatibqo‘yiladi

Ma'muriyhujjatundabelgilabqo‘yilganshartningvujudg akelishinatijasida amalqilishitugaydi Masalan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O‘zbekiston Respublikasi P rezidenti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasitomoni danyoxud O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilankelishilgan

holdalavozimlargasaylangantayinlangantasdiqlanganfuqarol arshuningdekularningoilaa'zolaririxotinishuningdekularning o'zoilasibo'l maganfarzandlarimazkurfuqarolarlavozim datura digandavrgashuningdek davlatkhokimiyyati organlarigadavlatva xo'jalikboshqaruviorganlarigarespublikaahamiyatigamolikb oshqadavlattashkilotlarigaishgataklif

etilayotganyuqorimalakalimutaxassislar torixtislikdagimuta xassislar tegishli organyokitashkilotrahbariningiltimosnomasi gako'rashuningdekularningoilaa'zolaririxotinishuningdekula rningo'zoilasibo'l maganfarzandlarimazkurfuqarolarlavozim daturadigandavrga Toshkentshahrigadoimiypropiskaqilinadi Doimiypropiskadabo'lishshartibuyuqoridagi organlarvatashki lotlardamehnatfaoliyatini libborishdir

Ma'muriyhujjatningbekorqilishiuchun alohidatalabla rmavjud

Tartibgasolishpredmetiningbarhamtopishimunosabatib ilantugatilishima'muriyhujjatqaratilganijtimoiymunosabatni ngtugashibilan bog'liqdir Masalanagaravtomobilyonibketsaun ingtexnikpasportiningamalqilishihamtugaydi Chunkiteknikpa sportaynanyonibketganavtomobilgategishlidir

Ma'muriyhujjatningamalqilishinitugatishuningasosida berilgan hujjatlaramalqilishiningtugatilishigaolibkeladi Masal anlitsenziyaberishto'g'risidagima'muriyhujjatningamalqilish iningtugashiuningasosidaberilganlitsenziyaguvochnomasining hamamalqilishinitugashigasababbo'ladi

*Ma'muriyhujjatnibekorqilisho'zgartirishyokihaqiqiy emasdebt topish tartibiq andayam algaosh kiraladi*

Ma'muriyhujjatnibekorqilisho'zgartirishyokihaqiqiy emasdebt topish asoslari Ma'muriytartibtaomillarto'g'risidagi Q onunningmoddasidaberib'o'tilgan Ungako'rama'muriyhujjat manfaat dorshaxsningarizasiyokima'muriyshikoyatigako'ram a'muriyhujjatniqabulqilganma'muriyorganyuqorituruvchima

’muriyorgantomonidanshuningdekqonunhujjatlaridanazardat utilganhollardaboshqaorganlartomonidanhambekorqilinishiy okio‘zgartirilishimumkin



*14-sxema*

Demakma’muriyhujjatmanfaatdorshaxslarningarizasig ako‘rayokishikoyatigako‘rabekorqilinadiBundanboshqashax slarunibekorqilishiniso‘rabbmurojaat etolmaydi

Shuningdekma’muriyhujjatiqabulqilganma’muriyorg ano‘ztashabbusigako‘raunibekorqilishyokio‘zgartirishimum kinBuninguchunquyidagilarasosbo‘lishimumkin

1. Qonunhujjatlaridagio‘zgartishlar
2. Jamoatmanfaatlarigabo‘lgantahidningoldiniolish
3. Ma’muriyhujjatningqonunhujjatlariganomuvofiqlig

i

4. Qonundanazardatutilganboshqahollarda Bundantashqariqonunhujjatlaridama’muriyhujjatningf aqatsudtartibidabekorqilinishiyokio‘zgartirishimumkinligih ollarinazardatutilishimumkin

Ma’muriyhujjatqonunhujjatlarigamuvofiq emasdebttopilgantaqdirdauma’muriyorgantomonidanbekorqil inishiyokio‘zgartirilishikerak

Shuni alohida qayd etish kerakki, manfaatdorshaxsningishonchihimoyaqilinishilozimbo‘lganh

ollardama'muriyhujjatnibekorqilishyokio'zgartirishmasalasi  
sudtartibidako'ribchiqiladi

***Yodda tuting!***

Vijdonan harakat qiluvchi manfaatdor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi qonun bilan qo'riqlanadi.

Fuqaro ma'muriy hujjatning qabul qilinishida uning qonuniy ekaniga ishonch bildirgan va ishonchi doirasida vijdonan harakat qilgan hollarda ma'muriy hujjatni bekor qilish va o'zgartirishda uning ishonchi himoya qilinadi. Ya'ni, agar manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning qonuniy kuchiga ishonib, ma'muriy hujjat asosida olingan mol-mulkdan foydalangan, o'z mulkini tasarruf etish uchun bitim tuzgan yoki ma'muriy hujjatda belgilangan naf va imtiyozlardan boshqacha tarzda foydalangan bo'lsa, uning ishonchi himoya qilinishi lozim. Bunda fuqaro olingan mol-mulkdan foydalangan, o'z mulkini tasarruf etish uchun bitim tuzgan yoki ma'muriy hujjatda belgilangan naf va imtiyozlardan boshqacha tarzda foydalangan bo'lsa, ular fuqaroden qaytarib olinmasligi kerak.

Bundabirnarsaga e'tiborqaratishkerakyrimqonundanazardatuilganvaziyatlarda manfaatdorshaxslarningishonchihimoyaqilinmaydiBundayva ziyatlardaquyidagilarkiradi

1. Manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa;
2. Manfaatdor shaxs o'ziga ma'muriy hujjat asosida taqdim etilgan pul mablag'laridan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmagan bo'lsa;
3. Manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning g'ayrihuquqiyagini bilgan yoki o'z aybiga ko'ra bu haqda bilmagan bo'lsa;

4. Ma'muriy hujjat aldash, tahdidlar yoki ma'muriy organga boshqacha tarzda g'ayrihuquqiy ta'sir ko'rsatish oqibatida qabul qilingan bo'lsa;

5. Qonun manfaatdor shaxslar ishonchining himoyasini hisobga olmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilishni talab etsa.

Demakyuqoridagilardantashqaribarchahollardamanfaa ttor shaxslarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchi himoya qilinadi. Ishonchni himoya qilish holatlarida manfaatdorshaxsgama'muriyhujjatningqonuniykuchigaishon ishsabablikelbichiqqanyokimuqarrarbo'lganmulkiyzararning o'rniqoplanadiBumanfaatdorshaxsninghuquqlarinihartomonl amahimoyaqilishgaolibkeladi

Bundaqayd

etishlozimkimulkiyzararningo'rniqopplashma'muriyhujjatni ngmazmunigako'ramanfaatdorshaxsolishikerakbo'lgnannafmi qdoridanoshmasligikerakMulkiyzararningo'rniqoplashto'g 'risidigitalabmanfaatdorshaxsma'muriyhujjatbekorqilinganli gihaqidaxabardorqilinganpaytdan e'tiboranbiryilichidataqdim etilishimumkin

Yuqoridagilardantashqariyanabirnarsanita'kidlashjoiz Manfaatdor shaxsning ishonchidan qat'i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq emas deb topilgan ma'muriy hujjat, agar uning saqlab qolinishi jamoat manfaatlariga tahdid solayotgan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi mumkin. Ya'ni, bunday holda ma'muriy hujjatni bekor qilish va o'zgartirish sud tartibida ko'rib chiqilishi shart emas. Ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organning o'zi uni o'zgartirish yoki bekor qilishga haqli. Biroq, ma'muriy organning qaroridan norozi manfaatdor shaxs sudga shikoyat qilishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilingan ma'muriy hujjat quyidagi hollarda ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin:

1. Qonun talablariga muvofiq yoki bunday imkoniyat bevosita ma'muriy hujjatning o'zida nazarda tutilgan bo'lsa;

2. Agar keyinchalik o‘zgargan haqiqiy holatlar tufayli yoki qonun hujjatlaridagi o‘zgartishlar asosida jamoat manfaatlariga zarar etishining oldini olish maqsadida ma’muriy hujjatni bekor qilish zarur bo‘lsa;

3. Agar ma’muriy hujjat bilan qo‘srimcha majburiyatlar bog‘liq bo‘lsa va manfaatdor shaxs ularni bajarmagan bo‘lsa.

4. Agar manfaatdor shaxs ma’muriy hujjat asosida o‘ziga berilgan pul mablag‘laridan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmayotgan bo‘lsa.

5. Agar ma’muriy hujjatni bekor qilish yoki o‘zgartirish ushbu hujjat yuborilgan manfaatdor shaxs foydasiga amalga oshirilsa va bunda boshqa manfaatdor shaxslarga qiyinchilik tug‘ilmasa.

Xuddi shunday mazmundagi ma’muriy hujjatni takroran qabul qilish uchun boshqa asoslar mavjud bo‘lgan hollarda, ma’muriy hujjatni tegishli asoslarda bekor qilishga yoki o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ilgari qabul qilingan ma’muriy hujjatni bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi ma’muriy hujjatni qabul qilayotganda ma’muriy organ bekor qilinayotgan yoki o‘zgartirilayotgan ma’muriy hujjatning qaysi qismi va qaysi vaqtidan e’tiboran o‘z kuchini yo‘qotishini belgilashi kerak.

Ma’muriy hujjat qonunda belgilangan tartibda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Haqiqiy emas deb topilgan holda, ma’muriy hujjat u qabul qilingan paytdan e’tiboran haqiqiy hisoblanmaydi. Faqatgina sud ma’muriy hujjatni haqiqiy emas deb topishi mumkin.

*Ma’muriyhujjatnibekor qilish qanday tartibdaamalgao shiraladi Ma’muriyhujjatnibekorqilishtartibt aomili Ma’muriytartibtaomillarto‘g‘risidagi Qonunning modd asidatartibgasolinadi Ungako‘rama’ muriyhujjatni manfaatdor shaxsfoydasigabekorqilishmajliso‘tkazmasdan amalgao shirilishi umkin Bundanshunday mantiqiy xulosake libchi qadikiaga rma’ muriyhujjat manfaatdor shaxsfoydasiga emas balkiuning zarariga qabul qilinadigan bo‘lsama’ muriyorga*

ntomonidanmajiso‘tkazmaganholdama’muriyhujjatnibekorqi  
lishmumkin emas

Shunihamalohidaqayd  
etishlozimkiba’zidama’muriyhujjatlarbirmanfaatdorshaxsnin  
gfoydasigaboshqashaxsnningmanfaatiga  
esazidravishdabekorqilinayotganbo‘lsama’muriyorgantomon  
idanmajiso‘tkazmaganholdama’muriyhujjatnibekorqilishmu  
mkin emas

Ma’muriyhujjatbekorqilingantadqirdauningasosidaber  
ilghanhujjatlarbuyumlarvapulmablag‘lariularga  
egalikqilayotganshaxslartomonidanqaytaribberilishilozim

Ma`muriy hujjat-  
ni bekor qilish

Manfaatdor  
shaxsnинг  
manfaatiga zid

Majlis  
o`tkaziladi

Ma`muriy hujjat-  
ni bekor qilish

Manfaatdor  
shaxsnинг  
foydasiga

Majlis  
o`tkazilmaydi

Ma`muriy hujjat-  
ni bekor qilish

Manfaatdor  
shaxsnинг  
foydasiga, boshqa  
shaxsnинг

Majlis  
o`tkaziladi

#### 14-sxema

Yuqoridagilardanshunixulosaqilishmumkinkiqonunfa  
qatginama’muriy hujjatni qabul qilishni emas, balki  
ma’muriy hujjatning amal qilishini tugatish, uni bekor qilish,  
o‘zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish tartibini ham  
belgilab beradi. Ma’muriy hujjat ma’muriy hujjatni qabul  
qilgan ma’muriy organ yuqori turuvchi ma’muriy organ

tomonidan shuningdek  
qonunhujjatlaridanazardatutilganhollardaboshqaorganlartom  
onidanhambekorqilinishiyokio‘zgartirilishimumkinBungama  
nfaatdorshaxsningarizasiyokima’muriyshikoyatiasosbo‘ladi

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN VAZIFALAR**

### **Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

#### **MUAMMOLI VAZIYAT(KAZUS)**

2017-yil Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida yashovchi fuqaro S.Samadovga xizmat davridagi harbiy intizomi, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik davomida erishgan natijalari hamda jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik dasturlarining o’zlashtirilishiga oid yakuniy baholarni aniqlash maqsadida o’tkazilgan test sinovlarining natijalari inobatga olib, harbiy qism komandiri tomonidan ushbu harbiy xizmatchining bevosita komandirlari taqdim etgan taqdimnoma va muddatli harbiy xizmatchilarining umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berishga qaror qabul qilindi. Tavsiyanoma olgan fuqaro S.Samadov Toshkent moliya institutiga topshirishga qaror qildi.

Lekin, 2018-yil may oyida e’tiborsizligi tufayli ushbu tavsiyanomani yo‘qotib qo‘ydi. Fuqaro S.Samadov tavsiyanomani tiklash bo‘yicha Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani mudofaa bo‘limiga murojaat qildi. Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi xodimi N.Fayziev tavsiyanomani tiklash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan S.Samadov sudga shikoyat bilan murojaat qildi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

#### **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Ma’muriy hujjatlар deganda qanday hujjatlarni tushunish kerak?
2. Ma’muriy hujjatlarning o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?

3. Ma'muriy hujjatlarni kimlar qabul qilishi mumkin?
4. Ma'muriy hujjatlar fuqarolarning huquqlariga daxl qilishi mumkinmi? Misollar keltiring.
5. Ma'muriy hujjatlarning yozma tarzda qabul qilinishining qanday ijobiy jihatlari mavjud?
6. Ma'muriy hujjatning shakli va mazmuni o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
7. Ma'muriy hujjatning mazmuniga qanday talablar qo'yilgan?
8. Ma'muriy ixtiyorilikka asoslangan holda qabul qilinadigan ma'muriy hujjat mazmunan boshqa ma'muriy hujjatlardan qanday farqlanadi?
9. rijjqiishiiish tartibi qanday?

## X BOB. MA'MURIY YUSTITSIYA

### ● *Ma'muriy yustitsiya nima?*

Ma'muriy-yustitsiyaviy jarayonda, sud o'zining ommaga doir hokimiyat chorasiini, ma'muriy organ esa o'zining chorasiini amalga oshiradi. Birinchisi ma'muriy nizoda arbitr, so'nggisi esa – o'z harakatlari uchun javob beradigan ma'muriy hokimiyat subyekti sifatida ishtirok etadi.

*Yodda tuting!*

**Ma'muriy yustitsiya davlat organlari va mansabdar shaxslar jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtaida davlat boshqaruvi munosabatlaridan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish tizimidir.**

Bugungi kundagi ma'muriy yustitsiya Frantsiyada XVIII asrning oxirlarida paydo bo'lgan edi. Uning yuzaga kelishida Sh.L.Monteskening mashhur "hokimiyatlar taqsimplanishi nazariyasi" katta rol o'ynagan. Bu g'oya 1799-yilda hokimiyat tepasida Napoleon Bonapart turgan paytda amalga oshirildi, ya'ni odil sudlovning ma'muriy yustitsiya ko'rinishidagi yangi mustaqil tarmog'i tashkil etildi.

### ● *Ma'muriy yustitsiyaning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?*

Ma'muriy yustitsiya quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, ma'muriy yustitsiya orqali boshqaruvi munosabatlaridan kelib chiquvchi ma'muriy-huquqiy nizolar hal qilinadi.

Ikkinchidan, ma'muriy yustitsiyada ma'muriy-huquqiy nizolar sudlov yo'li bilan hal etiladi, ya'ni ma'muriy yustitsiya ma'muriy sudlovni taqozo qiladi.

Uchinchidan, fuqarolarning subyektiv huquqlarini huquqiy himoya qilish ma'muriy yustitsyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Aynan ushbu subyektiv huquqlarning buzilishi fakti ma'muriy yustitsyaning predmeti hisoblanadi.

To'rtinchidan, ma'muriy yustitsiya organlari (ma'muriy sudlar) hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan, ya'ni qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlaridan mustaqil hisoblanadilar.

Beshinchidan, ma'muriy yustitsiya orqali davlat boshqaruvi faoliyati ustidan maxsus sud kontroli o'rnatiladi.

Oltinchidan, ma'muriy yustitsiya uchun maxsus "ma'muriy-yustitsiyaviy" munosabat subyektlarining mavjud bo'lishi xosdir (fuqarolar, davlat boshqaruvi organlari, mansabdar shaxslar va maxsus sud organlari).

Ettinchidan, ma'muriy-huquqiy nizolar taraflarning tengligi ta'minlangan holda shikoyatlarni (yoki da'volarni) ko'rib chiqish asosida protsessual qoidalarga tayanib hal etiladi.

Ishni ko'rib chiqqan vakolatli organ (ma'muriy sud) nizoning predmeti bo'lgan davlat boshqaruvi akti yoki mansabdar shaxsning xatti-harakatini noqonuniy (qonuniy), asossiz (asosli) deb topish to'g'risida qaror qabul qiladi.

- **Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsyaning qanday shakllari mavjud?**


Ma'muriy yustitsyaning quyidagi shakllari mavjud:

1. Ma'muriy yustitsyaning umumiy sudlov shakli. Ushbu tizimning mohiyati shundaki, ijro hokimiyati ustidan sud kontroli umumiy yurisdiktsiya sudlari tomonidan fuqarolik protsessual qoidalari asosida amalga oshiriladi.

2. Ma'muriy yustitsyaning maxsus sudlov shakli. Ushbu tizimda ma'muriy sudlar ijro organlaridan ham, shuningdek sud organlaridan ham mustaqil hisoblanadi. Shuningdek, ushbu organlar davlatning yagona sud tizimiga kiruvchi to'laqonli sud organlari hisoblanadi. Shuningdek

ular maxsus organ hisoblanib, faqat ma'muriy-huquqiy nizolarnigina hal etadi.

3. Ma'muriy yustitsianing kvazi sudlov shakli. Bunday tizimga ko'ra ma'muriy yustitsiya organlari ijro hokimiyati organlari tizimi tarkibida tashkil etiladi va sud organlaridan mustaqil hisoblanadi.



15-sxema

- Bugungi kunda O'zbekistonda ma'muriy sudlar faoliyati qanday huquqiy tartibga solinmoqda?**

Zamonaviy demokratik davlatlarda barchaning qonun oldida tengligi, shaxs manfaatlarining davlat manfaatlariga nisbatan ustuvorligi, davlatning inson va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish majburiyati davlat siyosatining mazmunini belgilab beruvchi asosiy tamoyillardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdar shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi mustahkamlangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov

ta'kidlaganidek: "Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak. Davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilgandagina o'z vazifasini to'g'ri ado etgan hisoblanadi". Mazkur kontseptual g'oyadan kelib chiqib, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda davlat boshqaruvida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratik davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi demokratik-huquqiy rivojining bugungi kundagi asosiy yo'nalishi va tamoyillari negizida avvalo, inson huquqlari va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlari hamda xalqning farovonligi mujassam. Asosiy Qonunimizning 44-moddasiga binoan har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvida inson huquqlarini himoya qilish amaliyotini yanada takomillashtirish yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini davlat organlari, mansabdor shaxslarning noqonuniy aktlari va xatti-harakatlari (harakatsizliklari)dan himoya qilishda ma'muriy yustitsiyani yanada takomillashtirish muhim o'rinni tutadi.

Taraqqiyotning "o'zbek modeli"iga asoslangan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida fuqarolarning huquq va

erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, ularning odil sudlovga erishish darajasini, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish, nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini yanada takomillashtirish sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim yo‘nalishlari sifatida mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim qadam bo‘lib, mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi.

Ayniqsa, Farmonda fuqarolar va tadbirdorlik subyektlarining huuqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta‘minlash maqsadida ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida ma‘muriy sudlarni tashkil etish bo‘yicha belgilangan vazifa bu borada muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimida ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudlov hay‘atini tashkil etish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) ma‘muriy sudlari uchun 262 ta sudyalar shtat birligi ajratilishi belgilandi.

Bugungi kunda ma‘muriy sudlarda ma‘muriy nizolar O‘zbekiston Respublikasining **Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks** asosida ko‘rib chiqilmoqda.

- *Fuqarolik sudlov ish yurituvi bilan ma‘muriy sudlov ish yurituvini qanday farqli jihatlari mavjud?*

Ma‘muriy nizolarni ko‘rib chiqishning fuqarolik protsessidan farqli jihatlariga alohida e’tibor berish lozim.

1. Fuqarolik protsessida tomonlar sifatida ikki xususiy shaxs ishtirok etadi. Ma‘muriy nizoda esa fuqarolik protsessidan farqli ravishda taraflardan biri sifatida mansabdor shaxs (boshqaruv organi) bo‘lib, u ishda xususiy

shaxs emas balki ma'muriy idoraning vakili sifatida ishtirok etadi<sup>1</sup>.

2. Davlat organi yoki mansabdor shaxsning harakati (harakatsizligi) yuzasidan sudga shikoyat bilan murojaat qilgan fuqaro nafaqat da'vogar, balki ham ayblovchi, ham jabrlanuvchi sifatida ishda ishtirok etadi<sup>2</sup>.

3. Fuqarolik protsessida sudning qarori fuqarolik-huquqiy oqibatni keltirib chiqarsa (zararni qoplash, neustoykani undirish), ma'muriy protsessda ish shikoyat predmeti bo'lgan boshqaruv aktini o'zgartirish yoki uni bekor qilish bilan yakunlanadi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Usanov V.E. Institut administrativnoy yustitsii v sisteme administrativnogo prava: Diss....kand. yurid. nauk. – M., 1999. – S. 57.

<sup>2</sup> Starilov Yu.N. Administrativnaya yustitsiya. Problemy teorii. – Voronej, 1998. – S. 97.

<sup>3</sup> Usanov V.E. Institut administrativnoy yustitsii v sisteme administrativnogo prava: Diss....kand. yurid. nauk. – M., 1999. – S. 72.

## **MUSTAQIL TAYYORLANISH UChUN VAZIFALAR**

**Quyidagi muammoli vaziyat(kazus) va nazariy savollarni mavzuga bog'lagan holda tahlil qiling.**

### **MUAMMOLI VAZIYaT(KAZUS)LAR**

#### **1-topshiriq**

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida istiqomot qiluvchi fuqaro M. Yakkasaroy tuman xokimiyatiga ariza bilan murojaat qilib, Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Quruvchilar mavzesi, 4-D uy, 9-xonadonni xususiylashtirib berishni so'ragan, Yakkasaroy tuman xokimiyati uning arizasini ko'rib chiqib 2016-yil 30-sentabrda rad javobi bergen, rad etish uchun sabab qilib, Yakkasaroy tuman xokimligi javob xatida nizoli xonadonni xususiylashtirishda "Shodlik" M.F.Y.ning 19.07.2015 yildagi №3115 sonli ma'lumotnomasi va fuqarolik ishlari bo'yicha Yakkasaroy tumanlararo sudining 21.08.1997 yildagi hal qiluv qarori va kadastr xizmatining 13.09.2016 yildagi №134a-sonli ma'lumotnomasini taqdim qilganligini, ammo xonadonga kirib yashash huquqini beruvchi davlat orderi va uyda yashovchi shaxslarning qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan roziligi taqdim etilmaganligi ro'kach qilingan. Arizachi M. oila a'zolari bilan nizoli xonadonda 1997-yildan beri yashab kelayotganligini bildirib, Yakkasaroy tuman xokimiyati xatti-harakatlarini noqonuniy deb topishni va Yakkasaroy tuman xokimiyati zimmasiga Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Quruvchilar mavzesi, 4-D uy, 9-xonadonni arizachi M. nomiga xususiylashtirish majburiyatini yuklashni so'rab sudga shikoyat qilgan.

**Mazkur holatga huquqiy baho bering.**

#### **2-topshiriq**

Fuqaro L. 2007-yil mart oyidan 2015-yil aprel oyiga qadar ichki ishlar tizimlarida turli lavozimlarda, oxirgi vaqtida Andijon viloyati Asaka tumani Ichki ishlar bo'limi Jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish

bo‘linmasi terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish guruhi tezkor vakili lavozimida xizmat qilgan.

Andijon viloyati IIB 2015-yil 20-apreldagi №18 sh/t sonli buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarida xizmatni o‘tash haqidagi muvaqqat Nizom”ning 69-moddasiga asosan ishdan bo‘shatilgan.

Shundan keyin u O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga Ichki ishlar idoralariga qayta qabul qilishda amaliy yordam berishni so‘rab ariza bilan murojaat qilgan. Uning murojaatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi IIV Shaxsiy tarkib bilan ishslash xizmati boshlig‘i birinchi o‘rinnbosari tomonidan 2017-yil 17-noyabrdagi 3/Sh-58 sonli javob xati bilan uni ichki ishlar idoralari xizmatiga qayta qabul qilish maqsadga muvofiq emas deb topilgan. Shundan so‘ng arizachi L. ma’muriy sudga shikoyat qildi.

**Mazkur holatga huquqiy baho bering.**

### **NAZARIY SAVOLLAR**

1. Ma’muriy yustitsiya tushunchasini amaliy misollar asosida tushuntirib bering.
2. Ma’muriy nizolarni hal etishning qonunchilik asosini tahlil qiling.
3. Xorijiy mamlakatlarda ma’muriy yustitsiyaning qanday shakllari mavjud?

## **SEMINAR MASHG‘ULOTINI OLIB BORISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR**

Kazus (muammoli vaziyat)ni guruh tarzida ishslash muhim ahamiyatga egadir. Quyida **odatdagi kazuslarni og‘zaki muhokama qilish usulidan** ancha farq qiluvchi, talabalarni oraliq va yakuniy nazoratga tizimli tayyorlashga yordam beradigan usul tavsiya etiladi. Ushbu tizim orqali talaba kazusni tizimli tahlil qilish bilan bir qatorda yozish ko‘nikmasini ham oshiradi. Shuningdek, muammoli vaziyat asosida o‘zaro tortishuvchanlik qobiliyati shakllanadi.

Ushbu o‘qitish uslubini amalga oshirish uchun **quyidagi jadval** ishlab chiqilgan bo‘lib, jadvalni to‘ldirish uchun tegishli talablar ham belgilab o‘tilgan.

### **Seminar mashg‘uloti uchun topshiriq**

Samarqand shahar Sartepa maskanida yashovchi bir guruh fuqarolar ko‘p qavatli uylarning oldidagi qurilishdan norozi bo‘lishdi. Quruvchi tashkilot taqdim etgan hujjatda (Samarqand shahar hokimi qarori) qurilishni Sartepa maskanidagi 180-uy va MTM o‘rtasida boshlashga ruxsat berilgan. Qurilish esa 180-uy emas, 18-“A” uy biqinida boshlangan edi. Dorixona qurilishi olib borilayotgan mazkur er ko‘p qavatli uyda yashovchilarining ma’raka marosimlarini o’tkazadigan bo‘sh joy bo‘lgan. Daraxtlar soya qilib turgan bu erdan ko‘p qavatli uylarda yashaydigan oilalar farzandlari bolalar maydonchasi sifatida foydalanishgan. Murojaatchilar quruvchidan nega ruxsat berilmagan erga qurilish qilayotgani haqida so‘rashganida, ular hokim qarorini 12 kun ichida o‘zgartirib kelishlarini iddao qilishgan..

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

**1. Mazkur kazusning Ma’muriy huquqqa aloqador jihatlarini tahlil qiling:**

**2. Kazusdagi huquqiy muammolar doirasini belgilang:**

**3. Kazusga tegishli huquqiy asoslarni tahlil qiling:**

**4. O‘z xulosangizni shakllantiring:**

Ushbu jadval 4 guruhga tarqatib chiqiladi.

Talabalar ushbu jadvalda belgilagan talablarni belgilangan vaqt (kazus murakkabligiga qarab o‘qituvchi vaqtini o‘zi mustaqil belgilaydi) davomida to‘ldirib chiqadilar. To‘ldirilgan jadval guruhlар o‘rtasida o‘zarо almashtirib chiqiladi. O‘qituvchi tomonidan jadvalda yozilgan javoblar faqat tanqidiy ruhda (javobning huquqiy va gramatik asoslarini ko‘rib chiqish) tekshirib chiqish lozimligi alohida ta’kidlanadi.

Xatolar ko‘rib chiqilgandan so‘ng muhokama boshlanadi. Muhokama qilishda birinchi guruh ikkinchi guruh tomonidan keskin tanqid qilinadi. Ikkinchi guruh esa

o‘z pozitsiyasini himoya qilishi lozim bo‘ladi. Muhokama jadvaldagi talablar ketma ketligi asosida bo‘ladi.

Dars so‘ngida o‘qituvchi vaziyatga o‘z munosabatini bildirib, yakun yasaydi.

## **KAZUS (MUAMMOLI VAZIYAT)NI TAHLIL QILISh BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

**“Ma’muriy huquq va protsess” moduli bo‘yicha kazus (muammoli vaziyat)larni tahlil qilishda quyidagi tartibotga amal qilish tavsiya etiladi:**

### **1. Mazkur kazusning Ma’muriy huquqqa aloqador jihatlarini tahlil qiling:**

Talaba mazkur qismni bayon qilishda kazusning ma’muriy-huquqiy munosabat doirasidagi holat ekanligini asoslab berishi lozim bo‘ladi. Bu orqali talabada fan predmetini muayyan vaziyat doirasida tahlil qilish qobiliyati shakllanadi.

### **2. Kazusdagi huquqiy muammolar doirasini belgilang:**

Talaba mazkur qismni bayon qilishda tegishli huquqni qo’llash jarayonidagi nomuvofiqliklarni aniqlaydi va ularning doirasini belgilaydi. Jumladan, ushbu qismni quyidagi tartibda bayon qilishi mumkin bo‘ladi: “*Berilgan kazusda tegishli qonun hujjatlarining qo’llanilishi borasidagi quyidagi muammolarni ajratib ko’rsatish mumkin: Birinchidan,... Ikkinchidan,....*”

### **3. Kazusuga tegishli huquqiy asoslarni tahlil qiling:**

Talaba mazkur qismni aniqlangan huquqiy muammolar doirasidan kelib chiqib, kazusga bevosita aloqador bo‘lgan qonun hujjatlarining tegishli normalarini vaziyatga bog‘lab tahlil qilishi lozim. Ushbu qismda talaba qonun hujjatlari normalarining qo’llanishi xususida o‘zining mustaqil fikrini shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **4. O‘z xulosangizni shakllantiring:**

Talaba mazkur qismni bayon qilishda kazusga yakuniy huquqiy echimni shakllantirishi lozim. Xulosa qismida bevosita kazusga bog‘liq fikrlar aniq va lo‘nda tarzda bayon etilishi zarur. Buni quyidagi tartibda bayon qilish mumkin: *Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, ushbu*

vaziyatda A. shaxs yoki davlat organi X qonunning X normasiga ko'ra...harakat qilishi kerak edi. Demak, ushbu vaziyatda A. shaxs (yoki davlat organi) harakati noqonuniy (yoki qonuniy).

**Izoh.** Topshiriqning bunday uslubiy yondashuv asosida bajarilishi talabaning har bir mavzuni mukammal o'zlashtirishiga hamda oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlar ustida ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **KAZUSNING YECHIMI BO'YICHA NAMUNAVIY JAVOB**

### **Mustaqil ish uchun vazifa**

2013-yil Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida yashovchi fuqaro S.Samadovga xizmat davridagi harbiy intizomi, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik davomida erishgan natijalari hamda jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik dasturlarining o‘zlashtirilishiga oid yakuniy baholarni aniqlash maqsadida o’tkazilgan test sinovlarining natijalari inobatga olib, harbiy qism komandiri tomonidan ushbu harbiy xizmatchining bevosita komandirlari taqdim etgan taqdimnoma va muddatli harbiy xizmatchilarning umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berishga qaror qabul qilindi. Tavsiyanoma olgan fuqaro S.Samadov Toshkent moliya institutiga topshirishga qaror qildi. Lekin, 2014-yil may oyida e’tiborsizligi tufayli ushbu tavsiyanomani yo‘qotib qo‘ydi. Fuqaro S.Samadov tavsiyanomani tiklash bo‘yicha Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani mudofaa bo‘limiga murojaat qildi. Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi xodimi N.Fayziev tavsiyanomani tiklash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan S.Samadov sudga shikoyat bilan murojaat qildi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

### **NAMUNAVIY EChIM**

Yuqorida bizga berilgan masalada harbiy xizmatchining imtiyoz olish tartib-taomili O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmatining “Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston Respublikasi

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida belgilangan. Unga ko‘ra ma’muriy protsess boshqaruv kontseptsiyasining tashqi boshqaruv ya’ni huquqni qo‘llash protsessi asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, “Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi” Nizomning 1-bandiga muvofiq tavsiyanomalar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlikda yuqori natijalarga erishgan, zarur bilim darajasiga va na’munali harbiy intizomga ega munosib harbiy xizmatchilarga harbiy qism komandirlari tomonidan beriladi<sup>1</sup>. Mazkur nizomning 3-bandiga ko‘ra muddatli harbiy xizmatchiga tavsiyanoma berish to‘g‘risidagi qaror harbiy qism komandiri tomonidan ushbu harbiy xizmatchining bevosita komandirlari taqdim etgan taqdimona va muddatli harbiy xizmatchilarning umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorga asosan qabul qilinadi. Bunda, muddatli harbiy xizmatchining xizmat davridagi harbiy intizomi, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik davomida erishgan natijalari hamda muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik dasturlarining o‘zlashtirilishiga oid yakuniy baholarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan test sinovlarining natijalari inobatga olinadi.

Yuqoridagi masalada tavsiyanoma olgan fuqaro S.Samadov Toshkent moliya institutiga topshirishga qaror qildi. Lekin, 2014-yil may oyida e’tiborsizligi tufayli ushbu tavsiyanomani yo‘qotib qo‘ydi. Fuqaro S.Samadov tavsiyanomani tiklash bo‘yicha Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani mudofaa bo‘limiga murojaat qildi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining 2012 yil 23 oktyabrdagi 11, 33, 113-sonli qaroriga ilova

Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi xodimi N.Fayziev tavsiyanomani tiklash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan S.Samadov sudga shikoyat bilan murojaat qildi. Bu yustition kontseptsiya hisoblanadi. Aslida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi fuqaroning murojaatini O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” Qonunining 18-moddasiga muvofiq davlat organiga kelib tushgan murojaatlar shu organ tomonidan yoki uning murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha majburiyatlar zimmasiga yuklatilgan mansabdon shaxsi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘zining vakolat doirasiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi. Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun asossiz ravishda boshqa davlat organlariga o‘tkazish yoxud qarorlari yoki harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan organlarga yoki mansabdon shaxslarga yuborish ta‘qilanganadi.

Ushbu holda Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi xodimi N.Fayziev tavsiyanomani tiklash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Lekin “Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi” NIZOMning 14-bandining 4-qismiga ko‘ra yo‘qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan tavsiyanomaning o‘rniga uning egasining arizasiga ko‘ra harbiy qism komandirining buyrug‘i bilan dublikat beriladi. Tavsiyanoma egasi uning yo‘qolganligi haqida davriy matbuotda e’lon berishi va e’lon nusxasini harbiy qismga

taqdim etishi kerak<sup>1</sup>. Ya’ni fuqaro bevosita o’zi tomonidan muddatli harbiy xizmatni o’tagan harbiy qismga ariza bilan murojaat qilishi lozim edi. Lekin u Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limiga murojaat qildi. O‘z navbatida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mudofaa bo‘limi xodimi N.Fayziev “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” Qonunining 18-moddasiga muvofiq belgilangan muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga murojaat qilishi lozimligini aytadi. Natijada fuqaro S.Samadov tegishlicha tuman fuqarolik sudiga ya’ni o’zi doimiy yashaydigan tuman ma’muriy sudga shikoyat qiladi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga asosan, fuqaro o‘zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo‘ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdar shaxsga murojaat qilishga haqli. Bo‘ysunuv tartibidagi yuqori organ va mansabdar shaxslar shikoyatni bir oy muddat ichida ko‘rib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatiga rad javobi berilsa yoki u shikoyat bergen kunidan e’tiboran bir oy ichida javob olmasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud tomonidan fuqaroning murojaati ko‘rib chiqilib hal qiluv qarori qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi masalani huquqiy tahlil etgan holda quyidagicha echimga kelishimiz mumkin:

**Birinchidan**, fuqaro Samadov “Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risidagi” NIZOMning 14-bandining 4-qismiga ko‘ra harbiy qismga ariza bilan murojaat qilishi lozim edi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining 2012 yil 23 oktyabrdagi 11, 33, 113-sonli qaroriga ilova

**Ikkinchidan,** O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” Qonunining 18-moddasiga muvofiq davlat organi xodimi murojaatni tegishli organga ya’ni harbiy qismga yuborishi va bu haqda fuqaroni xabardor etishi lozim edi.

**Uchinchidan,** ma’muriy sud shikoyatning asosli ekanligini aniqlasa, shikoyatga sabab bo‘lgan xatti-harakatni (qarorni) g‘ayriqonuniy deb hisoblab, fuqaroning talabini qondirish lozim deb topadi. Uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini boshqa yo‘llar bilan qayta tiklaydi. Agar shikoyat bilan murojaat qilgan shaxsning murojati asossiz bo‘lsa, uning talabi qondirilmaydi. Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin o‘n kundan kechiktirmay tegishli organ yoki mansabdor shaxsga, va fuqaroga yuboriladi.

## “MA’MURIY HUQUQ VA PROTSESS” MODULI BO‘YICHA KAZUS (MUAMMOLI VAZIYAT)LAR TO‘PLAMI

### **1-masala**

2013-yilning yozida Toshkent shahri Olmazor tumanida yashovchi fuqaro B.Komilov o‘ziga qarashli er uchastkasida olti xonadan iborat turar joy binosi qurdi. Oradan o‘n yil o‘tgach fuqaro Komilov K.ning hovlisi joylashgan hududdan avtomobil magistral yo‘li qurish loyihasi davlat dasturiga kiritildi.

Mazkur holat bo‘yicha hokimiyat vakili fuqaro B.Komilovga qarashli er o‘rniga boshqa er berilishini, uyjoy qurish uchun esa mablag‘ berilmasligini ta’kidlab o‘tdi. Sababi fuqaro B.Komilovning turar joyi qonunchilik talablariga javob bermasligini aytib, asos qilib Uy-joy kodeksining 9-modda (*Fuqarolarning doimiy yashashiga mo‘ljallangan, belgilangan sanitariya, yong‘inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar*) sifatida foydalanishga mo‘ljallangan joylar turar joy deb hisoblanadi)sini keltirib o‘tdi. Ya’ni uning turar joyi belgilangan sanitariya talablarga javob bermasligini ko‘rsatib o‘tdi. Fuqaro B.Komilov turar joyida sanitariya talablarini yomonligini bir qancha sabablarini aytib o‘tdi:

Birinchidan, uning ko‘chasiga asfalt yotqizilmaganligi.

Ikkinchidan, kanalizatsiya tizimi ishdan chiqqanligi.

Uchinchidan, uyiga yaqin joyda sochiq ishlab chiqaruvchi zavod borligi.

O‘z navbatida. fuqaro B.Komilov O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 20-moddasiga ko‘ra, tuman hokimi aholini oqilonqa joylashtirish, muhandislik,

transportga oid va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish masalalarini hal etishga majbur ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Tuman hokimiyati turar joy binosi ichida sanitariya talablarini bajarish fuqaro tomonidan shaxsan bajarilishini, tashqi ta'sirlarning bunga aloqasi yo'qligini ta'kidlab o'tdi. Bundan norozi bo'lgan fuqaro B.Komilov sudga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

***2-masala***

2015-yil may oyida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rahbariyati Janubiy Koreyaning Inxa universiteti bilan o'zaro hamkorlik doirasida ushbu universitetning professori Janubiy Koreya fuqarosi Min Songni Toshkent axborot texnologiyalari universitetida olti oy mobaynida ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishga jalb etdi. TATU rektori professorni Toshkent shahrida turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish masalalariga shaxsan o'zi mas'ul ekanligini ta'kidlab, ichki ishlar organiga bormaslikni ta'kidlab o'tdi.

Professor Min Song O'zbekistonga kelib Toshkent axborot texnologiyalari universitetida pedagogik faoliyatini boshlagandan bir oy o'tgach, Andijon davlat universiteti rahbariyatidan ham universitetda ma'ruza o'qish bo'yicha taklif tushdi. Professor Min Song bunga rozi bo'lib haftani har seshanba kuni Andijonga borishni rejalashtirdi.

2015-yilning 15-avgust kuni Toshkentdan Andijonga o'zining O'zbekistonda sotib olgan mashinasida yo'lga chiqdi. Professor Min Song ichki bojxona postidan o'tayotganda "pasport nazorati" amalga oshirildi. Tekshiruv natijasida Min Song tomonidan pasport tizimi qonunchiligi buzilgani va O'zbekiston Respublikasi hududida ruxsatnomasiz mehnat faoliyatini amalga oshirilganligi aniqlandi. Professor ushbu masalada TATU rektoriga murojaat qilishi lozimligini aytib o'tdi. Lekin, professorning bu talabi inobatga olinmadi va uni ish beruvchi mablag'lari

hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan chiqarib yuborish talabi qo‘yildi. Bundan norozi bo‘lgan professor Min Song sudga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**3-masala**

2014-yil 20-mart kuni fuqaro K.Rashidov pensiya yoshiga etgani munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Andijon viloyati Shahrixon tuman bo‘limiga murojaat qildi. Bo‘lim xodimi fuqaro K.Rashidovga olib kelishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatini taqdim qildi. Lekin, hujjatlar ro‘yxati ichida fuqaro K.Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilot hozirda o‘z faoliyatini tugatganligi uchun ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani topishning iloji bo‘lmasligini ijtimoiy ta’minot bo‘limi xodimiga aytib o‘tdi. Bo‘lim xodimi u holda fuqaro K.Rashidovning arxivga borishini ta’kidlab o‘tdi. Arxivga borganda arxiv idorasini yangi binoga ko‘chib o‘tganligi uchun, ko‘chish jarayonida fuqaro K.Rashidov 1990–1995-yillarda ishlagan tashkilotga tegishli hujjatlar yo‘qolganligini aytib, bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga murojaat qilishi lozimligini aytib o‘tdi.

2014-yilning 25-mart kuni fuqaro K.Rashidov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligiga elektron murojaat qildi. 2014-yilning 30-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi fuqaro K.Rashidovga javob yo‘llab, ushbu masala “O‘zarxiv” agentligi vakolatiga kirmasligini, “boshqa organ”ga murojaat qilish lozimligini ko‘rsatib o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan fuqaro sudga shikoyat qildi. Fuqaro o‘z shikoyatida bir qancha asoslarni ko‘rsatib o‘tdi.

Birinchidan, agentlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi (“O‘zarxiv” agentligi) to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, respublika davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarning saqlanishini ta’minlash uchun javobgar ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Ikkinchidan, agentlik arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablarini bajarmayotganligini ta’kidlab o‘tadi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**4-masala**

2015-yilning sentabr oyida Toshkent shahridagi nodavlat “Profi Education” o‘quv markazi ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha Buyuk Britaniya fuqarosi Raymond Murphy ni yuqori malakali kadr sifatida o‘n oy muddatga ishga jalb qildi. “Profi Education” o‘quv markazi rahbari Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligidan fuqaro Raymond Murphyni O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar va mehnat faoliyati huquqiga egalik tasdiqnomalarini oldi.

2015-yilning dekabr oyida Fuqaro Raymond Murphy “Platon” nodavlat o‘quv markazida ham mehnat faoliyatini olib bora boshladi. Bundan xabar topgan Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi mazkur holatni qonunchilik talablarini qo‘pol ravishda buzish deb topib ruxsatnomalar Agentlik qaroriga ko‘ra bekor qilindi.

Bundan norozi bo‘lgan “Platon” nodavlat o‘quv markazi boshlig‘i sudga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**5-masala**

2019-yil 20-mart kuni Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining tadbirdor Q.Toshpo‘latovaga buzilgan dorixonada o‘rniga “Kattaming” mahallasi hududidan 150,0 kv.metr er-

tanlash va ajratish haqida №1296-Q-sonli qarori chiqqan. Ammo tanlanayotgan er bo'yicha hokimlik va tadbirkor kelishuvga erisholmagan. Tuman hokimi qarori asosida "Kattaming" mahallasi hududidan tadbirkorga er tanlandi. Ammo keyinchalik bu er maydoni boshqa maqsadlar uchun ajratilgani ma'lum bo'ldi. Shundan keyin tadbirkorning o'zi istiqomat qiladigan "Mo'minxo'ja" mahallasidan er ajratishga qaror qildik. Bu erdag'i "Mahalla markazi"da qator binolar joylashgan. To'yxona, tibbiyot muassasasi, mahalla guzari va hokazo. Shu binolar qatoridan er ajratyapmiz, ammo tadbirkor e'tiroz bildiryapti. Ma'lum bo'lishicha, tadbirkor uchun noqulay bo'lgan hududlardan er ajratilgan. Er ko'cha tomondan oldiga boshqa binolar tushgan. Bu erdan tadbirkor dorixona qurganda ham binolar ortidan ko'zga tashlanmaydi. Tadbirkor aynan shuning uchun e'tiroz bildirmoqda va boshqa hududdan er ajratilishini so'ramoqda.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering**

#### **6-masala**

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida yashovchi A. Qozog'istonagi Kostanay gumanitar institutining "Qozoq tili va adabiyoti" mutaxassisligini tugatgan. Ayni paytda O'zbekistonda yashayotganligi bois diplomining tan olinishi uchun 2019-yil yanvar-mart oylarida Yangiqo'rg'on tumanı davlat xizmatlari markazi orqali Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga uch marta ariza topshirgan. Arizachining takidlashicha, uch marta test topshiriqlariga qatnashgan, birinchi va ikkinchi marta imtihondan o'ta olmagan, oxirgi martada "O'zbekiston tarixi" fanidan test topshiriqlarini va suhabatni ijobjiy topshirdi. Shundan so'ng endi diplom tan olinishi mumkinligi haqida aytildi. Biroq keyinroq "Siz o'qigan muddat diplomingiz tan olinishi uchun etarli emas", deyishdi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi xodimi Nizomjon Ishanqulov unga imtihon uchun to'lagan pullarini qaytarib berilishini, Xalq bankining tuman filiali

orgali pulimni olishi kerakligini aytgandi. Biroq pulni ham qaytarib ololmadi. A.ning e'tiroziga sabab bo'layotgan asosiy narsa – u imtihon topshirish uchun kerakli miqdorda pul to'lagani, Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan (bir emas, uch marta) imtihonga chaqirilgani va imtihonlarni topshirgani, lekin yakunda ta'limning muddati bilan bog'liq muammo aniqlangani tufayli diplom berilmagani bo'lmoqda.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

**Vaziyatni O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tahlil qiling**

### **7-masala**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tarkibidagi Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasida boshqarma boshlig'i o'rribosari sifatida ishlab kelayotgan B.Anvarov o'z qo'l ostidagi katta maslahatchi lavozimida ishlab kelayotgan O. Olimovni dam olish kunlari ham bir necha marotaba ishga jalgilgan.

Bundan norozi bo'lgan O.Olimov yuqori turuvchi mansabdor shaxsga shikoyat bilan murojaat qilib B.Anvarovning xatti-harakatlardan norozi ekanlini bildirdi. U o'z shikoyatida B.Anvarovning xotini tomonidan qarindosh bo'lgan ya'ni rafiqasining ukasi B.Botirovning iltimosiga ko'ra ushbu lavozimni egallaganligini qayd etib o'tdi. Shuningdek, shikoyatda u B.Botirov ushbu boshqarmada etakchi maslatchi lavozimida ishlab kelayotgani va ular o'rtasida ish bilan bog'liq nizo kelib chiqqanligi sababli B.Botirov boshqarma boshlig'i B.Anvarovdan uni dam olish kunlari ham ishga jalgilishini so'raganini ko'rsatib o'tdi. Bundan tashqari O.Olimov o'z shikoyatida davlat xizmatida qarindosh-urug'larning davlat korxonalari va organlarida biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunuvchi yoki uning nazorati ostida xizmat qilishi mumkin emasligini ham aytib o'tgan. Shuningdek, dam olish

kunlari ishga jalb qilishga alohida hollarda jamoa shartnomasida agar u tuzilmagan bo‘lsa, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishilgan asoslar bo‘yicha va tartibda yo‘l qo‘yilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tdi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**8-masala**

2012-yil 16-martda Toshkent yuridik kolleji direktori A.Pardaevga O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan 2-darajali adliya maslahatchisi martaba darajasi berildi. 2016-yil 11-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri vazifasini bajaruvchi shaxs A.Olimov o‘z lavozimidan ozod etildi. 2016-yil 14-martda O‘zbekiston Respublikasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri etib tayinlangan A.Samadov O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2012-yil 16-martdagи martaba darajasi berish to‘g‘risidagi buyrug‘iga e’tiroz bildirdi va uni bekor qilishni talab qildi. E’tirozga asos qilib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha maktab, akademik letsiy, kollej va oliy o‘quv yurtlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga bo‘ysunishi lozimligini hamda ularning rahbarlariga unvon yoki martaba berish uning vakolati ekanligini sabab qilib ko‘rsatdi. 2016-yil 17-martda esa O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri martaba darajasi to‘g‘risidagi qarorni o‘zgartirganlini va bunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining e’tirozi sabab bo‘lmaganligini bildirdi.

Fuqaro Saidov Oliy ta’lim muassasiga (keyingi o‘rinlarda OTM) abiturient sifatida tegishli hujjatlarni topshirdi. Kirish imtihonlaridan o‘tolmagan abiturient keyinchalik hujjatlarni qaytarib olish uchun Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) orqali hujjatlarini qaytarib berishni so‘rab OTMga murojaat qildi.

Ammo oradan 2 oy o'tsada hujjat topshirgan OTMdan murojaat bo'yicha javob berilmadi.

Shundan so'ng, fuqaro OTMga og'zaki murojaat qildi. OTM mas'ul xodimi Toshev hech qanday elektron murojaat olmaganligini, agar shunday murojaat qilinganida ham hujjatni shaxsan o'zi kelib pasportini ko'rsatgan holda olishi lozimligini aytди. Agar fuqaro shaxsan kelmasa hujjatlar berilmasligini ma'lum qildi.

Bundan norozi bo'lgan fuqaro Saidov O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**9-masala**

2014-yil Toshkent shahri Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro A.Karimov va fuqaro H.Azimovlar tadbirkorlik faoliyatida o'z omadlarini sinab ko'rish maqsadida kitob sotish do'kon ochish taklifi bilan yoshlikdan birga mакtabda o'qigan sinfdoshi fuqaro N.Murodovga taklif bildirishadi. Fuqaro N.Murodov esa ayni vaqtida, Toshkent viloyatida bo'lim prokurori sifatida faoliyat yuritar edi. Toshkent viloyati bo'lim prokurori N.Murodov ga bu taklif ma'qul keladi va ular birgalikda "Kitoblar dunyosi" MChJni tashkil etishadi. Bo'lim prokurori lavozimida ishlovchi fuqaro N.Murodov ishdan bo'sh bo'lgan vaqtlarida o'z sinfdoshlari fuqaro A.Karimov va fuqaro H.Azimovlarga birgalikda tashkil etgan "Kitoblar dunyosi" MChJga tashkiliy-huquqiy masalalarda yordam berib kelardi va buning evaziga muayyan haq olib kelardi. Bundan xabar topgan Prokuratura organlari ichki xavfsizlik inspeksiyasi bo'lim prokurori N.Murodovni mansab vazifasini o'tash davrida "Kitoblar dunyosi" MChJni tashkil etganlikda hamda kitoblarni oldi-sotdisi orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlikda ayblab, unga nisbatan intizomiy chora qo'llash haqida yuqori turuvchi prokurorga taqdimnoma kiritdi.

## ***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

### **10-masala**

Ichki ishlar organi xodimi Z.To'rakulov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlige 5 yil muddatga umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylandi navbatdagi saylovlarda u etarli ovoz to'play olmadi va deputatlikka saylanmadi.

Ichki ishlar organi xodimi Z.To'rakulov Toshkent shahridagi ish bilan ta'minlashlarini so'rab bandlikka ko'maklashish markaziga va o'zining avvalgi ish joyiga murojaat qilganida unga mazkur ish (lavozim)da boshqa xodim faoliyat yuritayotganligini aytib ish berishni rad etishdi.

Bundan norozi bo'ilgan Z.To'rakulov "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonunning 9-modda (davlat organlaridagi yoki xodimlarning vakillik organlaridagi saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga saylab qo'yiladigan lavozimdagi vakolatlari tugagandan keyin avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmasa, avvalgisiga teng ish (lavozim) beriladi)siga ko'ra uni ish ta'minlashga majbur ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Bandlikka ko'maklashish markazi xodimi esa Z.To'rakulovning hozirgi holati Ichki ishlar organi xodimi bo'lishga noloyiq ekanligi, ya'ni siyosiy partiyaga mansubligi va deputatlik faoliyati davrida sog'lig'i yomonlashganini ta'kidlab o'tadi.

## ***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

### **11-masala**

"K" MFY raisi G.G. boshchiligidagi nafaqa tayinlash komissiyasining 2017-yil 15-apreldagi 5-sonli qarori bilan yashash sharoiti yuqori degan asos bo'yicha fuqaro D.D.ga 2017-yil 2-yanvarda tug'ilgan bolasi A.A.

ikki yoshga to‘lgunga qadar bola parvarishi bo‘yicha nafaqa tayinlash rad etilgan va bu haqda 2017-yil 26-apreldagi 55-sonli xat orqali unga xabar berilgan. Bundan norozi bo‘lgan D.D. sudga ariza bilan murojaat qilib, javobgar “K” MFY raisi (oqsoqoli)ning D.D.ga bolaga ikki yoshgacha nafaqa tayinlash haqidagi talabni rad etishda ifodalangan xatti-harakatlarini qonunga xilof deb topishni, uning zimmasiga nafaqa tayinlash majburiyatini yuklashni so‘ragan. Shahar ma’muriy sudining hal qiluv qarori bilan arz qilingan talabni qanoatlantirish rad qilingan.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering**

**Vaziyatni O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tahlil qiling**

### **12-masala**

2014-yil fuqaro A.Niyazov Toshkent davlat yuridik universitetiga o‘qishga kirish uchun tegishli hujjatlarni topshirdi. Uning o‘rtog‘i B.Rustamov A.Niyazovning otasi qonun hujjatlariga muvofiq xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan Ichki ishlar organi xodimi bo‘lganligini, bunday xodimlarning farzandlariga istalgan o‘qishga imtihonsiz kirish imtiyozi mavjudligini aytib maslahat berdi. A.Niyazov o‘zining bu kabi huquqi borligida foydalanib, Toshkent davlat yuridik universitetiga imtihonsiz qabul qilishlarini talab qildi. Biroq Toshkent davlat yuridik universiteti ma’muriyati mazkur talabni rad etdi. Barcha fuqarolar tegishli imtihondan o‘tganidan so‘ngina talabalikka qabul qilinishlarini tushuntirishdi.

### **Mazkur holatga huquqiy baho bering.**

### **13-masala**

Toshkent shahrida joylashgan Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy-harbiy texnika bilim yurtida professor-o‘qituvchi lavozimlarini egallab turgan va ilmiy darajaga ega bo‘lgan boshliqlar tarkibidagi S.Namozov

belgilangan chegaradagi yoshga to‘lgan xodim sifatida zaxiraga yoki iste’foga chiqishi lozim bo‘lsada, u ishlab turib pensiya olish huquqidan foydalanish fikrini bildirdi. Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy-harbiy texnika bilim yurti kadrlari agar ishlab turib mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, ish haqi tarkibida va pensiya miqdorida o‘zgarishlar bo‘lishi (ish haqining yarmi va pensiyaning yarmi saqlanishi) to‘g‘risida ogohlantirdi. S.Namozov o‘zining professor ekanligini va shu erda ancha yildan beri xizmat qilayotganligini aytib kadrlar bo‘limiga e’tiroz bildirdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

#### **14-masala**

2016-yilning dekabr oyida Qo‘qon shahri soliq inpeksiyasi inspektori F.Salimov MDH davlatlar o‘rtasida o‘tkazilgan Xalqaro soliq simpoziumida 1000 AQSh dollar miqdorida mukofot oldi. F.Salimov O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelgach, Qo‘qon shahar soliq inpeksiyasi boshlig‘i K.Naimov ushbu mukofot davlat byudjetiga o‘tkazilishi hamda ushbu mukofotni berishi kerakligini ma’lum qildi. F.Salimov esa boshlig‘ining harakatidan norozi bo‘lib, yuqori turuvchi organga murojaat qildi. O‘tkazilgan tadbirda yuqori turuvchi organ tomonidan 800 AQSh dollar pul mukofotini byudjet daromadiga o‘tkazib yuborildi. Qo‘qon soliq inpeksiyasi boshlig‘i K.Naimovga nisbatan qattiq xayfsan e’lon qilindi. 200 AQSh dollar olgan F.Salimov qolgan mukofotini olish maqsadida Qo‘qon shahar prokuraturasiga murojaat qildi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

#### **15-masala**

Fuqaro S. o‘zi yashab turgan Chilonzor tuman Sharq ko‘chasi, 8-uy,  
12-xonadonda turgan joyi bo‘yicha vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tish maqsadida rasmiylashtirish ishlari uchun dastlab turar

joyning yoxud uning bir qismining ijara shartnomasining notarial tasdiqlangan nusxasi zarurligini bilgan holda ijara shartnomasi uchun mazkur hudud pasport ishlarni yuritish bo'yicha xodimga "17-shakl" ma'lumotnomasini olish murojaat qildi. Pasport ishlarni yuritish bo'yicha xodim "17-shakl" ma'lumotnomasini to'ldirib berdi va tasdiqlatish uchun muhrni XUMSh (xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati) xodimida ekanligini aytdi.

Fuqaro S. "17-shakl" ma'lumotnomasini tasdiqlatish uchun XUMSh xodimiga murojaat qilgan vaqtida XUMSh xodimi fuqaro S.ga Chilonzor tuman Sharq ko'chasi, 8-uy, 12-xonadonning communal to'lovlardan qarzdorligi borligi uchun muhr bosib bermasligini bildirdi. Mazkur holatdan norozi bo'lgan fuqaro S. qarzdorligi bor xonadonlarga ma'lumotnomani tasdiqlab bermaslikning huquqiy asosini so'raganida XUMSh xodimi yuqorida shunday topshiriq berilganligi va XUMSh xodimi Chilonzor tuman Sharq ko'chasi, 12-xonodon, 8-uy joylashgan mahalla fuqarolari yig'ini va XUMSh ning o'zaro kelishgan holda tasdiqlangan hujjatini ko'rsatib asoslaydi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

## **16-masala**

2017-yil 11-dekabr kuni fuqaro D.Alimov bojxona chegarasi orqali o'tayotganda bojxona xizmati leytenant N.Rustamov uni ko'zdan kechirib, fuqaroden pasportini talab qildi. Ammo, fuqaro D.Alimov bunga qat'iy e'tiroz bildirdi. Leytenant N.Rustamov fuqaro D.Alimovga uning e'tirozi qabul qilinmasligini aytdi.

D.Alimov o'zining qonunan haq ekanini aytib, bunga u davlat bojxona organlarining mansabdon shaxslari shaxsni ko'zdan kechirishga haqli emasligini, ular faqatgina bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlarni ko'zdan kechirishga haqli ekanliklarini aytdi va o'z navbatida fuqaroden pasportini talab qilishga haqqi yo'qligini ta'kidlab o'tdi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar

organlari to‘g“risida” gi qonunning 17-moddasiga ko‘ra, ichki ishlar organlari xodimlarigina o‘z xizmat majburiyatlarini amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish vakolatiga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

### **17-masala**

Toshkent shahri Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro A.Botirov tuman hokimiga 2016-yilning 2-avgustida o‘zi yashaydigan turar joyga tutash bo‘lgan hududda avtomobilarni yuvish joyi qurish va ushbu joyda avtomobilarni yuvish uchun suvni er ostidan quduq qazish orqali olish maqsadida er ajratishni so‘rab yozma tarzda murojaat qildi. Tuman hokimiyati xodimi bu masalada Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga murojaat qilishi lozimligini ta’kidlab o‘tib, asos sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g“risida”gi Qonunning 5-modda(*tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish tadbirdarini o‘tkazish hamda respublika ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, yirik avariylar va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish yuzasidan choralar ko‘radi*)simi keltirib o‘tdi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

### **18-masala**

2016-yilning dekabr oyida Andijon viloyati Baliqchi tumanida yashovchi muhandis S.Malikov korxona tugallanganligi munosabati bilan ishdan bo‘shatilgan. Ikki oy davomida u ishga joylashishga harakat qilgan, ammo natijasi bo‘lmasan.

2017-yilning fevral oyida tuman Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy himoyalash markaziga murojaat qilib, o'zini ishsiz deb tan olinishini so'ragan. Bandlikka ko'maklashish markazida unga boshqa zavodda tsex boshlig'ining o'rniborsari lavozimini taklif qilishgan. Ammo S.Malikov ushbu taklifdan bosh tortgan va bunga tsex faoliyatining yo'nalishi uning ko'p yillik ishining yo'nalishiga mos kelmasligini asos qilib ko'rsatgan. Bir oz vaqt o'tgach, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy himoyalash markazi S.Malikovga muhandis-mexanik lavozimini taklif qilgan, bu esa uning ma'lumotiga va amaliy tajribasiga mos bo'lgan. Ushbu variant ham Malikovga mos kelmadi, chunki ko'p vaqt uydan uzoqqa ketishga to'g'ri kelar edi. Shundan so'ng Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy himoyalash markazi S.Malikovni ishsiz deb tan olishdan bosh tortgan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro sudga shikoyat qildi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **19-masala**

Fuqaro R.Samiev nogironligi tufayli nogironlar uchun moslashtirilgan avtomashinasini uyining podyezdi oldiga qo'yib foydalanib kelardi.

2016-yilning dekabr oyida fuqaro R.Samiev uyidan 2 km uzoqlikda ko'p qavatlari avtoturargoh qurib bitkazildi. Tuman hokimi tomonidan shu atrofdagi barcha shaxslar o'z avtomobillarini shu avtoturargohga qo'yish majburiyati yuklandi. Agar bunday qilinmasa, yong'in xavfsizligi mashinalari ushbu hududlarga kirishda noqulayliklar yuzaga kelayotganligini ta'kidlab o'tildi. Lekin, fuqaro R.Samiev o'z avtomobilini o'z uyini oldiga qo'yishni davom etdi. Hududdagi militsiya noziri bundan habar topib, fuqaro R.Samievdan o'z mashinasini ko'p qavatlari avturargohga qo'yishni talab qildi. Fuqaro R.Samiev esa "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga ko'ra, nogironlarning

kirishi va foydalanishi uchun moslashtirilmagan holda aholi punktlarini loyihalash va qurishga, turar joy dahalarini barpo etishga, yangi qurilish uchun loyiha echimlarini ishlab chiqishga, binolar, inshootlar va ularning komplekslarini rekonstruktsiya qilishga, shuningdek transport vositalarini, umumiy foydalanishdagi aloqa vositalari va axborot vositalarini yaratish hamda ishlab chiqarishga yo‘l qo‘ylmasligini ta’kidlab o‘tdi. Miliitsiya noziri esa tuman hokimining topshirig‘i shunday ekanligini aytib o‘tdi. Bundan norozi bo‘lgan fuqaro R.Samiev sudga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**20-masala**

Xo‘jalik subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashning reja-jadvali va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston davlat inspeksiysi viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘ining buyrug‘i asosida MChJ ga qarashli avtomobil gaz to‘ldiruvchi kompressor stantsiyasining (AGTKS) 2016-yil 1-maydan 2016-yil 20-maygacha bo‘lgan davrdagi faoliyati suyultirilgan uglevodorodli va siqilgan tabiiy gazni qabul qilish, taqsimlash, sotish, hisob-kitob qilish va hisobini yuritish qoidalariga amal qilinishi nuqati nazaridan tekshirildi.

Tekshiruv davomida aniqlanishicha, MChJ o‘zboshimchalik bilan gaz tarmoqlariga PG-4 plitasini va ikkita isitish qozonini ulagan, va bu haqda tegishli dalolatnoma tuzildi. Dalolatnoma asosida “O‘zdavneftegazoinspeksiya” tomonidan MChJ ga noqonuniy sarflangan gaz qiymatining 10 baravari hajmida jarima yuklash haqida qaror qabul qilindi, va u keyinchalik jamiyatga jarimani ixtiyoriy ravishda to‘lash taklifi bilan birga yuborildi. MChJ jarimani ixtiyoriy ravishda to‘lamaganligi bois, “O‘zdavneftegazoinspeksiya” iqtisodiyot sudiga unga

nisbatan 6 914 510 so‘m hajmida moliyaviy chora ko‘rish haqida ariza bilan murojaat etdi.

MChJ ning fikricha, u Yagona davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) orqali tuman gaz tashkilotiga uch marotaba murojaat qilgan, ular esa o‘z navbatida noqonuniy ravishda gaz ta’midotiga ulanishga ruxsat bermagan. Shu sababli jamiyat o‘zboshimchalik bilan ulanishga majbur bo‘lgan va MChJ tuman gaz ta’midot tashkilotini o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatmaslikda ayblagan.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

## **21-masala**

Farg‘ona viloyatida yashovchi fuqaro A.Ikromov o‘z xonadonida qo‘lbola uslubida tabiiy o‘simpliklardan dori vositalarini tayyorlagan holda tabiblik faoliyati bilan shug‘ullanar edi. Bemor B.Shukurov uzoq davr mobaynida mazkur dori vositalarini iste’mol qilib kelayotganiga qaramay o‘zida biror ijobjiy o‘zgarish sezmagani tufayli unda tabib tayyorlagan dori vositalariga nisbatan shubha tug‘ildi. Shu maqsadda B.Shukurov tabibda dori vositalarini tayyorlashga litsenziyasi mavjudligini bilish uchun undan litsenziyani ko‘rsatishini so‘radi. Biroq, tabib A.Ikromov qo‘lbola uslubida tabiiy o‘simpliklardan dori vositalarini tayyorlash ota-bobolaridan o‘tib kelayotgan kasb ekani, tabiblar dori vositalarni tabiiy o‘simpliklardan tayyorlaganliklari uchun bu faoliyat litsenziyalanmaydigan faoliyat ekanini ta’kidlab o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-maydagi 222-II-sonli qarori bilan tasdiqlangan Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxatida berilgan tibbiy faoliyat ekanligini aytib, tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etdi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

## **22-masala**

Yangi tashkil etilgan “Medical” dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxona tegishli vakolatli davlat organidan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziyani oldi. Korxona dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish va tayyorlash bilan bir qatorda ularning ulgurji va chakana savdosi bilan ham shug‘ullanishni boshladi. Litsenziya olingandan bir yil o‘tib soliq tekshiruvi uchun tashrif buyurgan vakolatli mansabdar shaxslar “Medical” dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxona rahbariyatidan dori vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanishlari berilgan litsenziyani ko‘rsatishni so‘radilar. “Medical” dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxona rahbariyati ularda faqat dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun litsenziya mavjudligini, biroq, dori vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanishlari uchun alohida litsenziyaning mayjud emasligini bildirdilar. Buning natijasida soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi vakolatli shaxslar “Medical” dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonaning dori vositalarining ulgurji va chakana savdosiga doir bir yillik faoliyatini noqonuniy baholab tegishli bayonnomani rasmiylashtirdilar.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

## **23-masala**

Fuqaro N.Lazizov fuqarolik pasportining amal qilish muddati tugayotganini anglagan holda Chilonzor tumani IIBning Xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limiga murojaat qildi. Tegishli hujjalarni rasmiylashtirib kelgan fuqaro N.Lazizov pasport olish uchun rasmga tushdi. Bo‘limning mas’ul xodimi unga bir oy ichida yangi pasporti tayyor bo‘lishini ayтиб bu haqida fuqaro telefon orqali ogohlantirilishini eslatdi. Belgilangan muddatdan bir hafta o‘tgandan so‘ng ham pasport tayyor

bo‘lgani haqida fuqaro N.Lazizovga hech qanday telefon orqali xabar bo‘lmadi. Shundan so‘ng fuqaro tegishli bo‘lim mas‘ul xodimiga mazkur holat yuzasidan murojaat qilganda, xodim unga telefon qilingani, ammo telefon xizmat ko‘rsatish doirasidan tashqarida bo‘lgani uchun xabarni etkaza olmagani hamda kech qolgani uchun bir haftadan keyin kelishini aytdi. Bundan norozi bo‘lgan fuqaro N.Lazizov sudga shikoyat qildi.

***Mazkur holatga huquqiy baho bering.***

**24-masala**

“Alfa MED” firmasi ko‘z kasalliklarini profilaktika, diagnostika qilish va davolashga, kasallik (kasalliklar)dan keyin reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasasi qurishni rejalashtirdi. “Alfa MED” firmasi yuritilajak tibbiy faoliyatga litsenziya olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga murojaat qildi. Litsenziya talabgori litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga tegishli hujjatlarni, jumladan, arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni ham taqdim etdi. Oradan 35 kun o‘tgach, litsenziyalovchi organ tibbiy muassasa bosh shifokorining oliv tibbiy ma’lumotga va malaka toifasiga, shuningdek boshqa mutaxassis vrachlarning oliv tibbiy ma’lumotga va tegishli tibbiy mutaxassislik bo‘yicha malaka toifasiga ega emasligini asos qilib litsenziya berishni rad etdi va litsenziya talabgoriga ko‘rsatib o‘tilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran taqdim etish uchun 2 oy muddat ko‘rsatilgan holda xabarnoma yubordi. “Alfa MED” firmasi 2 oy muddatda bosh shifokor va mutaxassis vrachlarning oliv tibbiy ma’lumotli va tegishli tibbiy mutaxassislik bo‘yicha malaka toifali qilishning imkoniy yo‘qligi sabab berilgan arizadan voz kechdi hamda to‘langan yig‘im summasini qaytarishni talab qildi. Biroq, tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar ekspertizadan o‘tkazilmagan bo‘lsa-da, litsenziyalovchi

organ mansabdor shaxsi to‘langan yig‘im summasi ketgan xarajatlarga sarflandi deya uni qaytarishdan bosh tortdi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

### **25-masala**

Toshkent moliya institutining 2-bosqich talabasi M.Sobirov avtotransport vositasida sodir etgan jinoyati tufayli sud hukmiga binoan, 2 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tab chiqdi. Shundan so‘ng talaba o‘z o‘qishini davom ettirish uchun Soliq akademiyasi rektoriga murojaat qilib qayta tiklashni so‘radi. Ta’lim muassasasi rahbariyati M.Sobirovning arizasiga javob qaytarar ekan, Soliq akademiyasi faqatgina Soliq qo‘mitasiga tegishli kollejlar bitiruvchilarini o‘qishga qabul qilishini, Moliya instituti o‘quv dasturi bilan akademiya o‘quv dasturi bir-biri mos emasligi, shu bilan birga fuqaroning sudlanganlik holatini ko‘rsatib o‘tdi. Shundan so‘ng fuqaro M.Sobirov O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi qoshidagi Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash idoralararo komissiyasiga o‘zining Moliya institutida “Soliqqa tortish” fakultetida o‘qiganligi va mutaxassislik bo‘yicha Soliq akademiyasi dasturiga mosligini qayd etgan holda murojaat qildi.

*Mazkur holatga huquqiy baho bering.*

## **“MA’MURIY HUQUQ VA PROTSESS” FANIDAN NAZARIY SAVOLLAR TO‘PLAMI<sup>1</sup>**

1. Davlat boshqaruvi tushunchasi bilan ijtimoiy boshqaruv tushunchalarining o‘zaro nisbatini nazariy jihatdan tahlil etib, mazkur tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ochib bering.
2. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va aloqadorlikni aniqlab, qaysi bir tushuncha birlamchi ekanligini yoritib bering.
3. Ma’muriy huquqning tartibga solish usullari bilan boshqaruvning ma’muriy-huquqiy usullarning biri-biriga o‘xshash tomonlari va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil etib, yoritib bering.
4. Ma’muriy huquq sohasi manbalari va Ma’muriy huquq fani manbalarini bir biridan farqli va o‘xshash tomonlarini tizimli bayon etish yo‘li bilan ochib bering.
5. Ma’muriy huquqning fuqarolik huquqi bilan o‘zaro munosabati va nisbatini mazkur huquq sohalari tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar va normalari hususiyatidan kelib chiqib ochib bering.
6. Ma’muriy-huquqiy normalarning tuzilishini O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun normalariga asoslangan holda tahlil etib yoritib bering.
7. O‘zbekiston Respublikasida pasport tizimini tushuntirib bering. Amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
8. Moddiy ma’muriy-huquqiy munosabatlar va protsessual ma’muriy-huquqiy munosabatlar o‘zaro aloqasi va farqli jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi normalariga asoslanib, ochib bering.

---

<sup>1</sup> Mazkur savollarni tahlil qilish mavzularni mustahkamlashga yordam beradi.

9. Yuridik faktlarning ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o'zgarishi vqa bekor bo'lishidagi ahamiyati va rolini amaliy misollar vositasida yoritib bering.
10. Ma'muriy huquq subyektlarining maqomi tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini nazariy tahlil etib yoritib bering.
11. O'zbekiston Respublikasida xorijiy mamlakatlar fuqarolarining huquqiy holatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari ro'yxatini yoritib bering.
12. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ma'muriy huquq subyekti hisoblanadimi? Fikringizni qonun hujjatlariga asoslangan holda bayon eting.
13. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yoritib bering.
14. Vazirlıklarni ma'muriy huquq subyekti sifatidagi maqomini yoritib bering. Fikringizni kamida ikkita vazirlik misolida asoslab bering.
15. Boshqaruv akti va ma'muriy-huquqiy shartnomalarning o'zaro nisbati va farqli jihatlarini nazariy tahlil etib, amaliy misollar bilan yoritib bering.
16. Boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shakllar bilan ma'muriy-huquqiy usullarining o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishini nazariy jihatdan ochib bering.
17. Ma'muriy-huquqiy majburloving turlari (shakllari)ni o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bernig.
18. Davlat boshqaruvi usullarini tahlil qiling. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
19. Davlat boshqaruvi usuli sifatida ma'muriy-huquqiy majburloving mazmunini yoritib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
20. Ma'muriy-huquqiy majburloving turi sifatida ma'muriy qayta tiklov choralarining mazmunini yoritib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

21.Ma'muriy-huquqiy usul sifatida ishontirishni tushuntirib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

22.Ma'muriy-huquqiy majburlov choralaring turi sifatida ma'muriy ogohlantiruv chorasini tushuntirib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

23.Ma'muriy jarayon tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatilarini tushuntirib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

24.Ma'muriy-huquqiy majburlov choralaring turi sifatida ma'muriy cheklov chorasini tushuntirib bering. Fikringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

25.Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta'minlashda fuqarolar ishtirokini qanday shakllarini bilasiz? Fikringizni asoslantirilgan holda yoritib bering.

26.Sanoatni boshqarishda vakolatlari bo'lgan xo'jalik boshqaruv organlarining tizimini qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

27.Sanoatda davlat kontroli va nazoratini tushuntirib bering. Nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organlari faoliyatini tahlil qiling.

28.Qishloq va suv xo'jaligini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vakolatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

29.Qishloq va suv xo'jaligini boshqarish sohasida qonuniylik va huquqiy tartibot amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatini qonun hujjatlariga asoslanib tahlil qiling.

30.Xo'jalik-xizmat ko'rsatish kompleksi tarkibi tashkil qiluvchi sohalarni qonun hujjatlariga asoslangan holda o'zaro munosabati va o'zaro farqli jihatlarini yortib bering.

31. Axborot texnologiyasi va tellekommunikatsiyalar sohasidagi boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ular ahamiyatini qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

32. Ta'lim sohasini boshqaruvchi davlat organlari va ular vakolatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

33. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati ustidan davlat nazoratini tegishli qonun hujjatlariga tayangan holda ochib bering.

34. Sog'liqni saqlash sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vakolatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

35. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarishda sanitariya-epidemiologiya nazorati tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslanib ochib bering.

36. Mudofaa sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vakolatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

37. Davlat chegaralarini himoya qilishni tashkil etish tartibi va huquqiy asoslarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

38. Yo'l harakati xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi va vakolatlarini tegishli qonun hujjatlariga asoslanib ochib bering.

39. Ichki ishlar sohasini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

40. Tashqi ishlar sohasini boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakllarini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda tahlil etib bering.

41. Diplomatik vakolatxonalarning xodimlari huquqiy maqomi va javobgarligini tegishli qonun hujjatlariga asoslangan holda yoritib bering.

42. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining normativ-huquqiy xujjalarni ekspertiza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish va qonun xujjalarni kodifikatsiyalash sohasidagi vakolatlari va tartibi yoritib bering.

43. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari sohasidagi vakolatlarini tushuntirib bering.
44. Davlat mulkini, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish sohasidagi boshqaruvning huquqiy asoslarini takomillashuvi va uning ahamiyatini olib bering.
45. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalash sohasidagi boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslarini yoritib bering.
46. Moliya va kredit sohasini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari va huquqiy asoslarini yoritib bering.
47. Madaniyat va sport sohasini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yortib bering.
48. Fuqarolarning davlat organlar (mansabdar shaxslar) noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibini qonun hujjatlariga asoslanib yortib bering.
49. Hozirgi zamonda ma’muriy huquq sohasining dolzarb muammolari qanday va ularni qay tartibda hal etish masalalarini olib bering.
50. Ma’muriy huquq predmetiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlar doirasini yoritib bering.
51. Ma’muriy huquq predmeti doirasiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
52. Ma’muriy huquqning individual subyektlari tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
53. Ma’muriy huquqning jamoaviy subyektlari tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
54. Ma’muriy huquq layoqati va ma’muriy muomala layoqati tushunchalarining farqli jihatlarini yoritib bering.
55. Davlat boshqaruvi subyekti va ma’muriy huquq subyekti tushunchalarini yoritib bering.
56. Davlat boshqaruvi organining ichki tashkiliy faoliyati mazmunini yoritib bering.

57. Ma'muriy huquq subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomini yoritib bering.

58. Korxona, tashkilot, muassasalarni ma'muriy huquq subyekti sifatidagi huquqiy maqomini yoritib bering.

59. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslarning ma'muriy-huquqiy maqomining mazmunini tahlil qiling.

60. Ma'muriy ish yurituv tushunchasi va o'ziga xos xusuyaiyatlarini yoritib bering.

61. Ma'muriy ish yuritish bosqichlarini tahlil qiling.

62. Ma'muriy ish yuritish turlarini yoritib bering.

63. Davlat organlariga berilgan ariza va takliflarga oid ish yuritish tartibini yoritib bering.

64. Litsenziya berishga doir ish yuritishning bosqichlarini yoritib bering.

65. Ruxsat berishga doir ishlarni yuritish mazmunini yoritib bering.

66. Ro'yxatga olishga doir ishlarni yuritish mazmunini va o'ziga xos xususiyatlarni yoritib bering.

67. Fuqarolarni turgan joyi va yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq ish yuritish tartibini amaliy misollar bilan yoritib bering.

68. Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq ish yuritish tartibini yoritib bering.

69. Yakka tartibdag'i tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq ish yuritish tartibini yoritib bering.

70. Ko'chmas mulkka oid huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ish yuritish tartibini yoritib bering.

71. Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati to'g'risida axborotlar berishga oid ma'muriy protseduralarni tahlil qiling.

72. Davlat xizmatlarini ko'rsatishga doir ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.

73. Ma'muriy yustitsiya tushunchasining mazmunini yoritib bering.
74. Ma'muriy-huquqiy nizo tushunchasini yoritib bering.
75. Ma'muriy-huquqiy nizo subyektlarini yoritib bering.
76. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash usullarini tahlili qiling.
77. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashning siyosiy-huquqiy usullarini tahlil qiling.
78. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda jamoatchilik nazorati va uning ahamiyatini tahlil qiling.
79. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda parlament nazorati va uning ahamiyatini tahlil qiling.
80. Jismoni va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini yoritib bering.
81. Davlat boshqaruvida fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini ta'minlashning ma'muriy tartibini tushuntirib bering.
82. Davlat boshqaruvida fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini ta'minlashning sud tartibini tushuntirib bering.
83. Ma'muriy organ tushunchasini va uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
84. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini o'tash tartibini tushuntirib bering.
85. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish tartibini tushuntirib bering.
86. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini bekor bo'lish tartibini tushuntirib bering.
87. Xorijiy mamlakatlarda ma'muriy yustitsiyaning ko'rinishlarini yoritib bering.
88. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy yustitsiya belgilarini yoritib bering.
89. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning huquqiy asoslarini yoritib bering.

90. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari yoritib bering.
91. Davlat xizmatchilarining ma’muriy-huquqiy maqomi tushuntirib bering.
92. Jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibini yoritib bering.
93. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqqan davlat organining majburiyatlarini yoritib bering.
94. Ma’muriy protseduraning mohiyati va ahamiyatini yoritib bering.
95. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy nizolarni hal etish tartibini yoritib bering.
96. Xo‘jalik boshqaruv organlari ma’muriy huquq subyekti sifatidagi o‘rnini yoritib bering.
97. O‘zbekiston Respublikasida “Elektron hukumat” tizimini yoritib bering.
98. O‘zbekiston Respublikasida elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini tushuntirib bering.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA  
VAZIRLIGINING  
YURIDIK KOLLEJLARI**

**B. Musaev, D. Artikov, B.Qosimov**

**MA'MURIY HUQUQ VA PROTSESS**

**DARSLIK**

*Muharrir:*  
*Musahih:*  
*Texnik muharrir:*  
*Kompyuterda sahifalovchi:*

Bosishga ruxsat etildi: .....2019.  
Hajmi: ..... b.t. Adadi: ..... Buyurtma: № ....

Toshkent davlat yuridik universiteti.  
“Tipografiya” bo‘limida chop etildi.  
Toshkent shahri Sayilgoh ko‘chasi 35-uy.